



ONA TILI

*Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining
8-sinfi uchun darslik*

**Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi
vazirligi tasdiqlagan**

Uchinchi nashri

*Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2014*



UO'K: 811.512.133
KBK 81.2O'zbya721

Mualliflar

M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva

Mas'ul muharrir

Qozoqboy Yo'ldoshev — pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

O. Oxunjonova — Nizomiy nomidagi TDPU, p.f. nomzodi;
S. Majidova — XTV tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi.

Shartli qisqartmalar

<i>A. Qod.</i> — Abdulla Qodiriy	<i>P. T.</i> — Parda Tursun
<i>A. Q.</i> — Abdulla Qahhor	<i>P. Q.</i> — Pirimqul Qodirov
<i>A. O.</i> — Abdulla Oripov	<i>R. F.</i> — Rahmat Fayziy
<i>As. M.</i> — Asqad Muxtor	<i>S. A.</i> — Said Ahmad
<i>E. V.</i> — Erkin Vohidov	<i>S. Ayn.</i> — Sadriddin Ayniy
<i>F. M.</i> — Farhod Musajon	<i>S. B.</i> — Safar Barnoyev
<i>H. O.</i> — Hamid Olimjon	<i>S. S.</i> — Sa'dulla Siyoyev
<i>H. N.</i> — Hakim Nazir	<i>T. M.</i> — Tohir Malik
<i>H. G'.</i> — Hamid G'ulom	<i>U.</i> — Uyg'un
<i>H.</i> — Hamza	<i>X. T.</i> — Xudoyberdi To'xtaboyev
<i>I. R.</i> — Ibrohim Rahim	<i>Y. Sh.</i> — Yoqubjon Shukurov
<i>J. Abd.</i> — Jonrid Abdullaxonov	<i>Z.</i> — Zulfiya
<i>M. Ism.</i> — Mirzakalon Ismoiliy	<i>Z. D.</i> — Zafar Diyor
<i>M. O.</i> — Mirkarim Osim	<i>O' H.</i> — O'tkir Hoshimov
<i>O.</i> — Oybek	<i>G' G'.</i> — G'afur G'ulom
<i>O. Y.</i> — Odil Yoqubov	<i>Sh. R.</i> — Sharof Rashidov
<i>O. M.</i> — Omon Muxtor	<i>Shuh.</i> — Shuhrat
	<i>Ch. Ayt.</i> — Chingiz Aytmatov


Shartli belgilar:

 — savol va topshiriqlar

 — esga oling

 — bilib oling

 — iqtidorli o'quvchilar uchun mo'ljallangan mashq va topshiriqlar

 — uyga vazifa

«Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijara uchun chop etildi».

ISBN 978-9943-05-619-0

© M. Qodirov va boshq., 2014
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2010
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014

1-SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI



KIRISH

1-dars

KIRISH SUHBATI.

«SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR...»

1-mashq. *1-topshiriq.* Hikoyatni o‘qing va undan qanday xulosa chiqarilayotganligini ayting.

MUKOFOT VA JAZO

Qadimda podshohlardan biri davlat ishlarini boshqarayotgan paytlarida o‘g‘lini yonida olib o‘tirar ekan.

Bir kuni podshoh kechasi ko‘rgan tushini munajjimga so‘zlab berib, ta‘birini so‘rabdi. Munajjim bilag‘on bo‘lsa-da, dilozor, dag‘al so‘zli ekan. U tushga shunday ta‘bir beribdi:

— Shohim, sizning barcha yor-u do‘stlaringiz o‘lib ketadi, siz yolg‘iz qolib, ko‘p azob chekasiz.

G‘azablangan podshoh munajjimni jazolashni buyuribdi va xuddi shu tushni tadbirkor, mulohazali, oqil vaziriga aytibdi. Dono vazir bu tushga shunday ta‘bir beribdi:

— Shohim, bu qutlug‘ tush sizga muborak bo‘lsin. Sadaqalar bering, bandilarni zindondan ozod qiling. Tangri sizni barcha yor-u do‘stlaringizdan uzoqroq umr ko‘rish baxtiga muyassar qiladi.

Podshoh vazirini zar to‘n bilan taqdirlab, unga ruxsat bergach, o‘g‘liga debdi:

— O‘g‘lim, har ikkalasi ham bir fikrni aytdi.

— Ammo qay tarzda, — deb e‘tiroz bildirdi shahzoda.


— Gap xuddi mana shunda-da. Qarang, biri jazolandi, biri esa taqdirlandi, — deb ziyrak o‘g‘lining fikrini ma‘qulladi podshoh.

(«Ibratli hikoyatlar» kitobidan)


2-topshiriq. Shirin va muloyim so‘zlash, so‘z tanlash, o‘ylab gapirish haqida qanday maqol va hikmatli so‘zlarni, rivoyat va hikoyatlarni bilasiz? So‘zlab bering.


3-topshiriq. «So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor», «Donoga ishora — nodonga kaltak» maqollarining mazmunini sharhlang.

4-topshiriq. Hazrat Alisher Navoiyning «Soʻz durrining tafovuti mundin dagʻi (ham) begʻoyatroq (cheksizroq) va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Adoqki, sharifidin (taʻsiridan) oʻlgan badangʻa ruhi pok etar (toza ruh bagʻishlaydi), kasifidin (kasofatidan) hayotliq tangʻa zahri halok xosiyati (oʻldiruvchi zahar xosiyatini) zuhur etar (hosil qiladi)» degan fikrini qanday sharhlaysiz?

 **Bilib oling.** Inson oʻzining maʼlum bir fikrini turli soʻzlar yoki ishoralar vositasida turlicha ifodalashi mumkin. Bunday oʻzgacha ifodani soʻzlovchining bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, soʻz boyligi va nutq paytidagi muhit (sharoit) belgilaydi.

5-topshiriq. Ayni bir fikrni turli shaklda ifodalab koʻring.

 2-mashq. Hayotiy tajribangiz asosida «Tigʻ yarasi bitadi, lekin til yarasi bitmaydi» maqoli asosida matn tuzing.

 3-mashq. *Uyga vazifa.* **Mustaqillik va istiqbol, kelajak va istiqbol** soʻzlarini ishtirok ettirib, Ona-Vatanimizni sharaflovchi matn tuzing.

2-dars

ADABIY NUTQ

4-mashq. Ilmiy matnni oʻqing va tushunganlaringizni soʻzlab bering.

Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvning eng asosiy vositasidir. U yozma va ogʻzaki nutq jarayonida oʻz ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevalarga xos koʻrinishlari bor.

Adabiy nutq soʻz sanʼatkorlari — yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qatʼiy meʼyorlarga ega boʻlgan nutq koʻrinishidir. Adabiy nutqda har bir soʻz va qoʻshimchanning talaffuzi, imlosi, qoʻllanilishi, maʼnolari aniq meʼyorlar bilan chegaralangan. Bu meʼyorlarni buzish qoʻpol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, oʻqitish ishlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi. Adabiy nutq meʼyorlarini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki oʻz ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Mana shu sababdan, umumtaʼlim maktablarida «Ona tili» oʻquv fanlaridan biri sanaladi. Zero, bu fan adabiy nutq meʼyorlarini oʻrgatadi, sizda undan foydalanish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator oʻziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan koʻrinishlari — **uslublari** mavjud.

Bular quyidagilar:

- 1) soʻzlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub;
- 4) ilmiy uslub; 5) rasmiy-idoraviy uslub.

Soʻzlashuv uslubi kishilarning oilada, koʻcha-koʻyda fikr almashinuvi jarayonida qoʻllaniladigan nutq uslubidir. Soʻzlashuv uslubi, koʻpincha dialog shaklida boʻladi.

Publitsistik uslub axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga xoslangan ommaviy axborot vositalari (radio-televideniye, gazeta-jurnallar) uslubidir.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, yaʼni badiiy asarlarga xos boʻlib, unda badiiylik, ifodaviylik, taʼsirchanlik kuchlidir.

Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qoʻllanilishi xos boʻlib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub oʻziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qogʻozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq boʻladi. Bu uslubda **qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi** kabi qoliplashgan soʻzlar va soʻz birikmalari keng qoʻllaniladi.

5-mashq. Matnlarni oʻqing. Ularning har biri adabiy nutqning qaysi uslubiga xosligini aniqlang.

1. Maʼlumotnoma Azamat Odilovga, uning Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi 3-maktabning 8-sinfida oʻqiyotganligi haqida berildi.

2. Sheʼriyat mulkingning sultoni, birinchi turkiy «Xamsa» asarining muallifi hazrat Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tugʻildi.

3. Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotida tugʻildi. Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda oʻsdi. Besh yoshida uni maktabga berdilar.



Savol va topshiriqlar

1. Adabiy nutq meʼyorlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Adabiy nutqning uslublari deganda nimani tushunasiz?
3. Adabiy nutqimizning keng qoʻllanuvchi uslublari qaysilar?



6-mashq. Uygʻa vazifa. Yozma manbalardan ilmiy va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlarga ikkitadan misol (parcha) topib yozing.

O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

3-dars

MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI

7-mashq. Quyida barcha (6 ta) mustaqil so‘z turkumlarining har biriga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni jadvaldagi turkumlarga ajratib yozib chiqing.

Kuz, biz, ertalab, o‘tirmoq, o‘ntacha, buyuk, bormoq, sakkizinchi, hech kim, chopmoq, chiroy, uchala, qani, foydalanmoq, uyqu, chiroyli, bugun, bari, mardlarcha, befoyda, so‘zlamog, shirin, picha, foyda, uzun, mingta, har narsa, ohista, havo, oltov.

Fe‘l	Ot	Sifat	Son	Ravish	Olmosh
....

8-mashq. Mustaqil so‘z turkumlariga misollar topish yuzasidan «**Topqirlar bellashuvi**»ni tashkil qiling.

9-mashq. *1-topshiriq.* Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Undagi «insonlik sha’niga isnod», «tiriklikdagi o‘liklik» iboralari ma’nosini ham sharhlang.

SHARAFLI BURCH


Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog‘ sayridan qaytib kelayotgan ekan. Yo‘l qabriston oralab o‘tar ekan, qabristonga yuz qadam chamasi qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo‘lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib, o‘tib ketishibdi. Biroz yurishgandan so‘ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda xalqimizning jigargo‘shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir, nahotki shuni

ham bilmasalaring? Buni bilmaslik tiriklikdagi o'liklikdir. Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e'zozlamoq har bir kishining sharaflari burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo'ygan boladek to Hirotning qorasi ko'ringuncha tillarini tishlab, aqlini peshlab boribdilar.


(*Qudrat Hikmat*)

 **2-topshiriq.** Matndagi mustaqil so'zlarni turkumlarga ajrating va o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chirib yozing.

10-mashq. «Kishining eng muhim burchlaridan biri — ota-onaning hurmati» (Alisher Navoiy) hikmatli so'zi asosida o'z mulohazalarinigizni bayon qiling.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish nima uchun mustaqil so'z turumlari deyiladi?
2. Olmosh qanday xususiyatlari bilan boshqa turumlardan ajralib turadi?
3. Ot so'zlar gapda qanday sintaktik vazifalarda keladi?
4. Sifat va son so'zlar qaysi gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin? Misollar keltiring.
5. Ravishlar gapda, ko'pincha, qaysi gap bo'lagiga bog'lanib keladi?
6. Fe'l so'zlarining gapdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?
7. Mustaqil so'z turumlarni o'rganish nega fe'l turumidan boshlanadi?
8. Gapda ot so'zlarga bog'lanib keluvchi va ot o'rnida qo'llanuvchi so'z turumlari qaysilar?
9. Otlashuv hodisasiga misollar keltira olasizmi?

 **11-mashq.** Uyg'a vazifa. Yozgi ta'vil taassurotlaringiz haqida matn tuzing. Undagi mustaqil so'zlarning tagiga chizing va turumini tepasiga yozib ko'rsating.

4-dars

YORDAMCHI SO'Z TURUMLARI

12-mashq. Quyida keltirilgan (3 ta) so'z turumlariga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni jadvalga turumlarga ajratib yozib chiqing.

Nahotki, basharti, qadar, agar, axir, go'yo, boshqa, hatto, sari, chunki, xuddi, keyin, balki, faqatgina, orqali.

Ko'makchi	Bog'lovchi	Yuklama
....

13-mashq. Yordamchi soʻz turkumlariga misollar topish boʻyicha «**Guruhlar musobaqasi**» oʻyinini oʻtkazing.

14-mashq. Berilgan gaplardagi yordamchi soʻzlarni aniqlang, ularning qaysi soʻz bilan bogʻlangani, qanday maʼno ifodalayotgani va gapda qanday vazifa bajarayotganini tushuntiring.

1. Yigʻilgan xaloyiq suron bilan yangi shahar tomon qoʻzgʻaldi. (O.) 2. Gulnoz shundan keyin uch marta xat yozdi, lekin javob kelmadi. (H.Gʻ.) 3. Bilasizmi, siz va biz bir ariqdan suv ichamiz-a. (O.) 4. Hali xabaring yoʻqmi? Asrora opam kasalxonadalar-ku! (S.A.) 5. Nahot sen uning talanti uchun, shon-shuhrati uchun turmushga chiqqan boʻlsang? (O.Y.) 6. Shuni unutmaki, tarbiyaning otasi — mehnat. (H.N.) 7. Otlar goʻyo ovchidan qochgan kiyiklar singari qoʻsh oyoqlab shamoldek uchib bormoqda. (Y.Sh.)

15-mashq. *Rasmni kuzating.* Unda qaysi fasl va nimalar tasvirlangan? Soʻzlab bering. Soʻng «Oʻzbekistonda kuz» mavzusida matn tuzing. Matnda yordamchi soʻz turkumlari (koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar)dan kengroq foydalanishga harakat qiling.



Savol va topshiriqlar

1. Koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar nima uchun yordamchi soʻz turkumlari deyiladi? Ularning mustaqil soʻz turkumlaridan farqi nimada?
2. Koʻmakchilar necha turli boʻladi, ular qanday maʼno va vazifalarda qoʻllanadi?
3. Bogʻlovchilar gapdagi vazifalariga koʻra necha turga boʻlinadi? Ular qaysilar?
4. Yuklamalarning qanday maʼno turlari bor?
5. Koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar gapda boshqa turkumlar oʻrni (vazifasi)da kelishi mumkinmi?
6. Yordamchi soʻz turkumlarining nomlanishi bilan gapdagi vazifalari orasida qanday bogʻliqlikni sezasiz?



16-mashq. *Uyga vazifa.* Shu o‘quv yilida amalga oshiradigan ishlaringiz va niyatlaringiz haqida «Men sakkizinchi sinf o‘quvchisiman» mavzusida insho yozing. Undagi yordamchi so‘zlarni aniqlab, qaysi turkumga oidligini belgilang.

5-dars

UNDOV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLAR

17-mashq. Quyida undov, taqlid va modal so‘zlarga oid misollar (beshtadan) aralash holda berilgan. Ularni jadvalga (ajratib) ko‘chiring.

Ehtimol, eh, g‘ir-g‘ir, ofarin, taqir-tuqur, shekilli, evoh, yalt-yult, shubhasiz, hoy, duv-duv, beh-beh, albatta, qars-qurs, afsuski.

Undov so‘zlar	Taqlid so‘zlar	Modal so‘zlar
....

18-mashq. Undov, taqlid va modal so‘z turkumlariga oid misollar topish bo‘yicha «**Tez va ko‘p topish**» o‘yinini o‘tkazing.

19-mashq. Berilgan gaplardagi undov, taqlid va modal so‘zlarni aniqlab, guruhlab yozing. Ularning gapdagi vazifasini sharhlang.

1. Demak, ishlash mumkin. Ehtimol, ketmon bilan yer ag‘darishga ham to‘g‘ri kelar. (*A.Q.*) 2. Razm solib qaragam, ko‘l beti g‘uj-g‘uj o‘rdakka to‘lib ketibdi. (*S.A.*) 3. Akramning xayolini mototsiklning «pat-pat»i buzib yubordi. (*O.Y.*) 4. Bay-bay-bay, bunaqasini yemaganimga necha yil bo‘ldi ekan... (*A.Q.*) 5. Kengash yaxshi o‘tgan chamasi, G‘iyosiddinovning vaqti chog‘ edi. (*P.Q.*) 6. Dildor, nazarimizda, Chortrakning fayzi, jamoli edi. (*S.A.*) 7. Oshxonaga chiqsak, voy-bo‘y, hovliga bola degani sig‘may ketibdi. (*X.T.*) 8. Yo‘lkaning oxirida milt-milt yongan shu‘la ko‘ri-nardi. (*O.Y.*)



Savol va topshiriqlar

1. Undov, taqlid va modal so‘zlar nega mustaqil yoki yordamchi so‘z turkumlari qatorida sanalmaydi?
2. Undov so‘zlar nutqda qanday vazifalarni bajaradi?
3. Taqlid so‘zlar qanday hosil qilinadi? Ular gapda qaysi gap bo‘laktari vazifasida kelishi mumkin?

4. Taqlid soʻzlardan koʻproq qaysi turkum soʻzlari yasaladi?
5. Qanday soʻzlar modal soʻzlar deyiladi?
6. Undov, taqlid va modal soʻzlarning gapda ot vazifasida qoʻllanishiga misollar keltira olasizmi?



20-mashq. *Uyga vazifa.* Kundalik matbuot nashrlaridan undov, taqlid, modal soʻzlar qatnashgan matnlar yoki parchalarni koʻchirib yozing va ularning gapdagi vazifasini sharhlang.

6-dars

OLMOSHNING MA'NO TURLARI

21-mashq. Quyida olmosh soʻzlar maʼno turlarining har biriga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni maʼno turlari boʻyicha jadvalga joylashtiring.

Oʻsha, hamma, qaysi, oʻzim, allakim, hech qaysi, men, barcha, oʻzi, hech qancha, sen, ana, qachon, har kim, oʻzlari, sizlar, hech qayer, biz, qayer, mana shu, qaysidir, hech qachon, qanaqa, ular, bari, oʻzing, nega, ana oʻsha, nimadir, oʻzingiz, allaqancha, hech bir, allaqanday, har qancha, bu.

Kishilik olmoshi	Oʻzlik olmoshi	Koʻrsatish olmoshi	Soʻroq olmoshi	Belgilash olmoshi	Boʻlishsizlik olmoshi	Gumon olmoshi
....

22-mashq. Misollarni koʻchiring. Olmoshlarni topib, qaysi maʼno turiga mansubligini ayting.

1. Agar indamasak, senlarning lapar aytishlaring kechgacha tugamaydiganga oʻxshaydi. (*S.A.*)
2. Oʻz uyim deb soʻzlama, uy ortida kishi bor.
3. Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozi.
4. Baxil topsa bosib yer, saxiy topsa barcha yer. (*Maqollar*)
5. U kishidan bir gap chiqadi. (*A.Q.*)
6. Hamma gapingiz haq, oʻrtoq Ahmedov. (*A.Q.*)
7. Unday boʻlsa, eshon-u Sulton bilan Fuzayl maxsum nega bunday yarashga unamaganlar? (*S.A.*)
8. Shu xayol, shu tasavvur bilan yigit Darai Nihonga qarab joʻnadi. (*S.A.*)
9. Bunga mening insofim yoʻl bermaydi. (*S.A.*)
10. Shirinsoʻz, mehribon xola yana uning yelkasiga qoqib omonlashdi. (*Mirmuhsin*)
11. U ona boʻlishdan behad shod. (*I. Rahim*)
12. Uning qoni toʻkilgan joydan shifobaxsh buloq

chiqqan. (*I. Rahim*) 13. Bu gapni hazilga yo'yish uchun Sidiqjon ham kuldi. (*A.Q.*) 14. Sizdan qarzimni uzib, keyin bolamga qarz bermoqchiman. (*A.Q.*) 15. Siz meni qandaydir sirli odam deb o'ylayapsiz. (*Mirmuhsin*)

23-mashq. Mana shu, har kim, hech narsa, allakim, o'sha-o'sha olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularni olmoshning qaysi ma'no turiga oidligiga ko'ra tavsiflang, qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganini ham ayting.



24-mashq. Uyga vazifa. «Kim birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi» maqoli asosida matn yarating.

7-dars

RAVISHNING MA'NO TURLARI

25-mashq. Quyida ravish so'zlar ma'no turlarining har biriga aralash holda 5 tadan misol berilgan. Ularni ma'no turlari bo'yicha jadvalga joylashtiring.

Zo'rg'a, kecha, uzoqda, sal, mardlarcha, boya, unda-bunda, g'oyat, olg'a, endi, tez, ozgina, yuqoridan, ertalab, ko'p, to'satdan, avval, to'g'riga, juda, do'stona.

Holat ravishi	Miqdor-daraja ravishi	O'rin ravishi	Payt ravishi
....

26-mashq. Misollarni ko'chiring. Ravish so'zlarni topib, qaysi ma'no turiga oidligi va qanday vazifada kelganini ayting.

1. Xadicha xola bundan yaqin olti oy burun kelganida, bir qiyiq behi olib kelgan edi. (*A.Q.*) 2. Xadicha xola xiyla o'ylanib turdi. (*A.Q.*) 3. Men darvozaning oldida ancha turib qoldim. (*O.Y.*) 4. Sidiqjon picha o'tirdi-yu, endi qaytib ketmoqchi bo'lib turganida O'rmonjon kelib qoldi. (*A.Q.*) 5. Bir zamon eshik «g'iyq» etib ochildi-yu, Hamro bosh suqib mo'raladi. (*G'.Rasulov*) 6. Poyezd meni sershovqin stansiyaga tashlab, yana qichqirganicha, oldinga intildi. (*S.A.*) 7. Kechqurun Sidiqjonni ko'rgani bolaligidagi o'rtoqlaridan biri keldi. (*A.Q.*) 8. Bu hafta ularning nazarida bir yildan ham uzun tuyuldi. (*S.A.*) 9. To'lagan aka indamasdan chiqib ketdi. (*A.Q.*) 10. U O'rmonjonga, Bo'taboyga, Kanizakka ko'pdan ko'p salom aytdi. (*A.Q.*)

27- mashq. To'xtovsiz, do'stona, qishin-yozin, mardlarcha, inglizcha yasama ravishlari ishtirokida gaplar tuzing. Ravishning qaysi ma'no turiga mansubligini, gapda qanday sintaktik vazifada kelayotganini aytib.

28- mashq. *1- topshiriq.* Matnni o'qib, unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aytib. Hikoyadagi ibratdan qanday hikmat yuzaga kelgan?

IBRAT

O'RGIMCHAK BILAN IPAK QURTI

O'rgimchak ipak qurtini ko'rib, uning ustidan kuldi va:

— Omonmisan, do'stim! Sen juda sekin, juda og'ir ish qilyapsan. Qara, men oz vaqtda kattakon bir to'rni bir zumda to'qib tashlayman, — dedi.

Ipak qurti o'rgimchakka dedi:

— To'g'ri, sen haqsan. Ammo bir zumda qilingan bu uyingdan nochorroq uy bormi? Sening ingichka iplaring juda zaifdir. Men sekin ishlayman, ammo pishiq ish qilaman. Shu bois ipagimni hamma qadrlaydi. Ipagim oz bo'lsa ham, senikidan ustun va qimmatdir.


(Sharq hikoyasi)


HIKMAT

Har bir yaxshi va puxta ish kelajakda katta rivojlanishlarga sabab bo'ladi. O'rgimchakning shoshib bajargan ishi sifatsiz. Ipak qurtining sekin bajargan ishi pishiq, puxta. Shu bois, u qimmatli. Odamlar ham xuddi o'rgimchak singari shoshma-shosharlik bilan emas, ipak qurti singari sekin, shoshmasdan, o'ylab, pishiq, puxta ish qilishi kerak.

Ey o'quvchi! Jamiyatga kerakli bo'lishni istasang, ishingni puxta qil. Shuni aniq bilginki, jamiyat sen kabi insonlarga muhtojdir. Insoniyat faqat sen kabilarning obdan o'ylab amalga oshiradigan pishiq, puxta ishlari tufayli yuksaladi.

(Muhammad Kamol)

 **2-topshiriq.** Matndagi ravish so'zlarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda ko'chirib yozing. Gap bo'lagi sifatidagi vazifasini aniqlang.

 **29-mashq.** *Uyga vazifa.* **Sal, kecha, hamisha, ilgari** ravishlari qatnashgan gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizda ravishlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganini belgilang.

IJODIY MATN. INSHO VA UNING TURLARI

8-dars

MA'LUMOTNOMA MATNI VA IJODIY-TAVSIFIY MATN

30-mashq. Ikkala matnni qiyoslab, shakl va mazmundagi o'xshashlik hamda farqlarni ayting. Buning sababini tushuntiring va berilgan savollarga javob bering.

B i r i n c h i m a t n

ALISHER NAVOIY

*Besh asrkim nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.*

(A. Oripov)

Ha. Bu «zanjirband sher»ning necha asrlardan beri jahonni maftun etib kelayotgan g'azallari porloq quyosh kabidir. Uning betakror nazmi oldida hatto Sa'diy va Hofizning she'riyat osmonidagi yulduzlari xira tortdi. «Nizomiy panjasiga panja urib» bunyod qilgan «Xamsa»si «Panj ganj» shuhratiga soya soldi. Forsigo'ylar uning turkiy tilda yozganligidan shukronalar aytdilar.

I k k i n c h i m a t n

ALISHER NAVOIY

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida tug'ildi. Shoirning she'rlari XV asrning 60-yillaridayoq mashhur bo'la boshladi. Shoirning ilk devonlari bundan darak berib turibdi.

Yillar o'tishi bilan Alisher Navoiy asarlarining shuhrati ortib bordi va butun jahonga tarqaldi. Yevropa va Osiyodagi barcha davlatlarda Alisher Navoiy kitoblarning yoyilishi, ularning o'nlab tillarga tarjima qilinganligi buning yorqin dalilidir.

Alisher Navoiy asarlari o'zining badiiyligi, mazmundorli va go'zalligi bilan Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan ustun turar edi. Shuning uchun uning ustozlari, fors-tojik adabiyotining ulkan namoyandasi Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiy ijodi xususida shunday deb yozgan: «Shukrlar bo'lsinki, u she'rlarini turkiy (ya'ni o'zbek) tilida ijod qilgan. Agar u forsiy tilda ijod qilganda, bizning asarlarimizni hech kim o'qimas edi».



Savol va topshiriqlar

1. Qaysi matnda hissiyot kuchli?
2. Qaysi matnda fikrlar aniq va isbotlar bilan berilgan?
3. Har ikkala matndagi axborot deyarli bir xilmi?
4. Ikki matnni qiyoslab, ular orasidagi asosiy farq nimada ekanligini ayta olasizmi?



Bilib oling. Ma'lumotnoma matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Bunday matnda so'zlarning ko'chma ma'nolaridan, tilning badiiy-tasviriy vositalaridan deyarli foydalanilmaydi, voqea-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

Ijodiy-tavsifiy matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir.

Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan ta'riflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir.

Ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlaridir.

31-mashq. O'zingiz o'qiyotgan sinfxona haqida avval ma'lumotnoma matni, so'ng ijodiy-tavsifiy matn tuzing.



32-mashq. O'zingiz yoqtirgan shoir yoki yozuvchi haqida ma'lumotnoma va ijodiy-tavsifiy matnlar tuzing.



Savol va topshiriqlar

1. Ma'lumotnoma matni qanday tuziladi, unda nimalarga e'tibor qaratiladi?
2. Ijodiy-tavsifiy matnning asosiy belgilari haqida gapiring.
3. Insho matnning qaysi turiga kiradi?



33-mashq. Uyga vazifa. Oilangiz a'zolari haqida avval ma'lumotnoma matni, so'ng ijodiy-tavsifiy matn tuzing.

INSHO — IJODIY MEHNATNING OLIY KO'RINISHI

34-mashq. Matnni o'qing. Uni og'zaki hikoya qiling. Matn oxirida berilgan savollarga javob bering.


INSHO — IJODIY MEHNAT

Insho o'quvchining ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qila olish ko'nikma va malakalarini, shu mavzu bo'yicha bilimlarini namoyish etuvchi ijodiy matn — kichik bir asardir. Yozuvchi va shoir, olim va muxbir o'zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas'uliyat bilan qaragani kabi o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero, insho o'quvchi ma'naviyati va ma'rifati ko'zgasidir. Unda o'quvchining bilimlari, his-tuyg'ulari, fikrlarini bayon etish ko'nikma va malakalari o'z aksini topadi.

Inshoning har bir turi o'z shakli va mazmuniy xususiyatlariga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Insho nima? U muallifning qanday xislatlarini namoyon qiladi?
2. Inshoda badiiy asardan va boshqa kitoblardan aynan olingan o'rinlar qanday berilishi kerak?
3. Ikki o'quvchining ayni bir mavzuda yozgan inshosi bir xil bo'lishi mumkinmi?
4. Ikki o'quvchining ayni bir mavzuda yozgan inshosida qanday umumiyliklar, o'xshashliklar bo'lishi mumkin?
5. Inshoning yozma axborot bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?

 **Bilib oling.** Insho — ijodiy mehnatning oliy ko'rinishi, murakkab aqliy mehnat mahsulidir. U muallifdan o'z fikrlarini zarur dalillar asosida mantiqan izchil va badiiy tarzda, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri izhor etishni talab qiladi. Shuning uchun ma'lum mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid badiiy yoki hayotiy manbani, unga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqish, tezis (qisqa ifoda) yaratish, dalillash uchun ko'chirmalarni yig'ish, xomaki rejani shakllantirib olish talab qilinadi.

Didaktik maqsadlarga ko‘ra insholar ikki xil bo‘ladi: a) ta‘limiy insholar; b) sinov insholari.

Ta‘limiy insholar sinfda yoki uyda o‘quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to‘g‘ri bayon qilishga qaratiladi.

Sinov insholari o‘rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko‘nikma va malakalarni sinash uchun yirik mavzular tugagandan so‘ng, choraklar yoki o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi.

35-mashq. «Konstitutsiyamiz — baxtimiz qomusi» mavzusida kichik insho yozing.



36-mashq. Rassom N. Qo‘ziboyevning «Navoiy va Husayn Boyqaro» deb nomlangan asarini kuzating. Undan foydalanib, shu sarlavha ostida insho yozing.



Savol va topshiriqlar

1. Inshoga nega «ijodiy mehnatning oliy ko‘rinishi» deb baho beriladi?
2. Insho yozishdan oldin qanday tayyorgarlik ishlari qilinishi kerak?
3. Didaktik maqsadlarga ko‘ra insholar necha xil bo‘ladi?



37-mashq. Uyga vizifa. «Onajonim — mehribonim» mavzusida insho yozing.

10-dars

INSHO TURLARI



Bilib oling. Insho arabcha so‘z bo‘lib, «yaratish», «bino qilish», «qurish» ma‘nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so‘zning ma‘nosi ancha torayib, asosan, o‘quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan «ijodiy yozma ish» ma‘nosida qo‘llanadi.

Insho muallifning ma'lum bir mavzu asosida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik bir asardir. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikriy, tafakkuriy ko'nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi.

Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra 3 turli bo'ladi:

1. Adabiy mavzudagi insholar.
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.
3. Erkin mavzudagi insholar.

Adabiy mavzudagi insholarga adabiyot darsligida qayd qilingan, o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladigan insholar kiradi.

Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarga adabiyot darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining ijodiy munosabati (shaxsiy fikrlari) qo'shib ifodalanadigan insholar kiradi.

Erkin mavzulardagi insholar adabiyot fani dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Boshqacha aytganda, o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi insholar **erkin mavzudagi insholardir**.

Savol va topshiriqlar

1. Insho nima? Hozirgi tilimizda **insho** so'zi qanday ma'noda qo'llanadi?
2. Inshoda uni yozgan muallifning qanday xislatlari ko'rinadi?
3. Insho necha turli ko'rinishda bo'ladi?
4. Qanday insholarni adabiy mavzudagi insholar deymiz?
5. Adabiy-ijodiy inshoning adabiy inshodan farqi nimada?
6. Erkin mavzudagi insholarga qanday talablar qo'yiladi?

38-mashq. Adabiyot darslarida yaqin kunlarda o'tilgan biror badiiy asar bo'yicha adabiy mavzudagi insho mavzularini tuzing.

39-mashq. O'zingiz yoqtirgan biror badiiy asar asosida adabiy-ijodiy mavzudagi insho uchun bir mavzu tanlang. Shu mavzuga murakkab reja tuzing.

40-mashq. «Insho turlari, ularning bir-biridan farqi» mavzusida ilmiy matn tuzing.

41-mashq. *Uyga vazifa.* Xalq dostonlaridan biriga aloqador bo'lgan mavzu tanlang, reja tuzib insho yozing.

11-dars

ADABIY VA ADABIY-IJODIY MAVZULARDAGI INSHOLAR



Esga oling. Sizga birinchi sinfdan tanish bo'lgan oddiy yozma tasvirlar, rasm asosidagi hikoya, turli xil maktublar ham inshoga o'xshaydi. Lekin ularni haqiqiy insho deb bo'lmaydi. Chunki bunday yozma ishlarda o'quvchining mustaqilligi va ijodiyligi chegaralangan bo'ladi.

42-mashq. Guruhlarga bo'linib, biror badiiy asar bo'yicha insho mavzulari tuzing. Shulardan bitta mavzuning mufassal rejasini shakllantiring. Buning uchun dastlab qanday bilimlar zarurligini esga oling.



Bilib oling. Muayyan badiiy asar yoki undagi qahramonlar haqidagi insho **adabiy mavzudagi insho**dir. Bunday mavzudagi inshoda biror asar yoki qahramonlar taqdiri tahlil qilinadi.

43-mashq. O'zingiz yoqtirgan biror badiiy asar asosida adabiy-ijodiy insho uchun mavzular tanlang. Shu mavzular bo'yicha murakkab reja asosida insho yozing.



Bilib oling. **Adabiy-ijodiy mavzudagi insho**da biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdirini tahlil qilishda o'quvchi o'z mustaqil fikri bilan yondashadi. Ya'ni adabiy-ijodiy inshoda ijodiy fikrlashga katta e'tibor beriladi. Bu insho turining adabiy mavzudagi inshodan farqi ham ana shunda.

44-mashq. Quyida adabiy va adabiy-ijodiy insholarning mavzulari aralash holda berilgan. Ularni ajratib yozing.

1. «Alpomish» dostonida qahramonlik tasviri. 2. A. Qodiriy — tarixiy romanlar ustasi. 3. Men sevgan adib. 4. H. Olimjon — lirik shoir. 5. «Sen yetim emassan» she'ridan olgan taassurotlarim. 6. A. Qahhor — kichik hikoyalar ustasi. 7. «Mehrobdan chayon» romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi. 8. Zulfiya — men sevgan shoira.

45-mashq. Yuqoridagi mavzulardan birini tanlab, murakkab reja tuzing.



Savol va topshiriqlar

1. Adabiy mavzudagi inshoda nimalar tahlil qilinadi? Misol keltiring.
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi inshoga qanday yondashiladi? Uning adabiy mavzudagi inshodan farqi nimada?



46-mashq. *Uyga vazifa.* Adabiyot darslarida yaqin kunlarda o‘tilgan asar asosida adabiy-ijodiy mavzu tanlang. Reja tuzib, insho yozing.

12-dars

ERKIN MAVZUDAGI INSHOLAR

47-mashq. Berilgan mavzularda erkin mavzudagi insho yozish uchun qaysi sohalarga oid bilimlar zarurligini ayting va fikringizni sharhlang.

1. Kitob — bilim manbasi.
2. Vatanni sevmiq iymondandir. (*Hadisdan*)
3. Nima uchun Bobur asarlari menga yoqadi?
4. O‘zbekiston — Vatanim manim. (*A.O.*)
5. Tanti dehqon — o‘zbekim. (*E.V.*)
6. Hayotda bo‘lmasa muallim agar. (*A.Jomiy*)
7. Inson har narsadan ulug‘.



Bilib oling. O‘quvchining ma’lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insholar **erkin mavzudagi insholardir**. Erkin mavzudagi insholarda o‘quvchining bir mavzu bo‘yicha turli fanlardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

48-mashq. Adabiyot, ona tili, tarix, geografiya, biologiya fanlari bilan aloqador erkin insho mavzularini shakllantiring. Ulardan birining mufassal rejasini tuzing.

N a m u n a:

O‘ZBEKISTON — VATANIM MANIM

R e j a:

I. **K i r i s h.** O‘zbekistonning tarixi va istiqboli haqida.

II. **A s o s i y q i s m:**

1. «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?»
2. O‘zbekiston jahonga yuz tutmoqda.
3. Vatanimning tabiiy boyliklari.
4. Vatanim — rivojlangan sanoat maskani.
5. O‘zbekiston shoirlar va adiblar madhida.

III. **X u l o s a.** O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat.

49-mashq. Berilgan mavzu va reja asosida erkin mavzuda insho yozing.

DAVLATIMIZ MADHIYASI

R e j a:

I. **K i r i s h.** Madhiyamizni o'qiganimizda yoki tinglaganimizda ko'z oldimizda nimalar gavdalanadi?

II. **A s o s i y q i s m:**

1. Madhiyamizda va mening tasavvurimda Vatan.
2. Vatanimning o'tmishi va buguni.
3. Vatanimning kelajagi.

III. **X u l o s a.** Men o'z Vatanim bilan faxrlanaman.

? Savol va topshiriqlar

1. Inshoning qanday turi erkin mavzudagi insho deyiladi?
2. Erkin mavzudagi inshoda muallifning qaysi xislatlari aks etadi?
3. Erkin mavzudagi insholar qaysi soha bilimlariga aloqador bo'lishi mumkin?

50-mashq. Uyga vazifa. Rasmni kuzating. Undan va davlatlararo zamonaviy aloqalarga oid ma'lumotlardan foydalanib, «Buyuk ipak yo'li va zamonamiz» mavzusida insho yozing.



13-dars

INSHOGA EPIGRAF TANLASH

51-mashq. Jadvalni kuzating. Uning 1-ustunida insho mavzulari, 2-ustunida muayyan mavzularning mazmunini ochib beruvchi fikr (maqol, mashhur bayt) keltirildi. Insho mavzulariga mos keluvchi fikr (epigraflarni tanlang va bir-biriga bog'lang.

T./r.	Insho mavzusi	T./r.	Epigraflar
1.	Alisher Navoiy — she'riyat sultoni.	1.	Ona, yurtning — oltin beshiging, Yurtning omon — o'zing omon. (Maqol)

2.	O‘zbekiston — Vatanim manim.	2.	Besh asrkim nazmiy saroyini Titratadi zanjirband bir sher.	(A. Oripov)
3.	Mehnat baxt keltirar.	3.	Suv — zar, suvchi — zargar.	(Maqol)
4.	Suv — hayot manbayi.	4.	Mehnat, mehnatning tagi rohat.	(Maqol)

Bilib oling. Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so‘z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi.

Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o‘ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo‘lgan matndan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.

Inshoda epigraf bo‘lishini qat’iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriydir. Lekin mavzuga va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlansa, inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko‘rsatadi.

52-mashq. Quyidagi insho mavzulariga mos keluvchi epigraflar toping.

1. Alisher Navoiyning «Topmadim» g‘azali tahlili.
2. Muhammad Yusuf she‘rlarida samimiylik va haqqoniylikning tarannum etilishi.
3. A.Qodiriy — tarixiy romanlar ustasi.
4. «O‘tkan kunlar» romanidagi Zaynab timsoliga tavsif.

53-mashq. «O‘zbekistonimning ertasi», «Yangi asr orzulari», «O‘.Hoshimov asarlarini sevib o‘qiyman», «Men sevgan adabiy qahramon» mavzularining biriga reja tuzing va epigraf tanlang.

? Savol va topshiriqlar

1. Epigraf nima? Inshoga epigraf qanday tanlanadi?
2. Barcha insholarda epigraf bo‘lishi shartmi?
3. Epigraf inshoning qaysi qismida joylashadi, unda qanday tinish belgilari qo‘yiladi?

54-mashq. Uyga vazifa. «Ma’naviyat — qalbm quyoshi», «Men ozod Vatan farzandiman», «Onajonim — mehribonim» mavzularidan birini tanlab uy inshosi yozing. Insho mazmuniga mos keluvchi epigraf qo‘yishga harakat qiling.


14–15-darstar


YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

SINTAKSIS, OHANG VA TINISH BELGILARI

16-dars

SINTAKSIS HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

 **Bilib oling.** Biz foydalanayotgan til turli birliklardan, vositalardan iborat. Ularning har biri tilda o'zining muhim vazifasini bajaradi. Tahlil qilganda til birliklari ajratiladi, aniqlanadi va izohlanadi.

 **1-topshiriq.** O'qing. Ushbu matnda nechta gap borligini ayting.


Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Havoga yelpig'ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi. Chor atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to'ldi. (*O'.H.*)

Gap — til birligi.

 **2-topshiriq.** Quyidagi gapda nechta so'z birikmasi borligini aniqlang.


Katta sement ko'prik ustidan mashinalar tinimsiz o'tib turibdi. (*S. A.*)

So'z birikmasi — til birligi.


 **3-topshiriq.** Har bir gapda nechtdan so'z borligini aniqlang.

1. Tebranib yonayotgan sham zo'r mo'jizaday hammaning diqqatini jalb qilgan edi. (*A. Q.*) 2. Otni tepmaydi dema, itni qopmaydi dema. (*Maqol*) 3. Anvar do'stining gap boshlaganidan quvonib ketdi. (*O'.H.*) 4. Jannat xola shoshib yo'lakka yugurdi. (*S.A.*)

So'z — til birligi.

 **4-topshiriq.** **Kitob, piyoz, chelak, stul** so'zlaridagi tovushlar miqdorini aniqlang.


Tovush — til birligi.

 **5-topshiriq.** Mening kitobim, piyozni archadi, chelakka quydik, stulda o'tiribdi birikmalaridagi so'zlar nimalar vositasida bog'langan?

Namuna:

So'z birikmasi	Qo'shimchalar
Mening kitobim	-ning, -im
...	...

Qo'shimcha — til birligi.

 **Bilib oling.** So'zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o'zaro birikuvidan **so'z birikmalari** va **gaplar** hosil bo'ladi. **So'z birikmalari** va **gaplar** o'z qurilishi hamda ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi.

So'z birikmalari hamda gaplarning qurilishi va ifoda xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi **sintaksis** deyiladi.

Sintaksis so'zlarning bir-biri bilan bog'lanishi hamda gap tuzilishi qonun-qoidalarini o'rganganligi uchun unda:


1) **so'z birikmasi sintaksisi**; 2) **gap sintaksisi** kabi bo'limlar mavjuddir.

Gap og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan aytiladi. Bu ohang yozuvda tinish belgilari bilan ifoda etiladi. Tinish belgilari qo'llanishi haqidagi qoidalar yig'indisi **punktuatsiya** deyiladi.

Har qanday til o'zining nutq tovushlari, so'z (ibora)lari va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya'ni gap qurilishida namoyon qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Til birliklarini sanab bering va ularning fikrni shakllantirishdagi vazifasini tushuntiring.
2. So'z birikmalari va gaplar qanday hosil qilinadi?
3. Tilning qanday bo'limi **sintaksis** deyiladi? Uning ichki bo'limlarini ayting.
4. Tinish belgilari nimaga xizmat qiladi? Punktuatsiya nima? U nega sintaksis bilan birgalikda o'rganiladi?

 **55-mashq.** Uyga vazifa. Berilgan gapdagi so'zlarning o'zagini aniqlang. Bu so'zlar gapda qanday vositalar orqali bir-biriga bog'lanayotganini izohlang.

Biz rostgo'ylik va halollikni hamisha ulug'laymiz.

SO‘Z BIRIKMASI SINTAKSISI

17-dars

SO‘Z BIRIKMASI

(Hosil bo‘lishi va grammatik ma‘nolari)

56-mashq. Berilgan so‘z birikmalaridagi hokim va tobe so‘zlamini aniqlang. Ularning qaysi turkum so‘zlar bilan ifodalanganini ayting.

1) ishonchli do‘st, oq kabutar, qizargan olma; 2) do‘stona munosabat, g‘oyat qiziqarli, o‘zbekcha nutq; 3) qiyinchilikni yengmoq, kitobni o‘qimoq, daraxtga chiqmoq; 4) hovlining o‘rtasi, qushning qanoti, do‘stimning maktubi.




Bilib oling. Ikki va undan ortiq mustaqil so‘z grammatik va ma‘no jihatdan birikib, **so‘z birikmasini** hosil qiladi. So‘z birikmasi **hokim so‘z** va **tobe so‘z**dan tuziladi. Tobe so‘z hokim so‘zni aniqlab, to‘ldirib, izohlab keladi. Turli turkum so‘zlari hokim so‘z vazifasida kela oladi.

So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi turkumga oid so‘z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga bo‘linadi: **otli so‘z birikmasi**, **fe‘lli so‘z birikmasi**.

Otli so‘z birikmasida hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi: *shaharning ko‘chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug‘ur-chug‘uri, o‘quvchilarning beshtasi, beqiyos o‘lka, katta qishloq.*

Fe‘lli so‘z birikmasida hokim so‘z fe‘l bilan ifodalanadi: *kitobni o‘qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq, ta‘sirli so‘zlamoq, zavq bilan o‘qimoq.*


O‘zbek tilida so‘z birikmalarining tobe so‘zi, asosan, hokim so‘zdan oldin keladi.

57-mashq.  **topshiriq.** Matnni o‘qing. Ajratilgan tobe so‘z qaysi hokim so‘zni kengaytirib u bilan so‘z birikmasi hosil qilishini aniqlang. So‘z birikmalarini ajratib ko‘chiring. Ularning turlarini ayting.

NOCHORLIK NIMADAN?

Tog‘ qishloqlaridan birini kuchli sel bosibdi. Sel bir xonadonning Hasan va Husan ismli egizaklarini ham oqizib ketibdi. Bu qishloqdan ancha quyidagi bir joyda **Hasanni** bir cho‘pon, boshqa yerda **Husanni** bir hunarmand qutqaribdi va o‘zlariga asrandi o‘g‘il, aniqrog‘i, xizmatkor qilib olibdilar. Bolalar **qiyinchilik bilan** ulg‘ayibdilar. Bo‘sh, **kamharakat** va **qo‘rqoq** Hasan tushkunlikka tushibdi va taqdirim shu ekan deb, cho‘ponga xizmatkor bo‘lib qolaveribdi.

Husan esa tabiatan tirishqoq va dadil ekan. U qunt bilan ishlabdi, hayotni **diqqat bilan** o‘rganibdi, **oqilona** harakat qilibdi, **tezda** hunarmandlik **sirlarini** o‘zlashtiribdi, halol ishlab, asta-sekin o‘z ishini tashkil etibdi. **Yosh** hunarmand o‘z kasbiga, uyiga, bola-chaqasiga, do‘koniga ega bo‘libdi, **zavqli** mehnat bilan **tinch** yashay boshlabdi. Kunlardan bir kuni aka-ukalar bir-biri bilan topishibdi. Shunda Hasan taqdiridan, nochorlikdan nolibdi. Ukasi Husan esa qanday qilib baxtli bo‘lgani, o‘z **harakatlari**, **tadbirkorligi haqida** so‘zlab beribdi. Shuning uchun ham xalqimiz: «Nochorlik — harakatsizlikdan», — deydi.


 **2-topshiriq.** Ajratis ko‘rsatilgan so‘z birikmalaridagi tobe so‘zning o‘mi haqida xulosa chiqaring.

58-mashq. Gaplar (maqollar) tarkibidagi so‘z birikmalarini aniqlab, ulami otli so‘z birikmasi hamda fe‘lli so‘z birikmasiga ajratib yozing.

1. Yigitning baxtini mehnat ochar. 2. Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan. 3. Bulbul chamanni sevar, odam — Vatanni. 4. Maydonda sinalgan odam — elda aziz. 5. Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas. 6. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil.

Savol va topshiriqlar

1. So‘zlarning qanday birikuviga so‘z birikmasi deyiladi?
2. So‘z birikmasidagi bosh so‘z va tobe so‘zni misollar asosida tavsiflab bering. Otli so‘z birikmasi va fe‘lli so‘z birikmasiga misollar keltiring. Ular nega shunday ataladi?
3. So‘z birikmasida hokim so‘z va tobe so‘zlarning joylashuvi haqida so‘zlang.

 **59-mashq.** Uyga vazifa. Gapdagi so‘z birikmalarini aniqlovchili birikmalar, to‘ldiruvchili birikmalar va holli birikmalar kabi guruhlarga ajratib ko‘chiring.

Shaharda ko‘p qavatli baland binolar qurish avj olgan. (A.Q.)

SO‘Z BIRIKMASIDA SO‘ZLARNING O‘ZARO BIRIKISH USULLARI

60-mashq. Berilgan so‘z birikmalari tarkibidagi ajratilgan vositalardan qaysi birlari so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga, qaysi birlari esa lug‘aviy ma‘noga qo‘shimcha ma‘nolar berishga xizmat qilishini aniqlang. Fikringizni isbotlang.

Choynakdan kattaroq, o‘quvchining sovg‘alari, qalam bilan chizmoq, kitobning muqovasi, g‘oliblik uchun kurashish.



Esga oling. Kelishik va egalik qo‘shimchalari hamda ko‘makchilar (ohang ham) so‘z birikmalari tarkibida so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi.

61-mashq. Berilgan so‘z birikmalarini quyidagi belgilar asosida uch guruhga ajrating: 1. Tobe so‘z hokim so‘z bilan faqat ohang va ma‘nosiga ko‘ra birikkan (egalik, kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar yo‘q). 2. Tobe so‘z hokim so‘z bilan kelishik (qaratqichdan boshqa) qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida birikkan. 3. Tobe so‘z qaratqich kelishigi, hokim so‘z esa egalik qo‘shimchalari yordamida birikkan.


Nazirjonning do‘stlari, erta turmoq, bog‘ga kirmoq, uydan chiqmoq, bolalardan biri, katta xona, bemor uchun dori, maktabimizning jamoasi, xonani bezamoq, shaharda yashamoq, oltin uzuk, do‘stlar bilan uchrashuv, o‘quvchiga e‘tibor.




Bilib oling. So‘z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so‘zning hech qanday qo‘shimchasiz, faqat ohang va ma‘nosiga ko‘ra bog‘lanishi **bitishuv** deyiladi: *tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy.*

Tobe so‘zning hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi **boshqaruv** deyiladi: *do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq.*

Tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻzning esa tobe soʻzga egalik qoʻshimchalari yordamida bogʻlanishi **moslashuv** deyiladi: *kitobning muqovasi, xonalarning kattarogʻi, bizning sinfirmiz, sizning ukangiz.*

62-mashq.  *1-topshiriq.* Berilgan soʻz juftlaridan **bitishuv, boshqaruv** va **moslashuv** usullari bilan soʻz birikmalari hosil qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

1) tilla, tish; 2) masala, yechmoq; 3) oʻrtoqlar, suhbatlashmoq; 4) halol, yashamoq; 5) shahrimiz, koʻchalar; 6) Salima, koʻrishish; 7) qizil, olma.

 *2-topshiriq.* Hosil qilingan soʻz birikmalariningizning hokim soʻzi feʼl yoki ot turkumiga mansubligiga koʻra: 1) **feʼlli soʻz birikmalari**; 2) **otli soʻz birikmalari** kabi guruhlariga ajrating.

63-mashq. Matnni oʻqing. Ajratilgan soʻz birikmalarida aniqlovchi va toʻldiruvchining belgisi yoki belgisiz shakllarda kelganligini aniqlang.

ONA YURT SOGʻINCHI

Vatan nima oʻzi? Vatan — **ona allasi** taralgan, **beshiging izlari** chizilgan zamin. Ajdodlaring koʻmilgan qabrison, **otanonangning izlari** qolgan koʻchalar, **sening lahjangda** soʻzlashadigan, qosh-u koʻzi xuddi sening kabilar yashaydigan qaddon yer — Vatandir!

Birinchi bor **bahorni tanigan**, ilk bor **varrak uchirgan**, birinchi marta **hayitlik olgan** joying, birinchi **oʻqituvchi**, birinchi **muhabbatingni tanitgan** makon — Vatandir!

Oʻz jonidan yaratgani uchun ham ona yaxshi-yu yomon **bolasini tishida tishlab oʻtadi**. Vatan ham oʻshanday bagʻri keng. **Qadamlaringni koʻksiga qoʻyib, suyab yashaydi seni.**

Osmoni koʻrpang, maysasi **dimogʻingni bosib yotadigan** muattar bolishingdir. Vatan mungʻaygan tandirli, pastakkina tomli **kulbandan boshlanadi**. Unga boʻlgan muhabbating ham shu **ostonada tugʻiladi**.

(T. Sodiqova)

 *Savol va topshiriqlar*

1. Soʻz birikmasida soʻzlarni bogʻlashga xizmat qiluvchi vositalar qaysilar? Misollar bilan izohlang.
2. Soʻz birikmasi tarkibidagi hokim va tobe soʻzlarning oʻzaro birikishi necha usul bilan yuz beradi? Ular qaysilar?

3. *Bitishuv usuli bilan soʻzlarning birikishiga misollar keltiring.*
4. *Boshqaruvda soʻzlar oʻzaro nimalar vositasida birikadi?*
5. *Soʻzlarning qanday birikuvini moslashuv deymiz?*

64-mashq. *Uyga vazifa.* Bitishuv, boshqaruv va moslashuv usullari bilan birikkan soʻz birikmalarining har biriga 5 tadan misol yozing.

19-dars

TENG BOGʻLANISH VA TOBE BOGʻLANISH

65-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan juftliklarni qiyoslab, ular orasidagi farqni izohlang.

- 1) Karimjonning akasi — Karimjon va akasi; 2) aytib chiqdi — aytdi, chiqdi; 3) mening otam — men bilan otam;
- 4) gazetadagi maqola — gazeta va maqola; 5) onasining qizi — onasi va qizi.

2-topshiriq. Berilgan juftliklardagi soʻzlarning tartibini oʻzgartirib koʻring. Qanday xulosaga kelganingizni ayting.

Bilib oling. Soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi ikki xil boʻladi:

1) teng bogʻlanish — ikki soʻzning teng huquqli, biri ikkinchisiga boʻysunmay bogʻlanishi: *opam va kitob, uy va tom* kabi.

2) tobe bogʻlanish — bir soʻz (tobe soʻz)ning boshqa bir soʻz (hokim soʻz)ga boʻysunishi orqali bogʻlanishi: *opamning kitobi, uyning tomi* kabi.

Soʻzlarning teng bogʻlanishi **soʻz qoʻshilmalarini** hosil qiladi. Soʻz qoʻshilmasida har bir soʻz maʼno mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: *opam va kitob, siz bilan biz* kabi.

Soʻzlarning tobelanish asosida bogʻlanishi **soʻz birikmalarini** hosil qiladi va soʻz birikmasi ikki yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi: *opamning kitobi, qizil gul, uyga kirmoq.*

66-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan misollarda soʻzlar qanday vositalar bilan oʻzaro birikkanligini aniqlang.

- 1) Abdusattor, Qahramon, Botir va men; 2) yer-u osmon;
- 3) oy-u quyosh; 4) Sarvinoz yoki Diyora; 5) baʼzan qor, baʼzan yomgʻir; 6) na kitob, na daftar; 7) koʻz hamda quloq.

2-topshiriq. Yuqorida berilgan soʻz qoʻshilmalarini qoʻllab, gaplar tuzing.

Bilib oling. Soʻz qoʻshilmalarida soʻzlar sanash ohangi (yozuvda vergul) yoki teng bogʻlovchilar vositasida birikadi.

67-mashq. Soʻz qoʻshilmalarini qoʻllab, 2–3 tadan gap tuzing. Soʻz qoʻshilmalari qanday vosita yordamida hosil qilinganligini izohlang.

Savol va topshiriqlar

1. Soʻzlarning oʻzaro teng bogʻlanishi deganda nimani tushunasiz?
2. Soʻzlarning oʻzaro tobe bogʻlanishini misollar asosida tavsiflang.
3. «Soʻz birikmasi» va «soʻz qoʻshilmasi»ning farqi nimada?

68-mashq. Uyga vazifa. Rasmni kuzating, undagi tasvir asosida 5–6 gapdan iborat matn tuzing. Gaplardagi soʻz birikmalarini va soʻz qoʻshilmalarini aniqlang, bogʻlovchi vositalarni izohlang.



20-dars

MUSTAHKAMLASH DARSI

Mustahkamlash uchun savollar

1. Til birliklari deb nimaga aytiladi?
2. Sintaksis nimani oʻrganadi?
3. Punktatsiya (tinish belgilari haqidagi qoidalar majmuasi) nega sintaksis bilan birgalikda oʻrganiladi?
4. Soʻz birikmalari qanday hosil qilinadi?
5. Soʻz birikmasi tarkibida hokim soʻz va tobe soʻzning joylashuvi qanday? Misollar keltiring.

6. Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlar oʻzaro qanday usullar bilan birikadi?
7. Soʻzlarning qanday birikuvini bitishuv deyiladi?
8. Boshqaruv munosabati qanday hosil qilinadi?
9. Soʻzlarning qanday birikuvini moslashuv deymiz?
10. Soʻzlarning oʻzaro teng bogʻlanishi tobe bogʻlanishdan nimasi bilan farqlanadi?

1-topshiriq. Berilgan gapdagi teng bogʻlangan birliklarni va tobe bogʻlangan birikmalarni aniqlang.

Maktab bogʻida bodom va oʻrik gulladi.

2-topshiriq. Avval bitishuv, keyin boshqaruv, soʻngra moslashuv usuli bilan birikkan soʻz birikmalarini koʻchiring.

Raqsga tushish, zavqlanib gapirish, tez yugurish, ibratli tashabbus, oʻquvchilarning barchasi, ayyor tulki, katta tanaffus, kutubxonaga kirish, qizgʻin suhbat, yangi koʻylak, haydalgan yer, daftar varagʻi, ukasi uchun olmoq, sheʻr yodlamoq, shahar koʻchalari, koʻklamda unmoq, gʻishtli imorat, oltin yaproq, qalam bilan yozmoq, soʻqmoq orqali yurmoq.

3-topshiriq. Hokim soʻz bilan tobe soʻzni bogʻlovchi grammatik vositalarning tagiga chizib, juftlab berilgan soʻz birikmalarining maʼnosidagi farqni ayting.

Bogʻga burilish — bogʻ tomonga burilish, sheʻrni oʻqish — sheʻr oʻqish, qovunni uzish — qovun uzish, olcha guli — olchani guli, tarvuz yemoq — tarvuzni yemoq, beda oʻrish — bedani oʻrish, stadionga borish — stadion sari borish, ustoz oʻgiti — ustozning oʻgiti.

4-topshiriq. «Kim koʻp soʻz birikmasi hosil qiladi?» oʻyinini tashkil qiling. Uch guruhga boʻlining. Qurʼa tashlab, guruhlar raqamini aniqlang.

1-guruh — moslashuv usuli bilan, *2-guruh* — bitishuv usuli bilan, *3-guruh* — boshqaruv usuli bilan soʻz birikmalari hosil qilib, sinf doskasiga yozadi. Eng koʻp misol topgan guruh gʻolib deb eʼlon qilinadi.

N a m u n a:

1-guruh:
quyosh nuri
mehnatning gashiti
...

2-guruh:
katta shahar
qizargan olma
...

3-guruh:
gulni hidlamoq
dala sari ketmoq
...



5-topshiriq. *Uyga vazifa.* Tobe soʻzi sifat va ravishlardan iborat boʻlgan birikmalar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a: yaxshi ishlamoq. Bolalar hasharda yaxshi ishladilar.

21 – 22-darslar

YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

23-dars

MATN MAVZUSI

69-mashq. Quyidagi insho mavzularini qiyoslang. Ularning qaysi biri voqeani kengroq tasvirlashi mumkin? Nima uchun? Ikkinchi mavzuga sarlavha toping va matn tuzing.

1. Yozgi taʼtilda.
2. Taʼtil kunlarining birida.
3. Yozgi taʼtilning soʻnggi kunlari.



70-mashq. *4-topshiriq.* Oʻquvchi tuzgan ertakka sarlavha tanlang. Bu matnni mazmun jihatdan uch qismga qanday boʻlish mumkin? Ertakda nimalar haqida kengroq, nimalar haqida qisqaroq toʻxtalish kerak edi?

Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, bir Ozodbek degan bola bor ekan. U maktabda hamma fanlardan aʼlo baholarga oʻqir ekan.

Bir kuni darsda rasm oʻqituvchisi shunday deb soʻz boshlabdi:

— Bolalar, bugun «Kimning qushi chiroyli?» mavzusida rasm tanlovi oʻtkazamiz. Har kim oʻzi sevgan qushning rasmini chizsin. Qani, kimning qushi chiroyli ekan? — debdi.


Kimdir bulbulning, kimdir laylakning, yana kimdir toʻtining rasmini oʻrinlatib chizibdi. Ozodbek esa humo qushining rasmini chiza boshlabdi. U avvallari ham bu qushning rasmini koʻp chizgan. U hamma qushlar ichida humoni yaxshi koʻrar ekan. Chunki humo qushi odamlarga baxt keltirar ekan.

Bu qush gerbimizdan joy olib, qanotlarini yozib, uchishga shay boʻlib turarkan.

Ozodbekning humo qushi tanlovda gʻolib boʻlibdi.

(Gʻayrat Usmonov, Asaka shahridagi 9-maktab oʻquvchisi)

 **2-topshiriq.** Ertakni tuzatib, to'ldirib ko'chiring.

71-mashq.  **2-topshiriq.** Matnga sarlavha tanlang. Unga «Doniyorlarning yangi uyi», «Baland uyda yashash zavqi», «Yana qo'shni bo'lib qolgani yaxshi bo'ldi» sarlavhalaridan qaysi biri ko'proq to'g'ri keladi? Birinchi va oxirgi xatboshi (abzas)lardagi gaplarni bog'layotgan vositalarni aniqlang.


Doniyor to'qqizinchi qavatning ayvonida o'tirib atrofni tomosha qilardi. Balandda yashash qiziq bo'lar ekan. U yerdan shaharning talay qismi, hatto olisdagi oppoq tog' cho'qqilari ham ko'rinardi.


Doniyorlarning avvalgi uyi Eski shaharning qoq o'rtasida edi, desa bo'ladi. Torgina jin ko'chada turishardi. Shu paytgacha xuddi quduqqa tushib yashayotganligini sezmas ekan. Mana endi «osmon-u falak»ka chiqib oldi. Balkonda o'tirib, olis-olislarni tomosha qilish mumkin. Hov, ana savdo markazining muhtasham binosi, orqasida odamlar yashaydigan baland uylar; yonida JAR stadioni. Eski shahar bozorining qubbasi, «Ko'-kaldosh» madrasasi...

Ha, yangi uy Doniyorga yoqdi. Yana bir yaxshi tomoni — mahallalaridan besh-olti xonadon shu uyga ko'chib kelgan. Ming qilsa ham eski qadrdonlar... Begonalarning orasiga tushib qolsang, til topishib olguncha ancha vaqt o'tadi. Ayniqsa, Ergashlarning ham shu ko'p qavatli uyga ko'chishgani zo'r bo'ldi.

Ergash — Doniyorning sinfdoshi, yoshlikdan birga o'sgan sodiq do'sti. Juda alomat bola, u bilan yurgan odam sira zerikmaydi...

(F.M.)

 **2-topshiriq.** Matndan boshqaruv munosabatidagi so'z birikmalarini ajratib yozing va hokim so'zlarning turkumini ayting.

 **72-mashq.** *Uyga vazifa.* Quyidagi matnga sarlavha toping. Uni davom ettira olasizmi? Gaplarni mazmunan bog'layotgan vositalarni ko'rsating.

Qish. Sovuq shamol esadi. Qor yog'moqda. Zahro hovliga chiqdi. U bahorda olma ko'chati ekkan edi. Hozir ko'chat oppoq qorga burkangan. Ko'chat ostida chiroyli bir sa'va o'ziga don axtarar edi. Zahro qushni tomosha qilib turdi. Sa'va «chvi-chvi»lab, olmaning u shoxidan bu shoxiga sakrab o'tdi. Zahro «Qushning qorni ochganga o'xshaydi, don topa olmaganidan yig'layapti» deb o'yladi-da, yugurib uyiga kirib ketdi...

SO‘Z BIRIKMASI VA SO‘Z



Bilib oling. So‘z birikmalari ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so‘z — leksik hodisa, so‘z birikmasi — grammatik hodisadir. So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.

Masalan, **kitob** so‘zi bir narsaning umumlashgan oti bo‘lib, yolg‘iz tushunchani ifodalaydi, **o‘rtog‘imning kitobi** birikmasida esa faqat «kitob» ma‘nosining o‘zi emas, balki «o‘rtog‘imga tegishli kitob» tushunchasi ifodalanadi.

73-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan birliklarni mashqdan so‘ng berilgan (ma‘nosiga ko‘ra ularga teng keladigan) so‘zlar bilan almashtiring. Bunday birikma va so‘z orasidagi ma‘noviy munosabatlar haqida xulosa chiqaring.

1. **Qanotli do‘stlar** haqida film yaratildi. 2. Yurtimiz **zangori olov, qora oltin** zaxiralariga juda ham boy. 3. Ko‘rgazmada atoqli **mo‘yqalam ustalari** yaratgan rasmlarni tomosha qildik. 4. **Otamning akalari** — haydovchi. 5. **Echkining bolasi** onasining atrofida sakrab o‘ynardi. 6. Maktabimizda taniqli **so‘z san‘atkori** bilan uchrashuv bo‘ldi. 7. Mamlakatimizda juda katta miqdorda **kumush tola** yetishtiriladi. 8. Bu yil **bahor elchilari** erta uchib keldilar. 9. Vatanimizda ishlab chiqarilgan **havo kemalari** dunyo bo‘ylab parvoz qilmoqda. 10. Dehqonlarimiz **oq oltin** yetishtirishning barcha sirlarini bilishadi.

yo‘zuvchi, rassomlar, gaz, neft, qushlar, pilla, samolyotlar, paxta, amakim, uloqcha, qaldirg‘ochlar.




74-mashq. Quyidagi so‘zlarga so‘z birikmalari bilan ifodalangan ma‘nodoshlar toping. Ular asosida gaplar tuzing.

Televizor, maktab, qo‘zi, olqor, ayg‘ir, kitob.

N a m u n a:

Olqor — yovvoyi tog‘ echkisi. Biz kecha tog‘da olqorlarni ko‘rdik. Kecha biz tog‘da yovvoyi tog‘ echkilarini ko‘rdik.


 **Bilib oling.** Soʻz birikmalarida maʼno, tushuncha ancha aniq va ravshan boʻladi.

Qiyoslang: *nor* — *erkak tuya*, *gʻoʻnan* — *uch yashar ot*, *ezma* — *sergap odam*.

Shuning uchun lugʻatlarda soʻzning maʼnosini ochib berish uchun soʻz birikmalaridan foydalaniladi.

Savol va topshiriqlar

1. Soʻz birikmasi hamda soʻzning oʻxshash va farqli xususiyatlari haqida gapiring.
2. Nega soʻzga leksik hodisa sifatida, soʻz birikmasiga grammatik hodisa sifatida qaraymiz? Fikringizni misollar asosida tushuntiring.
3. Baʼzi soʻzlar (masalan, **rassom** soʻzi) ifodalaydigan maʼnoni nega soʻz birikmasi holatidagi birliklar (masalan, **moʻyqalam ustasi**) asosida ifodalaymiz?


 **75-mashq.** Uygʻa vazifa. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»dan foydalanib, soʻz birikmasi va soʻzning maʼnodoshligiga misollar topib yozing.

25-dars

SOʻZ BIRIKMASI VA QOʻSHMA SOʻZ

76-mashq. Berilgan gap juftliklaridagi ajratib koʻrsatilgan til birliklarini qiyoslab, ularning maʼnolaridagi va yozilishidagi farqlarini aniqlang.

1. Dori **bosh ogʻrigʻini** darrov qoldirdi. «**Boshogʻriqni** koʻpaytirmang», — dedi rahbarimiz. 2. Qayerdandir **oq qushlar** uchib keldi. Bola jarohatlangan **oqqushni** davoladi. 3. Qiziqchi **qizil ishton** kiygan edi. **Qizilishton** daraxt poʻstlogʻi orasidagi qurtlarni terib yeydi. 4. **Qizilurugʻ** kechroq unadi, lekin koʻp hosil beradi. **Qizilurugʻ**dan ungan koʻchatlar sogʻlom rivojlandi. 5. Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga **qoʻl qoʻydi**. Rahimjon maʼyus holda soʻri suyanchigʻiga **qoʻl qoʻydi**.

 **Bilib oling.** Soʻz birikmasida ham, qoʻshma soʻzda ham qismlar bir xildagi soʻz turkumlariga oid boʻlishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega boʻlishi mumkin. Masalan, *oq qush* — *oqqush* (har ikkisida ham sifat+ot), *suv ilon* — *suviron* (har ikkisida ham ot+ot). Bu ularning shakliy oʻxshashligidir. Lekin soʻz birikmasidagi qismlar maʼno mustaqilligini saqlagan boʻladi.

Qo'shma so'z tarkibidagi qismlarning ma'nosi esa saqlanmagan bo'lib, qo'shma so'zning umumiy ma'nosi orqali anglashiladi.

So'z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo'shma so'z qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yo'qolgan bo'ladi.

So'z birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida so'roq berish mumkin: *kitobni* (nimani?) *o'qimoq*, *uydan* (qayerdan?) *chiqmoq* kabi. Qo'shma so'zlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin: *kungaboqar* (nima?), *kamquvvat* (qanday?).

So'z birikmasining qismlari o'z mustaqil so'z urg'usini saqlagan bo'ladi (*uyning eshigi*, *xatni o'qidim*, *tez yugurdi*), qo'shma so'z esa umumiy bir urg'uga ega bo'ladi (*oqko'ngil*, *bilakuzuk*, *Yangiqo'rg'on*).

Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi tarixan so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan.



77-mashq. So'z birikmalaridan hosil qilingan qo'shma so'zlarga misollar toping.

78-mashq. Gaplardagi so'z birikmalari va qo'shma so'zlami guruhlab yozing. Ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tushuntiring.

1. Ertasiga yana allaqayoqda bo'g'iqqina momaqaldiroq guldurab, beozorgina yomg'ir sevalab o'tdi, bo'liq tuproq hidi anqidi. (*As.M.*) 2. Azim va chuqur daryolar shovqinsiz oqadi, sayoz jilg'alar esa sershovqin oqadi, oqil va g'ayratli kishilar kam gapirib, ko'p ish qiladilar. (*R. Usmonov*) 3. Norbobo belbog'ini qaytadan bog'lab, ikki qo'li bilan belini siqib qo'ydi. (*Oydin*) 4. Anhor bo'yidagi hovlilarning ochiq eshiklaridan ozoda supalar, sadarayhon, namozshomgullar ko'rindi. (*S.A.*)



Savol va topshiriqlar

1. So'z birikmasi va qo'shma so'zning o'zaro o'xshash jihatlarini misollar asosida tushuntiring.
2. So'z birikmasi va qo'shma so'zning farqli xususiyatlarini sharhlab bering.
3. So'z birikmasi va qo'shma so'z qismlarida urg'uning o'rni qanday?



79-mashq. Uyga vazifa. «Adabiyot» darsligingizdagi biror badiiy parchadan qo'shma so'zlar qatnashgan 3 ta gap topib ko'chiring. Ulardagi so'z birikmalarini guruhlab yozing.

26 – 27-darslar


YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

28-dars

SO‘Z BIRIKMASI VA TURG‘UN BOG‘LANMA

80-mashq. *1-topshiriq.* Juft holda berilgan gaplar tarkibida ajratib ko‘rsatilgan til birliklarining ma‘noviy jihatini qiyoslab, ularni so‘z birikmasi yoki turg‘un bog‘lanma (ibora)larga ajrating.

1. Yigit oqingga qarshi suzib, ariqning **boshiga yetdi**. — Qo‘rsligi, bema‘ni gaplari, axir uning **boshiga yetdi**. 2. Shifokor dorini bolaning **qulog‘iga quydi**. — Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o‘g‘lining **qulog‘iga quydi**. 3. Semiz qo‘y go‘shiti **o‘z yog‘ida qovurildi**. — Yakka qolgan Hasanboy vijdon azobida **o‘z yog‘ida qovurildi**. 4. «Qizingizning ko‘zlari **yaxshi ko‘radi**», — dedi hakim. — «Shahzoda falon mahallada yashovchi kosibning qizini **yaxshi ko‘radi**», — dedi tabib. (*M.O.*)

 *2-topshiriq.* Turg‘un bog‘lanma (ibora) va so‘z birikmasi orasidagi o‘xshashlik va farqni tushuntiring.



Bilib oling. So‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi: tushunchani anglatadi. Turg‘un bog‘lanma (ibora)larda esa so‘zlar ma‘noviy butunlik uchun birlashgan — yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma‘noni anglatadi.

Turg‘un bog‘lanma (ibora)ga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma‘noni ifodalaydi. Masalan, *ko‘zini yog‘ bosgan* iborasi — «mag‘rurlangan», *yog‘ tushsa yalaguday* iborasi — «toza», *to‘nini teskari kiyib olmoq* iborasi — «qaysarlik qilmoq» ma‘nosini beradi, ammo bu ma‘nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

So‘z birikmalaridagi so‘zlarni, erkin bog‘langani uchun, almashtirish mumkin, turg‘un bog‘lanma (ibora)lardagi so‘zlarni almashtirib bo‘lmaydi, ular bir ma‘noni ifodalash qonuniyati asosida turg‘unlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi: *bo‘yniga qo‘ymoq* (iqror

qilmoq), *ko'nglidan o'tkazmoq* (o'yilmoq), *o'pkasi yo'q* (hovliqma) kabi.

So'z birikmasi va turg'un bog'lanma gapda o'xshash shaklda uchrashi mumkin, lekin biri tushuncha, biri leksik ma'noni ifodalaydi.

Qiyoslaymiz: *Bu yuk hozircha omborning ichiga sig'maydi.* – *Shu kunlarda Feruzaning sevinchi ichiga sig'maydi.*

81-mashq. Berilgan birliklarning har birini so'z birikmasi va ibora sifatida qo'llab, ikkitadan gap tuzing.

1) bo'yniga ilmoq; 2) ko'zi ochilmoq; 3) to'nini teskari kiymoq; 4) ustidan chiqmoq; 5) tosh otmoq.

82-mashq. Gaplardagi so'z birikmalarini aniqlang. (Bunda turg'un bog'lanmalarning so'z birikmasida bir so'z (bo'lak) sifatida kelayotganiga ahamiyat bering).

1. Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi. 2. Chol asta cho'kkaladi-da, sharti ketib, parti qolgan itning boshini siladi. 3. Shu payt ko'cha darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo'ltig'idan tushib Alijon kirib keldi. 4. Kim u? Joyimda qoqqan qoziqdek qotib qoldim. 5. Mehmon joyiga o'tirdi-yu, ammo ko'ngli joyiga tushmadi. 6. Og'ziga tolqon solganday jim o'tirdi. 7. Mana shu tirranchalarni deb boya rosa po'stagimni qoqishgandi.

(M. Niyozov)

Savol va topshiriqlar

1. So'z birikmasi bilan turg'un bog'lanmaning asosiy farqi nimada? Misollar bilan tushuntiring.
2. Ularning qaysi biri tushuncha, qaysi biri leksik ma'no anglatadi?
3. So'z birikmasi qismlarining va turg'un bog'lanmalarning gap bo'lagi vazifasidagi xususiyatlari haqida gapiring.
4. So'z birikmasi va turg'un bog'lanmaning gapda shaklan teng qo'llanishiga misollar ayting.

83-mashq. Uyga vazifa. «O'zbekistonda yil fasllari» mavzusida kichik matn tuzing. Tuzgan matningizdagi 3 ta gapni so'z birikmalariga ajrating, turg'un bog'lanma (ibora)lar bo'lsa, ularning ma'nosini izohlang.

SO‘Z BIRIKMALARI ZANJIRI

84-mashq. Berilgan so‘z birikmalari juftliklarini birlashtiring.

1. Yangi asar, qiziqarli asar. 2. O‘zbek xalqi, qozoq xalqi.
3. Chiroyli bino, baland bino. 4. O‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti.
5. Xalqimizning urf-odatlari, xalqimizning an‘analari. 6. Mustaqillik bayrami, Navro‘z bayrami.

N a m u n a:

Yangi va qiziqarli asar; xalqimizning urf-odatlari va an‘analari.

85-mashq. Quyida berilgan gaplarda 6 tadan so‘z birikmasi bor, ularning tobe va hokim so‘zlari grammatik jihatdan shakllangan. Ularni diqqat bilan tahlil qilib, so‘z birikmalari zanjiri nima ekanligi va u qanday hosil bo‘lishini izohlang.


1. O‘z Vatani sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.


2. Kechqurunlari buvimdan oy yorug‘ida turli rivoyatlar tinglardim.



Bilib oling. Ikki va undan ortiq so‘z birikmasi bir so‘z birikmasiga birlashsa, **so‘z birikmalari zanjiri** hosil bo‘ladi: o‘zbek tili + o‘zbek adabiyoti = o‘zbek tili va adabiyoti; o‘zbek xalqi + qozoq xalqi + turkman xalqi = o‘zbek, qozoq va turkman xalqlari. So‘z birikmasidagi tobe va hokim so‘zlar orasida bir necha boshqa so‘zlar va so‘z birikmalari kelishi mumkin. Bunda bir so‘z birikmasi tarkibidagi hokim so‘z ikkinchi birikma tarkibida tobe mavqeida bo‘la oladi.

Buni quyidagi chizmalarda ko‘ramiz:





86-mashq. Berilgan gaplarni soʻz birikmalariga ajrating. Soʻz birikmalari zanjirini aniqlang. Bir gapda nechtagacha soʻz birikmalari zanjiri boʻla olishi haqida xulosa chiqaring.

1. Kishi moliga suq podsholarni koʻp koʻrgan Binoiy oʻn olti yoshli Boburning bunchalik halolligidan juda qattiq taʼsirlandi. (P.Q) 2. Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini toʻldiradi. (U.) 3. Bu masalalarni tezda yechish kerak. (As.M.)



Savol va topshiriqlar

1. «Soʻz birikmalari zanjiri» deganda nimani tushunasiz? Fikringizni misollar bilan isbotlang.
2. Soʻz birikmalari zanjiri gapning kesimi atrofida birlashgan holatiga misol keltiring.
3. Soʻz birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatiga misollar keltiring.



87-mashq. Uygʻa vazifa. Gaplardagi soʻz birikmalari zanjirini chizmalar asosida koʻrsating.

1. Badanni junjituvchi sovuq shamol izgʻib qoldi. (H.N.)
2. Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar. (H.N.)

30-dars

MATNDAGI ASOSIY FIKR

88-mashq. I-topshiriq. Matnda nima haqida gap boryapti (uning mavzusi nima)? Yozuvchi Said Ahmadning fikricha, keksalar qanday fazilatlariga ega boʻladilar? Muallifning asosiy fikri ifodalangan jumlaning toping.

Bobo eshigi oldidagi supada soatlab oʻtirardi. Oʻtgan-ketganga choy tutib, supaga taklif qilardi.


Bu bahor u supa yonboshiga kichkinagina gulzor qildi. Chiroyli joʻyakchalar tortib anvoyi gullar ekdi. Mana, bir tup atirgul

g'unchaga ham kirdi. Ayniqsa, bitta g'uncha ana ochilaman, mana ochilaman deb turibdi. Cholning ikki ko'zi shu g'unchada.

Tikilgan qozon qaynamas degandek, uning ochilishi juda qiyin bo'ldi. Bobo unga tikilaverib ko'zlari toldi.

Bugun ertalab odati bo'yicha sholchasini sudrab, supaga chiqsa, biram chiroyli bo'lib ochilibdiki... Chol tishsiz og'zini ochganicha, unga tikilib qoldi. Sholchani supaga tashlab, gul tepasiga kelib engashdi. Kafti bilan uni beozor ko'tarib, huzur qilib hidladi.

Boboning tabiati ravshan bo'lib ketdi.

 **2-topshiriq.** Matndagi bitishuv munosabatidagi so'z birikmalarini aniqlang va ko'chirib yozing.

89-mashq. Devoriy gazetaga yozilgan maqolani va muharrirning u haqdagi e'tirozli mulohazalarini o'qing. Maqolada sarlavha talab etgan asosiy fikr ifodalanganmi? Maqolani tahrir qiling, bunda sarlavhani shu holida qoldirishingiz yoki o'zgartirishingiz mumkin.

Maqola matni	Muharrir e'tirozlari
<p>Qiziqarli uchrashuv</p> <p>Yaqinda biz maktabimizni otaliqqa olgan kishilarni va sinfdoshimiz Farhodning bobosi — mehnat faxriysini uchrashuvga taklif etdik.</p> <p>Biz ularga o'zimiz yasagan narsalar ko'rgazmasini namoyish etdik.</p> <p>Farhodning bobosi bizni maqtadi va shunday dedi: «Sizlarning orangizda dangasalar bo'lmasligi kerak. Har qanday narsani o'z qo'lingiz bilan yasay olishingiz lozim».</p> <p>She'rlar o'qiganimizda va qo'shiq kuylaganimizda hamma shovqin soldi. Vaqt juda sekin o'tib, zerikarli holat yuz berdi. Uyga tezroq tarqalishni istadik. Nihoyat, ruxsat etildi va biz yengil tortib uyga tarqaldik.</p>	<p>Uchrashuv ayni qachon uyushtirildi?</p> <p>Ko'rgazmada nimalar namoyish etildi? Ular qanday ko'rsatildi?</p> <p>Mehmonlar diqqatini nimalar tortdi?</p> <p>_____</p> <p>Demak, bu uchrashuvda hamma narsa ham qiziqarli bo'lavermagan. Bu haqda yoki boshqacha yozish, yoki butunlay yozmaslik kerak edi. Axir, maqola «Qiziqarli uchrashuv» deb atalgan-ku!..</p>

90-mashq. *1-topshiriq.* She'rni o'qing. Unda bolalaming qanday kamchiligi kulgi ostiga olingan? Bolalar nega uyaldi? Mulohazalaringizni bayon qiluvchi matn tuzing.

Hasharga borganda

Chorlab bizni **hasharga**
Ketgan edi xolamiz,
Maslahat qildik **shunda**:
— Boramizmi?
— Boramiz!

Ketmon oldim **qo'lga** men,
Nodir esa belkurak.
Endi **bog'da** kechgacha
Rosa ishlasak kerak.

Yo'q,
Yanglishgan ekanman.
Bog'ga yetib borgan kez,

Dovuchcha teramiz deb,
O'rikka tirmashdik tez.

Keyin ishkom oralab,
Quvlashmachoq o'ynadik.
Esdan chiqdi yumush ham,
Irg'ishladik — quvnadik.

— Oshga! —
Deya bir mahal
Ovoz berdi **xolamiz**.
Uyat! Ovqat **yeyishga**
Endi qanday boramiz?
(S. Inoyatov)

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni unga bog'lanib kelgan so'zlar bilan birga (so'z birikmasi holida) ko'chiring.

91-mashq. *Uyga vazifa.* Maktab devoriy gazetasiga ona tili va adabiyot to'garagining mashg'ulotlari haqida xabar-maqola yozing. Unda asosiy fikrni beruvchi jumlaning ajratib ko'rsating.

31-dars

SO'Z BIRIKMASI VA GAP

92-mashq. Berilgan so'z birikmalari va gaplarni qiyoslang, so'z birikmasi va gap orasidagi farqlarni aniqlang. Kesim ulardan qay biriga xos?

1. Qiziqarli mashg'ulot — Mashg'ulot qiziqarlidir. 2. Oydin kecha — Kecha oydir. 3. Maqolani o'qimoq — Maqolani o'qidim. 4. Qattiq sovuq — Sovuq qattiq. 5. O'qishli asar — Asar o'qishli.

93-mashq. Berilgan so'z juftliklaridan so'z birikmalari hosil qiling, ularni qo'llab, gaplar tuzing.

1) berilgan, topshiriq; 2) vazifa, bajarmoq; 3) samarali, ishlamoq; 4) maktab, kelmoq.

N a m u n a:

Maktabga kelmoq. — Maktabga kelishdan maqsad o‘qishdir. — Maktabga keldik...



Bilib oling. So‘z birikmasi ham, gap ham so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So‘z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa ma‘lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmini ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllangan bo‘ladi.

94- mashq. Berilgan so‘z birikmalarini va gap juftliklaridagi gap kesimini aniqlang va uning kesimni ifodalovchi qanday vositalar bilan shakllanib kelganligini tushuntiring.

1. Chiroyli gul. Gul chiroyli (chiroylidir, chiroyli edi).
2. Muhandis akam. Akam muhandisdir (muhandis edi, muhandis bo‘ladi).
3. Shirin qovun. Bu qovun shirin (shirindir, shirin edi).
4. G‘azalni yodlash (yodlamoq). G‘azalni yodlaymiz (yodlang, yodladim).
5. Ko‘chat o‘tqazish. Ko‘chat o‘tqazing (o‘tqazdik, o‘tqazamiz).

95-mashq. Kesimlik qo‘shimchalari bilan kelgan quyidagi so‘zlarga so‘roq berib, ularni kengaytiring.

Yozdik, oling, qurdilar, g‘oliblardansiz.

N a m u n a: yozdik (kimlar? nimani? nimaga? nima bilan? nimada? nimadan?)

Biz yozdik. Biz gapni ko‘chirib yozdik. Biz sinf doskasiga yozdik. Biz bo‘rda (bo‘r bilan) yozdik. Biz kitobdan yozdik. Biz gapni sinf doskasiga bo‘rda (bo‘r bilan) ko‘chirib yozdik.



Savol va topshiriqlar

1. So‘z birikmasi va gap orasidagi asosiy farq nimada?
2. «Kesim — gapning markazi» deyilishining sababini aytib bera olasizmi?
3. So‘z birikmasining tushuncha, gapning fikr ifodalashiga misollar keltiring.



96-mashq. Uyg‘a vazifa. **Kechasi tiniq osmonda yulduzlar charaqlaydi** gapidagi so‘z birikmalarini aniqlang va birikish usuli bo‘yicha sharhlang.

SO‘Z BIRIKMALARINI TAHLIL QILISH

Tahlil tartibi


1. Berilgan gapdagi so‘z birikmalarini aniqlab yozib chiqish.
2. Har bir so‘z birikmasini alohida-alohida tahlil qilish:
 - a) hokim so‘z bilan tobe so‘zning birikish turini ko‘rsatish;
 - b) hokim so‘z va tobe so‘zni aniqlash;
 - d) hokim so‘z va tobe so‘zni bog‘lovchi grammatik vositani ko‘rsatish;
 - e) hokim so‘z va tobe so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini izohlash.
 - f) so‘z birikmasining hokim so‘ziga ko‘ra turini izohlash (otli so‘z birikmasi, fe‘lli so‘z birikmasi).

Tahlil namunasi

Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. (As.M.)

Gapda 4 ta so‘z birikmasi mavjud: *yaxshi tasvirlab berdi*, *miqyosini tasvirlab berdi*, *ishlarning miqyosi*, *sahrodagi ishlar*.

1) *yaxshi tasvirlab berdi* — bitishuv; hokim so‘z — *tasvirlab berdi*, tobe so‘z — *yaxshi*; ohang va ma‘no vositasida birikkan; sifat (ravish vazifasida) + fe‘l; 2) *miqyosini tasvirlab berdi* — boshqaruv; hokim so‘z — *tasvirlab berdi*, tobe so‘z — *miqyosini*; tushum kelishigi qo‘shimchasi (-ni) vositasida birikkan; ot + fe‘l; fe‘lli so‘z birikmasi; 3) *ishlarning miqyosi* — moslashuv; hokim so‘z — *miqyos*, tobe so‘z — *ishlarning*; qaratqich kelishigi (-ning) va egalik (-i) qo‘shimchalari vositasida birikkan; ot + ot; otli so‘z birikmasi; 4) *sahrodagi ishlar* — bitishuv; hokim so‘z — *ishlar*, tobe so‘z — *sahrodagi*; ohang va ma‘no vositasida birikkan; sifat + ot; otli so‘z birikmasi.

 **Topshiriq.** Quyidagi gaplarni so‘z birikmalari bo‘yicha sintaktik tahlil qiling.

1. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darparadani xomushgina silkitardi. (O‘.H.) 2. Ahmadjon aka o‘z hayotida esda qoladigan hech nima ko‘rmadi. (Y. Sh.) 3. Quyosh yo‘lini hech qanday kuch to‘sa olmaganidek, bizning haq yo‘limizni ham hech qanday kuch to‘solmaydi. (Y. Sh.)


GAP

33- va 34-daralar


YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

35-dars


GAP HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

 **1-topshiriq.** Toshkent, kel, aka, kecha soʻzlarini bir-biriga bogʻlab muayyan bir fikmi ifodalang. Nima hosil boʻladi? Fikr ifodalash uchun oʻsha soʻzlarni qanday grammatik shakllarga kiritdingiz va ularning oʻrnini qay tarzda almashtirdingiz?

Tuzilgan gapdan **kel**(moq) feʼlini olib tashlasangiz ham fikr ifodalanadimi?

 **2-topshiriq.** Qanday gaplar darak, soʻroq va buyruq gaplar deyilishini eslang. Bulardan undov gaplar qaysi xususiyati bilan ajralib turadi? Berilgan gaplarni oʻqing va mana shunday turlarga ajrating. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qoʻyilgan?

1. Umrimga bormagan joyimga qanaqa qilib boraman? Mening borishimdan nima foyda?! (*A.Q.*) 2. Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi, degin! (*A.Q.*) 3. Sergey otdan sakrab tushib, cholgʻa qoʻl uzatdi. (*H.G.*) 4. Kap-katta boʻlib shunga ham vaj topolmaysizmi? (*A.Q.*) 5. Darigʻ tutmay nigorim boʻlsa imkon bir kelib ketsin. (*H.*)

 **Bilib oling.** Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, soʻroqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap soʻz birikmasidan kesim va ega, yoki faqat kesim boʻlaklariga aloqador grammatik asosga egaligi bilan farq qiladi, **soʻz birikmasi** tushuncha, **gap** fikr ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundarijasi ifodalanadi. Bu fikriy mundarija feʼl kesimning mayl va zamon maʼnolari bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, **Bolalar ishlayaptilar. Ozoda rasm chizmoqda** gaplari ish-harakatning hozirgi zamonda boʻlayotganidan darak bersa, **Bolalar ishladi. Ozoda rasm chizdi** gaplari esa ish-harakatning oʻtgan zamonda boʻlganidan darak beradi.

97-mashq. Matni o'qib, uni gaplarga ajrating, so'ng bosh harflarni tiklab, zarur tinish belgilarini qo'yib ko'chirib yozing.

Nima bo'ldi qizim nega yig'layapsan Gulchehra boshini ko'tardi ro'parasida nuroniy bir mo'ysafid unga dardli tikilib turardi birov xafa qildimi yo'q dedi Gulchehra va uyalganidan qizarib ketdi dadil bo'ling dedi mo'ysafid yig'i hech mahal odamga yordam bergan emas qancha sovuqqonlik qilsangiz shuncha yutasiz asab yig'i ojizlarning udumi tramvay keldi Gulchehra mo'ysafidga nima deb javob qilishini bilmay o'zini tramvayga otdi.

98-mashq. Berilgan so'zlardan turli gaplar tuzishga harakat qiling. Bunda kelishik, egalik va shaxs-son qo'shimchalaridan tashqari, ko'makchilardan ham foydalaning. So'zlarni qanday grammatik vositalar bilan o'zgartirganingizni ayting.

1. Tabrik, bugun, biz, bayram, o'qituvchi.
2. Ular, biz, nur, bahramand bo'l(moq), yasha(moq).
3. Manfaatdor, biz, butun, tinchlik, barqaror, dunyo, qaror topmoq.



Bilib oling. Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan, ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi.

Biz morfologiya bo'limida o'rgangan kelishik, egalik, son, zamon va shaxs-son qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchi va bog'lovchilar sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim hollarda gapdagi so'zlar tartib va ohang yordamida ham o'zaro bog'lanadi. Masalan: *Oq paxtalar ochildi, Teraylik quv nab-quv nab.* (*Qo'shiq*) Bu gapda *oq* va *paxtalar* so'zlari bir-biri bilan so'z tartibi orqali bog'langan.

Har bir gap biror maqsad-mazmunni ifodalaydi. Og'zaki nutqda ana shu mazmunga mos keladigan tugal ohang bo'ladi. Ohang ayni bir vaqtda gaplarni bir-biridan ajratib ham turadi.

Ohang gap uchun eng muhim belgidir. Ayrim so'z (*Kuz. Tong.*) yoki so'z birikmalarini tugallik ohangi bilan aytsak, gap yuzaga keladi va biror fikr — maqsad anglashiladi: *Ko'm-ko'k dala. G'arbiy chegaralardan biri.*

Ayni bir sodda gapning ohangini o'zgartirish orqali ba'zan uch xil mazmun ifodalash mumkin: *Buvijonim keldilar. — Buvijonim keldilar! — Buvijonim keldilar?*

Yozma nutqda ana shu ohangga qarab har bir gap oxiriga yo nuqta, yo so‘roq, yoki undov belgisi qo‘yiladi.

99-mashq. Gapلامي tinish belgilariga mos ohang bilan o‘qing. Mazmundagi farqini ayting.

1. Dam olish kuni tog‘ sayriga boramiz. Dam olish kuni tog‘ sayriga boramiz? Dam olish kuni tog‘ sayriga boramiz!
2. Qor yog‘yapti. Qor yog‘yapti? Qor yog‘yapti!

100-mashq. Siz ahmoq odam emassiz, kechirasiz va Siz ahmoq, odam emassiz, kechirasiz gaplarini to‘g‘ri ohang bilan o‘qib, fikrdagi farqni sharhlang.



Savol va topshiriqlar

1. Gap nima? Gapning so‘z birikmasidan farqi nimada?
2. Gapning qurilishi va grammatik ma‘nolari haqida nimalarni bilasiz?
3. Gapning grammatik asosi deganda nimani tushunasiz?
4. So‘zlovchining maqsadiga ko‘ra gaplar necha xil?
5. Qanday gaplar undov gaplar deyiladi?
6. Og‘zaki nutqda ohang, yozma nutqda tinish belgilarining ahamiyati haqida so‘zlang.



101-mashq. Uyg‘a vazifa. Berilgan gaplardagi so‘z birikmalarini aniqlang va ularning o‘zaro bog‘lanishi xususiyatini sharhlang.

1. Shu paytda mehmonxonaning eshigini birov qattiq taqilatdi. (S.A.) 2. Tongda hammayoqdan bulbullarning xush ovozi eshitildi. (H.N.)

36-dars


GAPNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARI



1-topshiriq. Berilgan gaplarni darak, so‘roq, buyruq va istak mazmunlarining ifodalashiga ko‘ra guruhlab yozing. Darak, so‘roq, buyruq yoki istak mazmunini gaplarda qanday vositalar yuzaga keltirayotganini ayting.


1. Mana senga qog‘oz bilan qalam, shunga sen bitta e‘lon yozasan. (M.Ism.) 2. Tog‘ qushlarining sayrashi qo‘ylarning ma‘rangan ovozlari jo‘r bo‘lmoqda. (I.R.) 3. Shohim, Alisherga

ozor bermang, u buyuk odam! (U.) 4. Xo'sh, sen o'tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak? (A.Q.) 5. Akalari ham, Oyqizning o'zi ham shu uyda o'sgan. (Sh.R.) 6. Qani hamma xotin ham sizday bo'lsa... (A.Q.) 7. Shu choqqacha qaysi burchakda mog'or bosib yotgan edingiz? (A.Q.) 8. Qani til bo'lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa! (O.)

 **Bilib oling.** Har bir gapda ma'lum bir maqsad, niyat yoki his-hayajon ifodalanadi. So'zlovchi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar qiladi, yoki o'ziga noma'lum bo'lgan narsa va voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot olishni istaydi, tinglovchiga biror ishni bajarish bo'yicha buyruq-xitobini bildiradi. Gaplar ana shu maqsadlarga ko'ra turlicha quriladi: o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, alohida ohang bilan talaffuz etiladi.

Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar: 1) **darak gaplar**, 2) **so'roq gaplar**, 3) **buyruq gaplar**, 4) **istak gaplarga** bo'linadi.

Darak, so'roq, buyruq va istak gaplar egali va egasiz, yig'iq va yoyiq, sodda va qo'shma gap shaklida bo'lishi mumkin.

 **2-topshiriq.** Namoyish qilindi, tomosha qildingizmi, o'qib chiqing, bilsa edi fe'l shakllarini kesim vazifasida qo'llab, gaplar tuzing va ular gapning ifoda maqsadiga ko'ra qaysi turiga kirishini ayting.

102-mashq. Rasm asosida dialogli matn yarating, so'ng undagi gaplarni darak, so'roq, buyruq va istak gaplarga ajrating.



? Savol va topshiriqlar

1. So'zlovchining nutqidagi gaplar mazmun va maqsadiga ko'ra necha xil bo'ladi?
2. Darak mazmunidagi gaplar qanday xususiyatlarga ega? Fikringizni misollar bilan isbotlang.
3. Gapda so'roq mazmunini nimalar yuzaga keltiradi?
4. Buyruq va istak gaplarning bir-biridan farqi nimada? Misollar keltiring.

103-mashq. Uyga vazifa. **Kela qolsa edi, yugurasizmi, chopib ketdi, ko'rib keling** so'z shakllarini kesim vazifasida qo'llab gaplar tuzing. Ularning mazmunidagi farqlarini ayting.

37-dars

GAPNING HIS-HAYAJONNING ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI

1-topshiriq. Chap va o'ng tomondagi gaplarni, gap oxiridagi tinish belgilariga e'tibor bergan holda, to'g'ri ohang bilan o'qing va mazmunini qiyoslang. Qaysi qatordagi gaplarda his-hayajon mavjud?

2-topshiriq. Chap tomondagi gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini ayting.

Ertaga maktabimizga
shoirlar keladi.

Qachon chiqasiz
deyapman?

Meni xafa qilgingiz
kelmasa, u yerga bormang.

Ko'z yoshlarini, koshki,
to'xtata bilsa.

Ertaga maktabimizga
shoirlar keladi!

Qachon chiqasiz
deyapman?!

Meni xafa qilgingiz
kelmasa, u yerga bormang!

Ko'z yoshlarini, koshki,
to'xtata bilsa!

Bilib oling. Gaplar his-hayajonning ishtirokiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) **his-hayajonsiz gaplar**; 2) **his-hayajon (undov) gaplar**. Darak, so'roq va buyruq gaplar his-hayajonsiz gaplardir. Bular nutqda kuchli his-hayajonga ega bo'lishi bilan his-hayajon gaplarga aylanishi mumkin. His-hayajon gaplar **undov gap** deb ham nomlanadi.

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir. Ular shodlik, quvonch, suyunish,

qo'rquv, tantana, taajjub, qayg'u, afsuslanish kabi turli hissiyotlarni ifodalaydi va baland ohangda aytilishi bilan boshqa gap turlaridan farq qiladi. Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: **Voy, qomatingdan onang o'rgilsin!** (A.Q.) **O'z qilmishlaringizdan uyalmaysizmi?** (A.Q.) **Qadamlaringizga hasanot!** (A.Q.)

Salomlashish-so'rashish, xayrlashish singari holatlar bilan bog'langan gaplar ham yuqori ohang bilan aytiladi (**To'y muborak! Xayr, do'stim!**) va undov gaplar hisoblanadi.

Undov gap so'roq gapdan hosil bo'lgan bo'lsa, oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi: **Aytsangiz-chi, nima dedi?!**

104-mashq. Gaplarni to'g'ri ohang bilan o'qing, so'ng ular ichidan undov gaplarni ajratib ko'chiring. Ularda qanday mazmun ifodalanganini qavs ichida ko'rsating.

1. Qulog'im sizlarda, mehmonlar! — dedi u tik turgancha. (J.Abd.) 2. Ilm, fan va fikr olami nihoyatda keng va chuqur. (O.) 3. Balli, Ra'no, ana jinnilik! — dedi dadasi, — atlas ko'ylak hayf senga, bo'zdan boshqasi, albatta, hayf! (A.Qod.) 4. Zap bitibdi-da, jonivor! (H.G'.) 5. Ha, ho'kiz uylaringga eltib berilsinmi?! Axir borilsin, arz qilinsin-da!!! (A.Q.) 6. Gulla, yashna Mustaqil O'zbekiston! (O.) 7. Sen qanaqa cho'qqiga intilgan eding?! (A.Q.) 8. O'n yil! O'n yildan beri kasal ekanmi?! (A.Q.) 9. Siz yo'qmidingiz? Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! (A.Q.) 10. Bu joylar menga yoqadi, juda-juda! (J.Abd.) 11. Sen chala qolgan yerlaringgagina achinyapsan, — dedi Bektemirjon, hammasiga! (J.Abd.)

Savol va topshiriqlar

1. His-hayajonning ishtirokiga ko'ra gaplar necha turli bo'ladi?
2. Undov gaplar qanday hosil qilinadi?
3. Undov gaplar oxiriga qanday tinish belgilari qo'yiladi?


105-mashq. Uyga vazifa. She'riy asarlardan undov gaplarga 4–5 ta misol topib yozing.


38-dars

GAPNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

1-topshiriq. Chap va o'ng tomondagi gaplarni o'qing. Qaysi tomondagi gaplar ikkitadan, qaysi tomondagi gaplar bittadan nisbiy tugal fikrni ifodalayotganini ayting.

- | | |
|--|--|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Bahor keldi.
Dala ishlari boshlandi. 2. Osmonni qora bulut qopladi.
Yomg'ir yog'madi. 3. Bir nima demoqchi bo'ldi.
Tili og'ziga tiqilib qoldi. 4. U meni ko'rdi.
Yugurib keldi. 5. Ertaga jo'namasligi aniq
bo'lib qoldi.
O'z qishlog'iga shu
holda bora olmaydi. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Bahor keldi va dala ishlari
boshlandi. 2. Osmonni qora bulut qopladi,
lekin yomg'ir yog'madi. 3. Bir nima demoqchi
bo'ldi-yu, tili og'ziga tiqilib
qoldi. 4. U meni ko'rdi va yugurib keldi. 5. Ertaga jo'namasligi aniq bo'lib
qoldi, chunki o'z qishlog'iga
shu holda bora olmaydi. |
|--|--|

 **2-topshiriq.** Yuqoridagi misollarni kuzatib, o'ng tomondagi ikkitadan gapning bir-biri bilan bog'lanib, bir nisbiy tugal fikmi anglatadigan gapga aylanishi nimalar vositasida sodir bo'lganini ayting.

 **Bilib oling.** Nutqimizdagi gaplar bir yoki ikki grammatik asosdan, ba'zan esa ikkitadan ortiq grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Shu jihatdan gaplar ikkiga bo'linadi: 1) **sodda gaplar**; 2) **qo'shma gaplar**.

Grammatik asosi bitta bo'lib, ma'lum bir fikrni (ba'zan unga qo'shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar **sodda gap** deyiladi: **Shahnoza o'qidi. Shahnoza kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni hayajon bilan o'qidi** kabi.

Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gap **qo'shma gap** deyiladi: **Shu payt eshik ochildi va hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi. (I.R.) Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar. (Maqol) Odam borki, odamlarning naqshidir. (Navoiy)**

106-mashq. Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga ajratib ko'chiring.

1. Qimirlagan qir oshar. *(Maqol)*
2. Ahillik bor yerda temir ham suvga cho'kmaydi. *(Shuh.)*
3. Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar. *(Maqol)*
4. Nizomjon konvertni dadasining qo'liga berdi-yu, g'izillaganicha chiqib ketdi. *(S.A.)*
5. Go'yo hayot tamomila uxlaganday, hammayoq jimjit edi. *(P.Q.)*
6. Xalil ota halol va

mehnatsevar kishiga xos izzat-obro'sini va qadr-qimmatini chuqur tushuntirdi. (Sh.R.)

? Savollar

1. Gaplar grammatik asosining nechtaligiga ko'ra necha turli bo'ladi?
2. Qanday gaplar sodda gaplar deyiladi?
3. Qo'shma gaplar sodda gaplardan nimasi bilan farqlanadi?

107-mashq. Uyg'a vazifa. Kundalik matbuot nashrlaridan sodda va qo'shma gaplarga 3 tadan misol topib yozing va ularni gap bo'laklari jihatidan tahlil qiling.

39-dars

MUSTAHKAMLASH DARSII

? Savol va topshiriqlar

1. Gap nimaligini ta'riflab bering. U boshqa til birliklaridan qanday farq qiladi?
2. «Gapning grammatik asosi» deganda nimani tushunasiz?
3. Ifoda maqsadiga ko'ra gapning qanday turlari bor?
4. His-hayajonning ishtirokiga ko'ra gaplar necha xil bo'ladi?
5. Qanday gaplar undov gaplar deyiladi?
6. Gaplar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?
7. Sodda gap bilan qo'shma gapning asosiy farqi nimada? Fikringizni misollar bilan asoslang.

1-topshiriq. Uch guruhga bo'linib, «Qaysi guruh darak, so'roq va buyruq gaplarning har biriga 3 tadan misolni tez va to'g'ri topib yozadi» musobaqasini o'tkazing.

2-topshiriq. Undov gaplarga 5 tadan misol toping va ularning darak, so'roq hamda buyruq gaplardan farqini ayting. Talaffuzi va yozilishdagi xususiyatlarini tushuntiring.

3-topshiriq. «Adabiyot» darsligingizdagi biror badiiy asar parchasidan sodda va qo'shma gaplarga 3 tadan misol toping.

4-topshiriq. Rasmni kuzating. Undan foydalanib «Kech kuzda tabiat» mavzusida matn tuzing. Matndagi o'zingiz qo'llagan sodda va qo'shma gaplarni belgilang.



108-mashq. *1-topshiriq.* Matnni ifodali o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Unga qanday sarlavha qo‘yish mumkin?

Xurshidning xolasi qishloqda turadi. Shahardan avtobusga o‘tirib, uch soat yurilsa, shundoq tog‘ etagidagi qishloqqa kirib boriladi.

Xurshid avtobusdan tushganida vaqt peshindan og‘gan edi. U xolasining pastak tosh devor bilan o‘ralgan hovlisiga kirib borsa, Anvar qo‘lida qafas bilan chiqib kelayotgan ekan. Anvar — xolasining o‘g‘li. U ham beshinchida o‘qiydi. U Xurshidni ko‘rib suyunib ketdi.

— Oyi. Xurshid keldi! — dedi baqirib.

Ayvon burchagida bir palla qovoqni qirib o‘tirgan xolasi shoshilib o‘rnidan turdi.

— Voy o‘zim aylanay shaharlik bolamdan! — u qo‘lida qirg‘ich bilan ayvondan shoshilib tushdi-da, Xurshidni bag‘riga bosdi. — Ajab qipsan-da kelib. Qovoq somsa yopay deb turuvdim. Oying yaxshimilar? Dadang tuzukmilar? O‘qishlaring yaxshimi?

Xurshid xolasining ketma-ket berayotgan savollariga javob qilardi-yu, ikki ko‘zi Anvarning qo‘lidagi qafasda edi. Qafas ichida bo‘yni, ko‘kragi qizil, kulrang qanotida sarg‘ish patlari bor sa‘va pitir-pitir qilib uchib-qo‘nardi.

— Qayoqdan olding? — dedi u havasi kelib.


— Sandiqtoşdan tutdim. — Anvar qafasning u yoq-bu yog‘ini o‘girib ko‘rsatdi. — Hozir ham sa‘va tutgani ketyapman.


— Menam boray!..

— Bo‘pti, faqat ovozingni chiqarmaysan...

(O‘. Hoshimov)

 *2-topshiriq.* Matndagi buyruq va undov gaplarni topib, guruhlab ko‘chiring.

 *3-topshiriq.* Matndagi barcha gaplarni «Sodda gaplar» va «Qo‘shma gaplar» guruhiga ajratib yozing.

 **109-mashq.** *Uyga vazifa.* «Ona tili» darsligingizdan foydalanib, «Gapning so‘z birikmasidan farqi» mavzusida kichik ilmiy matn tuzing.

40-41-darslar

YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

SODDA GAP SINTAKSISI

42-dars

SODDA GAP HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

110-mashq. Juftlab berilgan gaplarning kesimini aniqlab, ularni sodda va qo'shma gaplarga ajratib ko'chiring. Sodda va qo'shma gaplar orasidagi asosiy farq xususida fikringizni ayting.

1. Biz uyga qaytdik va birga dars tayyorladik. — Biz uyga qaytib, birga dars tayyorladik. 2. Kun botdi. Qosh qoraya boshladi. — Kun botib, qosh qoraya boshladi. 3. Shamol turdi va hammayoqni to'zon qopladi. — Shamol turgach, hammayoqni to'zon qopladi. 4. Men sinfga kirdim va deraza oldida turgan Shahnozani ko'rdim. — Men sinfga kirgach, deraza oldida turgan Shahnozani ko'rdim.



Esga oling. Sodda gap tarkibida kesimlik shakllariga ega bo'lgan bitta kesim bo'ladi. Sodda gap tarkibidagi barcha bo'laklar shu kesim atrofida birlashadi. Qo'shma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq (uyushmagan) kesim bo'ladi.



Bilib oling. Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplar **sodda** (bir grammatik asosli) va **qo'shma** (ikki va undan ortiq grammatik asosli) gaplarga bo'linadi. Qiyoslang: **Bu shaharda tanish-bilish yo'qligi Mirzayevga shu bugun bilindi. (A.Q.) — Kampirning ko'zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi. (O.)**


Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **egali gaplar (Biz yangi filmni tomosha qildik)** va **ega ishtirok etmagan gaplar (Yangi filmni tomosha qildik).**

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etgani yoki etmaganiga ko'ra: **sodda yig'iq gaplar (Kamola kirib keldi), sodda yoyiq gaplar (Kamola darvozadan shoshilib kirib keldi)**ga bo'linadi.

111-mashq. **Quramiz, qurildi; ko'rindi, ko'rildi; boshlandi, boshladi** fe'l shakllarini kesim vazifasida qo'llab, sodda gaplar tuzing. Ularni, egali va egasiz gaplar ekanligiga ko'ra izohini bering.

Savol va topshiriqlar

1. Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplar necha turli bo'ladi? Misollar keltiring.
2. Sodda gaplar o'z tarkibida eganing ishtirok etgani yoki etmaganiga ko'ra necha xil bo'ladi?
3. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etgani yoki etmaganiga ko'ra sodda gaplar necha turga bo'linadi? Misollar keltiring.
4. Sodda gap tarkibida nechta kesim bo'ladi? Qo'shma gapda-chi?

 **112-mashq.** Uyga vazifa. Matnni o'qib, undagi sodda gaplarni ko'chirib yozing.


KABUTAR VA CHUMOLI

Bir chumoli suvga tushib, cho'kib ketayotgan edi. Uni ko'rgan kabutar darhol tumshug'iga bir somon cho'pini olib, chumoliga uzatdi. Chumoli so'nggi quvvatini to'plab, cho'pga osildi. Kabutar chumolini qutqarib qoldi. Chumoli kabutarga qanday rahmat aytishini bilmasdan unga mehr bilan qaradi. Kabutar uchib ketdi. Kunlardan bir kun chumoli bir ovchining kabutarni nishonga olib turganini ko'rdi. Chumoli bor quvvati bilan yugurib, ovchining yoniga bordi. Oyog'idan o'rmalab, boshiga chiqib oldi va ko'zidan shunday chaqdiki, ovchi jon achchig'ida miltig'ini qo'lidan tushirib yubordi. Kabutar ham ovchini ko'rib qolib, uchib ketdi.


(Sharq hikoyasi)


43-dars

GAPNING BO'LAKLARGA AJRATILISHI

 **1-topshiriq.** Gap bo'laklari yuzasidan olgan avvalgi bilimlaringizga asoslanib, berilgan gaplar tarkibida nechtadan gap bo'laklari mavjudligini aniqlang.

1. Biz kecha muzeyga bordik. 2. Keksa bog'bon ko'm-ko'k ajriq ustida o'tirib hordiq chiqardi. 3. Mayin esgan shamol ko'nglimizni chog' qildi. 4. Ustozlarning qadr-qimmatini bilmagan kishi o'qituvchi bo'la olmaydi.

 **2-topshiriq.** Yuqoridagi gaplarning kesimiga so'roq berib, egasini toping.

 **3-topshiriq.** Yuqoridagi gaplar tarkibida ikki va undan ortiq so'zlarning bir gap bo'lagi vazifasida kelayotganlari bor-yo'qligini ayting.



Bilib oling. Gapda soʻzlar oʻzaro grammatik munosabatga kirishib, gap boʻlaklarini hosil qiladi. Gap boʻlaklari vazifasini mustaqil soʻzlar va gapda mustaqil soʻzlar vazifasida kelgan yordamchi soʻzlar bajaradi.

Har bir gap boʻlagi boshqa gap boʻlaklari bilan boʻlgan grammatik munosabatiga koʻra belgilanadi, yaʼni har bir gap boʻlagi oʻzi munosabatga kirishgan soʻz bilan maʼlum sintaktik aloqada boʻladi. Masalan, **Dildora kechagi uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi** gapida quyidagi gap boʻlaklari mavjud: **Dildora** (kim?) — ega, **kechagi** (qachongi? qaysi?) — aniqlovchi, **uchrashuv haqida** (nima haqida?) — toʻldiruvchi, **zavqlanib** (qay tarzda?) — hol, **gapirdi** (nima qildi?) — kesim. Soʻzlar quyidagicha sintaktik aloqaga kirishgan:

1) **Dildora gapirdi**; 2) **zavqlanib gapirdi**; 3) **uchrashuv haqida gapirdi**; 4) **kechagi uchrashuv**.

Gap boʻlaklari 5 ta: kesim, ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol. Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir. Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini koʻrsatadi.

Toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol boʻlaklari ega va kesimga ergashib kelib, ularni toʻldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shuning uchun ular gapning **ikkinchi darajali boʻlaklari** deyiladi.

113-mashq. Gaplarni tushirib qoldirilgan kelishik qoʻshimchalari va koʻmakchilarini qoʻyib koʻchiring, soʻng gap boʻlaklarini aniqlab tagiga chizing.

1. Dadash mehribon odamlar... suhbatlashish... zavqlanar edi. (*I.R.*) 2. Temirjon u... oʻzgacha sevinch va hayajon... kutib oldi. (*J.Abd.*) 3. Sen men... gap... chalgʻitma. (*Ch.Ayt.*) 4. Yumalab kelayotgan yogʻoch yoshgina baquvvat qayin... bosib, ezib kelmoqda... (*Ch.Ayt.*) 5. Mana riyokor ota... ikki ogʻiz shirin soʻzi tugʻdirgan umid... Toʻtiqiz... koʻngli koʻtarildi. U xuddi buvisi..., xolasi... koʻrganday suyundi. (*M.Ism.*) 6. Ahmad ikkovlari kosib... shogird tushganlar. 7. Aʼzam tizzasidagi mahsi... hafsala... pishiq tikadi. (*O.*)

114-mashq. Yuqoridagi misollarda gap boʻlaklarining qaysi grammatik shakldaligini, qaysi turkum soʻzlari bilan ifodalanganini ayting.



115-mashq. Ochiq derazadan Shodasoyning salqini bilan qayerdandir pishgan behi hidi anqib kirdi (*As.M.*) gapidagi soʻzlarning sintaktik aloqasi nuqtayi nazaridan tahlil qiling.

? Savol va topshiriqlar

1. Gaplar bo'laklarga qanday belgilariga ko'ra ajratiladi?
2. Kesim va egaga ta'rif bering.
3. To'ldiruvchi, aniqlovchi va hol nega ikkinchi darajali bo'lak deyiladi?

116-mashq. Uyga vazifa. Arava katta tol tagida to'xtashi bilan shu yerdagi ko'cha devori yonida o'tirgan odam o'rnidan turib keldi (H.F.) gapidagi bo'laklarni aniqlang.

44-dars

KESIM VA UNING IFODALANISHI

1-topshiriq. Berilganlarni (ko'p nuqttagacha) o'qing. Ularning tugal fikr ifodalay olmasligining sababini ayting.

Dam olish kuni biz sayohatga 2. Inson uchun eng katta boyluk 3. Aviatsiya maktabini tugatib, Erkinjon 4. Kitobni katta qiziqish bilan 5. San'at muzeyini sinfimiz o'quvchilari birgalikda 6. Akam kecha samolyotda Toshkentdan

2-topshiriq. Ko'p nuqtalar o'miga mos keluvchi so'zlarni qo'yib o'qing. Tugal fikr ifodalanishini ta'minlagan bu so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarganini ayting.

3-topshiriq. Birinchi va ikkinchi topshiriq natijasi asosida kesimning gapdagi o'rni va fikrni ifodalashdagi ahamiyati haqida xulosa chiqaring.

Esga oling. Kesim gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi.

Bilib oling. Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda katta. U hukmni ifodalovchi, gapning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi.

Kesim nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? (ba'zan nechanchi? qanday?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil: **fe'l kesim, ot kesim** bo'ladi.

Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil: **sodda kesim** va **murakkab kesim** bo'ladi.

117-mashq. Cho'mildik, ergashdi, sevinasizmi, ko'chirib olgan edingiz, so'radilar, olib chiqing fe'l shakllarini kesim vazifasida qo'llab, gaplar tuzing.



118-mashq. Tarkibi «ega — aniqlovchi — to'ldiruvchi — hol — kesim» bo'lgan gaplar tuzing. Tuzgan gapingizda ularning tartibini o'zgartirish mumkin yoki mumkin emasligini ayting.



Savol va topshiriqlar

1. Gapning hosil bo'lishida kesimning o'rni va ahamiyati haqida so'zlang.
2. Gapda kesim bo'lak bo'lmasa, fikr ifodalanadimi?
3. «Kesim — gapning markazi» deganda nimani tushunasiz?
4. Qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra kesim necha xil bo'ladi?
5. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlarini ayting.



119-mashq. Uyg'a vazifa. Bir she'riy to'rtlik tanlang va undagi kesim bo'laklarni aniqlang.

45–46-darslar

FE'L KESIM VA OT KESIM

120-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan kesimlarning fe'l kesim yoki ot kesim ekanligini aniqlang.

NIMA EKSANG, SHUNI O'RASAN

(Rivoyat)


Rivoyat qiladilarki, Luqmoni hakim avval zolim va badjahl, qullariga **shafqatsiz bo'lgan**. Ekin paytida bir kuni qishloqda bahorgi ishlar qanday borayotganligi bilan tanishish uchun dalaga **aylanib chiqibdi**. Shunda bir dehqonning bug'doy ek deb buyurilgan yerga tariq sochayotganini **ko'rib qolibdi**. Luqmoni hakimning **jahli chiqibdi**: «Hoy, ahmoq, to'xta. Sen jinnimisan?! Men gapirganda **karmiding?** Nega bu yerga tariq **sochypasan**, bug'doy ek deb aytmaganmidim», — deb **do'q qilibdi**.

— Hojam, tariq **ekyapman**, xudodan **tilaymanki**, bug'doy unsin, — deb javob beribdi dehqon.

— **Nodonsan-da**, — debdi Luqmon. — Shuning uchun **qulsan**. Tariq eksang, bug'doy **o'rasanmi?! Xudo ekkaningni beradi**.

Shunda dehqon: — Hojam, axir siz bizga doim **jabr-zulm qilib**, evaziga faqat yaxshilik, halol mehnat va mo‘l hosil **talab qilasiz-ku**, — debdi.

Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq **ta’sir qilibdi**.

 **Bilib oling.** Kesim barcha mustaqil turkum so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin. Shunga ko‘ra fe‘l kesim va ot kesim ajratiladi. Fe‘l kesim hamisha sof fe‘l — fe‘lning tushangan shakllari bilan ifodalanadi: *Men maktabga boraman. Kecha kun juda qizidi. Obro‘ni bolalikdan asra!*

Fe‘l kesimlar quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof fe‘l kesimlar: *Men maktabga boraman*;

b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim: *Uy egasi dasturxonni mehmon oldiga yozguncha, Fotima ham barkashni olib keldi. (S.A.);*

d) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *It hurar — karvon o‘tar. Po‘lat xatni kecha yuborgan.*

Fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so‘z) bilan, shuningdek, fe‘lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim **ot kesim** deyiladi.

Ot kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

a) ot bilan: *Teshaboy ashaddiy dushman-u, siz xizmatini qilayotgan depo xo‘jayini do‘stmi? (M.Ism.) Yaxshi ro‘zg‘or — jannat, yomon ro‘zg‘or — do‘zax. (Maqol);*

b) sifat bilan: *Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. (Maqol);*

d) son bilan: *Birniki — mingga, mingniki — tumanga. (Maqol) Bu birinchisi. Ikki marta ikki — to‘rt;*

e) olmosh bilan: *Maqsadim — shu. O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur. (Qo‘shiq);*

f) ravish bilan: *Sizdan umidim ko‘p;*

g) modal so‘z bilan: *Yo‘qoling, siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo‘q!*

h) harakat nomi bilan: *Burchimiz — a‘lo o‘qish. Chin so‘zni yolg‘on demak xub emas, dog‘i bori chin degulik emas. (A. N.)*

121-mashq. Gaplaming kesimlarini topib, fe‘l kesim va ot kesim guruhlariga ajratib yozing.

1. Oltita bolani bag‘riga olgan Mahkam taqachi — shu. (R.F.)
2. Mo‘tabar eshikni sekin yopib chiqib ketdi. (R.F.)
3. Sanasangiz-sanamasangiz ham hammasi qirqta. (O.)
4. ...Tez hal qilish kerak, talabgorlar ko‘p. (O‘.H.)



122-mashq. She' mi ifodali o'qing. Fe'l kesimlarni aniqlab, qaysi grammatik shaklda ekanligini ayting.

ALISHERNING ONASI

Bilmam, qanday ayol bo'lgan
 Alisherning onasi.
 Balki uning aqliga ham
 Lol qolgan zamonasi.
 Balki uning ko'zlarida
 Bo'lgan og'ir bir xayol.
 Balki g'amgin bir zotdir u,
 Balki sho'xchan bir ayol.
 Balki buyuk farzandiga
 Terib kelgan chechaklar.
 Balki tunlar unga bedor
 Aytib bergan ertaklar.
 Mayliga, u kim bo'lmasin,
 Yolg'iz bir so'z ma'nosi:
 Alisherning onasi u,
 Navoiyning onasi.

(A. Oripov)



Savol va topshiriqlar

1. Kesimlar qanday belgilariga ko'ra fe'l kesim va ot kesim turlariga bo'linadi?
2. Qanday kesimlar fe'l kesim hisoblanadi?
3. Qaysi turkum so'zlari bilan ifodalangan kesimlar ot kesim sanaladi?



123-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni ko'chiring va kesim bo'laklarini belgilang. Qaysi turkum so'zi ekanligini tepasiga yozing.

1. Bu maskan Umidning shodligini ham, kulfatini ham, muhabbatini ham ko'rgan. U qoramag'iz, chayir yigit bilan qardonlashib ketgan. (*Mirmuhsin*) 2. Endi ularning xatosini tuza-tish uchun hammamiz qancha mashaqqat chekamiz. (*P.Q.*)

124-mashq. Gaplaming kesimlarini topib, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini va kesimning qaysi turiga kirishini ayting.

1. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam — o'qish. (*O'H.*)
 2. Mingbuloq o'zi yaxshi, suvi serob, lekin qarovsiz ko'chalari tor, qing'ir-qiyshiq (*O'H.*) 3. Uning Vohid Mirobidov haqidagi gaplari ham qiziq (*O.Y.*) 4. Tabiatda hech qanday sirli kuch

ta'sirida ro'y beradigan narsa yo'q. (*J.Abd.*) 5. Aytishlaricha, u qishloqqa qaytmaydi. 6. Bol yaxshi, boldan ham bola yaxshi. (*Maqol*)

125-mashq. Ko'chiring. Har bir gapning kesimini topib, ifodalanishini namunadagidek ko'rsating.

ot

fe'l

Namuna: Bizning yurtimiz chaman, unda quv nab o'saman (*Qo'shiqdan*).

1. So'z chertib olinishi, har yoqlama tanlanishi lozim. (*O.*) Uzoqdan mayin qo'shiq eshitila boshladi. Men seni endi tanidim, sen Sanobar opaning o'g'lisan-a? (*P.T.*) Navbahor, ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar. (*Muqimiy*) Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi. Halol yashamoq — xalqqa xizmat qilmoq. (*Maqol*) Maktab — ilm o'chog'i. (*Maqol*)

126-mashq. Ko'chiring. Har bir gapning kesimini topib, so'roq bering va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Gullab yotgan o'rikzor xira pardaga burkandi. (*S.A.*)
2. Mehnatga ham zafarga o'zingiz o'rgatdingiz. (*Z.*) 3. Kitob o'qish kishining so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi.
4. Ey, do'stlarim, sizni bu vatan ona kabi sevar shunchalar! (*Z.D.*) 5. O'rinsiz g'azab — o'zingga azob. (*Maqol*) 6. Kerakli toshning og'irligi yo'q. (*Maqol*) 7. Gulzordagi oq, qizil, pushti rang gullar quyosh nurida rang-barang tovlanadi. 8. Takrorlash ta'limning asosidir.

127-mashq. Matnni o'qib, mazmunini so'zlab bering. Birinchi xatboshidagi gaplarning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

ONA MEHRI

Ona. Mehri quyoshga teng ona. O'z shafqati, nuri bilan bolaga qalb bergan, sevgi baxsh etgan — ona! Uning inoyat qilgan yuragi va muhabbati eng avval, onaning o'ziga qaratilib, bola uni sevdi, ardoqladi...

Tunlari bedor: shirin uyqusini buzib, bolasiga halovat beradigan yoqimli allasi bilan ona farzandiga ruhiy lazzat bulog'ini ochadi. Bola she'riyat va qo'shiqqa umrbod maftun bo'ladi. Bolasini ko'zimning nuri, dilimning sururi, deydi. Uni yer-u ko'kka ishonmay, ko'proq uxlab qolsa, xavotirlanadi,

qattiqroq yig'lasa, vahimaga tushadi. Parvona bo'ladi. Buni qay so'z bilan tasvirlasa bo'ladi!

Agar menda ozgina bo'lsa-da olijanoblik, axloqiy poklik, yaxshilik tuyg'usi shakllangan bo'lsa, bularning hammasi Onamdan. Ha, bola eng yaxshi fazilatlarini onadan o'rganadi. Inson baxtidek ko'rkamlik, tabiatan ulug'lik, sog'lomlik, xushnudlik – hammasi Onadan.

Ona kishilik dahosi yaratgan ilmni ham, tajribalarni ham ishga soladi. Bolani mehnatga o'rgatadi. Aqlini peshlab, bolaga qurol ushlashdan to noz-u ne'matlar yaratishgacha, shirin so'zlab, o'zgalar hurmatini topishgacha yo'l – usullar bilan tanishtiradi. Toymasin, qoqilmasin, deb to'g'ri odimlashgacha saboq beradi. Ona – murabbiya. Ular kelajakka zo'r ishonch bilan qaraydilar. Onalar – po'lat iroda sohiblari: bolasi yo'lida hamma qiyinchiliklarni yengadi. Ularning madhi hamisha kuylarda.

(M.Shayxzoda)



128-mashq. *Uyga vazifa.* Berilgan tayanch so'zlar kesim vazifasida kelgan gaplar tuzing. Kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra turini izohlang.

Yangradi, kuzatdi, erishdik, o'qish, ko'p, sinov.

47-dars

SODDA KESIM VA MURAKKAB KESIM

129-mashq. Quyidagi gaplarning kesimlarini bitta so'zdan yoki birdan ortiq so'zdan iborat ekanligiga ko'ra ajratib yozing.

1. Bolalar yo'g'on archa yonida to'xtadilar. (*H.N.*) 2. Keksa bog'bon ko'm-ko'k ajriq ustida o'tirib hordiq chiqardi. (*S.A.*) 3. Bu hovlining teng yarmi mevazor edi. (*P.T.*) 4. Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi. (*S.A.*) 5. Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. (*As.M.*) 6. Ahmoq do'stdan aqlli dushman yaxshi. (*Maqol*) 7. Sizga aytmoqchi bo'lgan gapim shu edi. (*O'H.*) 8. O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma. (*Maqol*)



Bilib oling. Kesimlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **sodda kesim** va **murakkab kesim**. Birgina so'z bilan ifodalangan kesim

sodda kesim deyiladi: *Paxta va tilladan yurt bezanadi. Alisher Navoiy — she'riyat mulkinging sultoni.*

Ikki va undan ortiq so'z bilan ifodalangan kesim **murakkab kesim** deyiladi: *Ayozli kunlar asta-sekin o'tib borayotir. Uchrashuv qiziqarli bo'ldi.*

Murakkab kesim tarkibidagi so'zlardan biri yordamchi so'zlar (ko'makchi fe'l, bog'lama, nisbiy so'zlar va b.lar)dan bo'lishi mumkin.



130-mashq. Fe'l kesimli gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdagi murakkab kesimlarni sodda kesim bilan, soddalarini murakkab kesimlar bilan almashtiring. Gaplarda sodir bo'ladigan ma'noviy o'zgarishlarni tushuntiring.



Savol va topshiriqlar

1. Sodda va murakkab kesimlarga ta'rif bering.
2. Murakkab kesim qanday tuzilishga ega bo'ladi?
3. Murakkab kesim tarkibidagi ko'makchi fe'l boshqasi bilan almashtirilsa, gap mazmunida o'zgarish bo'ladimi yoki yo'qmi?



131-mashq. Uyg'a vazifa. Sodda va murakkab kesimlarga uchtadan (gap ichida) misol topib yozing.

48-dars

TEST TOPSHIRIQLARI

49-dars

MURAKKAB OT KESIMLARNING TUZILISHI




1-topshiriq. Berilgan gaplardagi murakkab ot kesimlar tarkibidagi qismlarning qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanayotganini aniqlang.

1. O'sha kuni sovuq **qattiq edi**. 2. Bu katta ahamiyatga ega **hodisa hisoblanadi**. 3. Men **kutib olishim kerak**. 4. Akam **talaba bo'ldi**. 5. Fikrlar **o'zingniki bo'lsin**. 6. Ular **besh kishidan iborat edi**. 7. Qo'shni xona doimo **ozoda bo'ladi**. 8. Chaqaloqni **bir ko'rgim keldi**.



2-topshiriq. Yuqoridagi murakkab ot kesimlar tarkibidagi asosiy va qo'shimcha ma'no ifodalayotgan qism (so'z)larni ajratib ko'rsating.

 **Bilib oling.** Murakkab ot kesimlar ot (*keng ma'noda*) + bog'lama vazifasida kelgan yordamchi fe'l yoki ko'makchi fe'l tarzidagi qo'shilishdan hosil bo'ladi. Bunda asosiy ma'no otdan anglashiladi, ko'makchi yoki to'liqsiz fe'l qo'shimcha ma'no bildiradi va kesimning ega bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Masalan, *Men uchuvchi bo'laman*.

Kesim bilan egani bog'lashda xizmat qiluvchi bunday so'zlar bog'lama deyiladi. Bular asl mustaqil ma'nosini to'la yoki qisman yo'qotib, yordamchi vazifaga ko'chgan so'zlardir. Bularning vazifasi fe'l bo'lmagan so'zlar bilan qo'shib, kesimni shakllantirishdir, ya'ni mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalashdan iborat. Masalan, *gulzor qildik* – aniqlik maylida, o'tgan zamon va I shaxs ko'plik shaklida.

Kesimni shakllantirishga xizmat qiladigan bunday bog'lama-lar bo'l-, edi, ekan, emish, hisoblan-, sana- kabi yordamchilardir.


Kerak, zarur, darkor, lozim so'zlari ham bog'lama vazifasida qo'llanadi.

132-mashq. Quyidagi birliklarni murakkab ot kesim vazifasida qo'llab, gaplar tuzing. Asosiy ma'noni beruvchi qism (so'z)larning qaysi so'z turkumidan ekanligini ayting.

Xursand edi, qiziqarli bo'ldi, yaxshilik qil, obod qildi, ozod bo'ldi, oz emish, xursand bo'ldi, to'g'ri chiqdi, ko'p edi.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Murakkab ot kesimlar qanday hosil bo'ladi?
2. Asosiy ma'no kesimning qaysi qismidan anglashiladi? Misollar keltiring.
3. Bog'lama nima? Ularning vazifasi qanday?
4. **Kerak, zarur, darkor, lozim** so'zlarining bog'lama vazifasida kelishiga misollar ayting.

 **133-mashq.** Uyg'a vazifa. Yasamoqchi bo'ldim, chumchuq ekan, yozishim kerak, mehribonlik qilgan edi birliklarini kesim vazifasida qo'llab, gaplar tuzing.

50-dars

KESIMNING BIRIKMALAR VA IBORALAR BILAN IFODALANISHI

134-mashq. Berilgan gap juftliklandagi harakat nomlari bilan ifodalangan sodda va harakat nomi birikmalari bilan ifodalangan murakkab kesimlarni aniqlang.

1. Vazifamiz — o‘qish. Vazifamiz — bilim maskanlarida hamisha a‘lo o‘qish. 2. Kitob o‘qishdan maqsad — anglash. Tarixni o‘rganishdan asosiy maqsad — milliy o‘zligimizni chuqurroq anglash. 3. Yashashning asl mazmuni — yaratish. O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratishdir. 4. Baquvvat xotiraning mohiyati — unutmastlik. Komil insonlardagi olijanob xislat — o‘tmishni unutmastlik.



Bilib oling. Kengaygan birikma va iboralar gapda yaxlit holda bitta gap bo‘lagi bo‘lib keladi va o‘z ichida boshqa bo‘laklarga ajratilmaydi. Bunday kesimlar tuzilishiga ko‘ra **murakkab kesimlar** hisoblanadi.

135-mashq. Berilgan gaplardagi murakkab kesimlarning birikmalar yoki iboralar bilan ifodalanayotganini ayting.

1. Dadam qo‘li ochiq odam edilar. 2. Respublikamizdagi eng nufuzli bilim dargohi O‘zbekiston Milliy universitetidir. 3. U birdaniga to‘nini teskari kiyib oldi. 4. Toshkent — O‘zbekiston Respublikasining poytaxtidir.

136-mashq. Bog‘dan kelsangiz, tog‘dan keladi, yulduzni benarvon uradi, aybini bo‘yniga olgan emish, ko‘ngliga qil sig‘madi iboralarini kesim vazifasida qo‘llab, gaplar tuzing.



Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun harakat nomi bilan tuzilgan birikmalar gapda bir gap bo‘lagi hisoblanadi?
2. Iboralarning yaxlit holda bir gap bo‘lagi sanalishining asosi nimada?
3. To‘g‘ri ma‘noli turg‘un bog‘lamalarni kesim vazifasida qo‘llab, gaplar tuzing. Ularning yaxlit holda kesim deb belgilashning sababini ayting.



137-mashq. Uyga vazifa. Harakat nomi bilan tuzilgan birikma, ibora va to‘g‘ri ma‘noli turg‘un bog‘lamalar qatnashgan 3 tadan gap topib yozing.

51-dars

OT KESIM VA EGA ORASIDA TIRENING QO‘LLANILISHI

138-mashq. Berilgan ot kesimli sodda gaplarda tirening qo‘llanilishi va qo‘llanilmasligi sabablarini tushuntiring.

1. Ukam — o‘quvchi. 2. Bu gul qizil. 3. Aziza — tikuvchi.
4. Yulduz — a’lochilarimizdan. 5. Akam uchuvchi bo‘ladi.
6. Taniganim — shular. 7. Taniganim — do‘stlarim. 8. Eshitganlarim haqiqat edi. 9. Eshitganlarim — haqiqat.



Bilib oling. Quyidagi hollarda ot kesim va ega orasida tire qo‘yiladi:

1. Ot kesim kesimlik qo‘shimchalarisiz yoki bog‘lamasiz qo‘llanilganda: *Tinchlik — farovon hayot manbai. Mening aytadigan gapim — shu. Uch karra uch — to‘qqiz.*

Eslatma. Ot kesim sifat va tartib sonidan bo‘lganda, ot kesim va ega orasida tire qo‘yilmaydi: *Vatanimiz go‘zal. Bino katta. Qizilqum sahrosi bepoyon. Bu qovun shirin. Ko‘ylakning rangi sariq. Bizning sinfimiz sakkizinchi.* 2. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalaniib, kesim tarkibida kesimlik qo‘shimchasi yoki bog‘lama bo‘lmaganda: *O‘qish — ulg‘ayish. Har narsaga qiziqish — biz uchun eski odat. Maqsadim — o‘qimoq.* 3. Ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanganda: *Bu — siz uchun katta sinovdir.* 4. Eganing ma‘nosi ta’kidlab ko‘rsatilganda: *Men — mana shu minglarning biriman. Urush — quyon ovi emas. Sen — bizni ozod etuvchisan.*

Eslatma. Agar ega bilan ot kesim orasida **ham** yordamchisi bo‘lsa, tire qo‘llanmaydi: *Bular ham a’lochi. Mening opam ham talaba. Sharifa ham to‘quvchi.*


139-mashq. Gaplarning ega va kesimini aniqlab, kerakli o‘rinda ular orasiga tire qo‘yib ko‘chiring.

1. Qo‘l yugurigi oshga, til yugurigi boshga. (*Maqol*) 2. Mehmnonlarning aksariyati o‘rta yoshli, o‘ttiz-qirq orasidagi odamlar edi. (*O.*) 3. Yaxshining gapi moy, yomonning gapi loy. (*Maqol*) 4. Hosilning otasi suv, onasi yer. (*Maqol*) 5. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi shu. 6. Mardga o‘lim yo‘q. (*Maqol*) 7. Ozod yuraklarga baxt nuri to‘lgan. (*U.*)



Savol va topshiriqlar

1. Sodda gaplarda ega va ot kesim orasida nega tire qo‘yiladi?
2. Ot kesim kesimlik ko‘rsatkichisiz yoki bog‘lamasiz qo‘llanganda yozuvda tire qo‘yilishiga misollar ayting. Qaysi holda tire qo‘yilmaydi?
3. Ega yoki kesim harakat nomi bilan ifodalanganda yozuvda tire qo‘yilishiga misollar keltiring.
4. Ot kesim va ega orasida **ham** yordamchisi bo‘lsa tire qo‘yish kerakmi?


 **140-mashq.** *Uyga vazifa.* Kundalik matbuot nashrlaridan ot kesim va ega orasida tire qoʻllanishi va qoʻllanmasligiga 3 tadan misol yozing.


52-dars

MUSTAQIL VA NOMUSTAQIL KESIM SHAKLLARI

141-mashq. *1-topshiriq.* Kesimlaridan biri shart mayli shakli bilan ifodalangan qoʻshma gaplarni alohida-alohida qoʻllash mumkin boʻlgan ikki sodda gapga ajrating.

1. Yomgʻir yogʻsa, choʻllar yashnaydi. 2. Tuyogʻiga ursang, shoxi zirqiraydi. (*Maqol*) 3. Razm solsangiz, bu rasmda koʻp narsani koʻra olasiz. 4. Mehmonlar kelsa, biz ularni yaxshi kutib olamiz.

 *2-topshiriq.* Kesimi shart mayli shakli bilan ifodalangan gaplar alohida mustaqil gaplar sifatida qoʻllana olmasligi haqida xulosa chiqaring.

 **Bilib oling.** Tilimizda shart mayli shakli (istak gaplardagi bundan mustasno) **nomustaqil kesim** shaklini yasashga xizmat qiladi. Bunday kesimli gaplarning mustaqil ravishda qoʻllanilishi uchun maxsus nutqiy sharoit talab etiladi.


Shaxs-son va zamon shakllaridagi feʼl kesimlar hamda bogʻlamasiz va bogʻlamali ot kesimlar **mustaqil kesim**lardir.

142-mashq. Berilgan gaplardagi kesimlarning mustaqil yoki nomustaqilligiga koʻra turini ayting.

1. Qalb salomat boʻlsa, aql ham, fikr ham salomat boʻladi. (*S.A.*) 2. Agar shu koʻrganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar. 3. Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin. (*S.A.*) 4. Havo bulut boʻlsa ham, yomgʻir yogʻmadi. 5. Mehnat qilsang, baxting ochiladi. (*Sh.R.*) 6. Sen yigʻlasang, men ham qoʻshilib yigʻlab yuboraman. (*M.Ism.*)

Savol va topshiriqlar

1. Qanday kesimlar mustaqil kesim deyiladi?
2. Nomustaqil kesim qanday grammatik shaklda boʻladi? Misollar keltiring.
3. Qoʻshma gap tarkibidagi nomustaqil kesimli gapni sodda gap sifatida qoʻllash mumkinmi?

 **143-mashq.** *Uyga vazifa.* Nomustaqil kesim ishtirok etgan xalq maqollaridan beshtasini yozing.

EGA VA UNING IFODALANISHI

144-mashq. Berilgan gaplardagi kesimning shaxs-son qo'shimchalari asosida uning egasini toping.

1. Tez kunda sayohatga boramiz.
2. Bu yerda nima qilyapsiz?
3. Agar aslingga boqsang, dur-u daryoyi haqiqatsan. (*Mashrab*)
4. Nima qilsam ekan?



Zukkolariga topshiriq. Eganing gapdagi o'rni va vazifasi haqida umumlashma tuzishga harakat qiling.



Bilib oling. Gap kesimining qo'shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak **egadir**. Ega, asosan, **k i m? n i m a? q a y e r?** so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi, egalik va ko'plik shakllarini qabul qilishi mumkin.

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: **Aziz o'sha kitobni o'qidi. Milt-milt yonib turgan chiroq birozdan so'ng o'chdi.**
2. Olmosh bilan: **Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. (Maqol)**
3. Son bilan: **Ikkalasi ham chiqib ketishdi. (M. Ism.)**
4. Sifatdosh bilan: **O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar. (Maqol)**
5. Sifat bilan: **Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin. (Qo'shiqdan)**
6. Harakat nomi bilan: **O'qish jafoli, keti vafoli. (Maqol) Ish ishtaha ochar. (Maqol)**
7. Taqlid so'z bilan: **Qars ikki qo'ldan chiqadi. (Maqol)**

145-mashq. Sifat va sifatdoshlarning ega vazifasida qo'llanishiga misollar keltiring.


146-mashq. Ko'chiring. Gaplarning egalarini aniqlang. Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini ayting.

1. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz — do'stini. (*Maqol*)
2. O'lmas noxushlik bilan qovun pallasidagi non quyuqlariga qaradi. (*Y.Sh.*)

3. Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar. (*Maqol*) 4. Mastura Mashrabning ko‘zlariga qadalib qaradi. (*O.Y.*) 5. Yalqov bilan anqov — dushman uchun katta ov. (*Maqol*) 6. Kamtarlik kishiga zeb-u ziynatdir. (*Maqol*) 7. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar. (*Maqol*) 8. Qo‘shni xonadan qizlarning qahqahasi eshitildi. (*A.Q.*)

Savol va topshiriqlar


1. Gapning qanday bo‘lagi ega deb ataladi?
2. Ega qaysi kelishik shaklida bo‘ladi? O‘tning qaysi grammatik shakllarini qabul qilish mumkin?
3. Gap egasi qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi? Misollar keltiring.

 **147-mashq.** *Uyga vazifa.* Gaplarni ko‘chiring. Ega bo‘laklarni topib, tagiga chizing.


1. O‘lmas kechqurun juda horg‘in uyga qaytib keldi. (*Y.Sh.*) 2. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog‘in tishlar. (*Maqol*) 3. Yugurish sportning bir turidir. 4. U Toshkentda turadigan uzoqroq qarindoshlarining qizi edi. (*O.Y.*)


54-dars

EGALI VA EGA ISHTIROK ETMAGAN GAPLAR

 *1-topshiriq.* Quyidagi uch guruh gaplarni ko‘chiring, so‘ng bu gaplardan qaysilarini egasi ifodalangan gaplar, qaysilarini egasi yashiringan gaplar va qaysilarini egasiz gaplar deyish mumkinligini ayting.

1. Biz g‘alabaga erishdik.
G‘alabaga erishding.
G‘alabaga erisha oldi.
2. Manzilga mana shu yo‘ldan boriladi.
Manzilga mana shu yo‘ldan boradi.
Manzilga mana shu yo‘ldan bora oldi.
3. Men shu vazifani bajarishim mumkin.
Vazifani bajarishi mumkin.
Vazifani bajarish mumkin.

 **Bilib oling.** Sodda gaplar egali (shaxsli) va egasiz (shaxssiz) bo'lishi mumkin. Egasi mavjud bo'lgan gaplar **shaxsli gaplardir**, (masalan, **Biz bugun Samarqandga jo'naymiz.**), egasi mavjud bo'lmagan gaplar esa **shaxssiz gaplardir**. (Masalan, **Bugun Samarqandga jo'naladi.**) Birinchi gapda ega (**biz**) ishtirok etgan, ikkinchi gapda esa ega ishtirok etmagan, kesimdan ifodalangan ish-harakatning kim tomonidan bajarilishi ma'lum emas.

 **2-topshiriq.** Berilgan gaplaming kesimi orqali so'roq berib, egasini topishga harakat qiling. Ularning qaysi birlarida egani topish mumkin, qaysi birlarida egani topish mumkin emasligini ayting.

1. Shaftolizor bog'larni ko'rdim. (*H.O.*) 2. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. (*Maqol*) 3. Bugungi ishni ertaga qo'yma. (*Maqol*) 4. Nima eksang, shuni o'rasan. (*Maqol*) 5. Topshiriqni o'z vaqtida bajarish kerak. 6. Derazadan ko'chaga tikilaman. (*O'.H.*) 7. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. (*Maqol*) 8. Jo'jani kuzda sanaydilar. (*Maqol*)


148-mashq. Uchta egali gap tuzing, keyin ularni ega ishtirok etmagan gaplarga aylantiring.

149-mashq. Egasi ifodalangan gaplar tuzing. So'ngra ulardan egasi ifodalangan gaplar hosil qiling.

N a m u n a: *Musobaqada yutamiz. — Biz musobaqada yutamiz.*

Savol va topshiriqlar

1. Egali gaplarga misollar keltiring.
2. Qanday gaplar ega ishtirok etmagan gaplar deyiladi?
3. Ega ishtirok etmagan gaplar shaxs tushunchasi ifodalanishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Gapning egasi mavjud yoki mavjud emasligini qanday aniqlash mumkin? Misollar keltiring.

 **150-mashq.** *Uyga vazifa.* O'zbek xalq maqollaridan egali va ega ishtirok etmagan gaplarga 5 tadan misol yozing.

55-dars

EGASI YASHIRINGAN GAPLAR

151-mashq. Ikki guruhga ajratib berilgan gaplarni o'qing va guruhlarni qiyoslang. Har bir guruhda ega nima uchun tushirib qoldirilganligi sababini aniqlashga harakat qiling.

I. 1. Topshiriqni o'z vaqtida bajaring. 2. So'zimning ustidan chiqaman. 3. Yaqin kunlarda yakuniy test sinovlaridan o'tamiz. 4. Masalani yechdingizmi? — so'radi Tursunoy. 5. San-manga bormaylik, masalani odillik bilan hal etamiz.

II. 1. Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. (*Maqol*) 2. Sog'liq tilasang, ko'p yema. 3. Izzat tilasang, ko'p dema. 4. Yaxshilikni minnat uchun qilmaydilar. 5. Xonaga kirganda avval salom berishadi.



Bilib oling. Egasi yashiringan gaplar ikki turlidir:

1. **Egasi (shaxsi) ma'lum gaplar.** 2. **Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar.**

Egasi ma'lum gaplarda gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shaklida bo'ladi.

Egasi umumlashgan gaplarda gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi II va III shaxs shakllarida keladi: *Hurmat qilsang hurmat ko'rasan. Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir.* (*Maqol*) Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi.

152-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan egalarni tushirib o'qing. Kesimi majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gaplarda egani tushirish mumkin yoki mumkin emasligi haqida xulosa chiqaring.

1. Mana, uy ham qurildi, suv quvurlari o'tkazildi, elektrlashtirish va gazlashtirish ishlari bitkazildi. 2. Murojaat matni yozildi, imzolar chekildi: elektrostansiyani muddatidan 3 oy oldin ishga tushirish majburiyati bir ovozdan ma'qullandi. 3. Bir soat o'tar-o'tmas hovli supurildi, so'rida xontaxta va dasturxon tuzaldi, hovli yuziga suvlar sepildi, hovuz bo'yi, xontaxta ustiga ko'chma chiroqlar o'rnatildi. (*O.M.*)



Savol va topshiriqlar

1. Egasi yashiringan gaplar necha turli bo'ladi?
2. Egasi ma'lum gap deb qanday gapga aytiladi?
3. Qanday gaplar egasi umumlashgan gaplar hisoblanadi? Ularning kesimi qaysi shaxs shaklida bo'ladi?
4. Qanday gaplarda egani tushirish mumkin emas?



153-mashq. *Uyga vazifa.* Egasi yashiringan quyidagi gaplarni shaxsi ma'lum gap va shaxsi umumlashgan gaplarga ajratib yozing.

1. Sermanzara bog'ni tomosha qilib yurgan edim. 2. Bilmagan ishga urinma, urinib tuzoqqa ilinma. (*Maqol*) 3. Onalarimizni avaylaylik! 4. O'ylab qarasam, haq ekansiz. 5. Boshing osmonga yetgan bo'lsa ham, kallangni xam qil. (*Maqol*)

56-dars

EGA ISHTIROK ETMAGAN VA SHAXSI NOMA'LUM GAPLAR

154-mashq. Berilgan gap juftliklaridagi bir gapda ega ifodalangan yoki uni tiklash mumkin. Ikkinchisida esa egani tiklab bo'lmaydi. Sababini tushuntiring.

1. Vazifani bajarish kerak. Bu vazifani bajar. 2. Yo'lda ukam menga to'g'ri kelib qoldi. Yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelib qoldi. 3. Bugun to'garakka borishimiz lozim edi. To'garakka borish kerak. 4. Ertaga uchrashamizmi? Uchrashish kerak.



Bilib oling. Ega ishtirok etmagan gaplar *shaxsi noma'lum gaplar, atov gaplar, so'z-gaplar* kabi uch turga bo'linadi.

155-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan kesim shakllarini qo'llab, gaplar tuzing. Bu gaplarda qanday mazmun umumiyliги borligini aniqlashga harakat qiling.

Borish lozim, bajarish shart, qurish kerak, so'rash joiz, asramoq darkor, qilsa bo'ladi.



2-topshiriq. Yuqorida berilgan kesim shakllarini bo'lishsiz shaklda qo'llab, gaplar tuzing.

N a m u n a: *Topshiriqni bajarish shart.* — *O'ylamasdan berilgan topshiriqni bajarish shart emas.*



Bilib oling. Shaxsi noma'lum gaplarda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi — uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi.

156-mashq. Egasi ifodalangan gap tuzing. Shu gap asosida egasi yashiringan va ega ishtirok etmagan gap hosil qiling.

N a m u n a: *Biz dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga boramiz.* — *Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga boramiz.* — *Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga borish kerak.*

157-mashq. Shaxsi noma'lum gaplarni ajratib ko'chiring. Xususiyatini ayting.

1. Ko'ngilda armon qolmasin deb, chillayotin ham qildirishga to'g'ri keldi. (*A.Q.*) 2. Ko'p o'tmay tandirkabobni ochish marosimini boshlashdi. (*O. Hakimov*) 3. Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak. (*A.Q.*) 4. Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir. (*Maqol*)

Savol va topshiriqlar

1. Qanday gaplar ega ishtirok etmagan gaplar deyiladi?
2. Ega ishtirok etmagan gaplarning qanday turlari bor?
3. Shaxsi noma'lum gap deb nimaga aytiladi?
4. Shaxsi ma'lum gap bilan shaxsi noma'lum gapning asosiy farqi nimada? Fikringizni misollar bilan sharhlang.

158-mashq. *Uyga vazifa.* Shu kunlarda o'zingiz o'qiyotgan badiiy asardan shaxsi noma'lum gapga 3 ta misol topib yozing.

57-dars

ATOV GAPLAR

159-mashq. O'qing. Ajratilgan gaplar ko'z oldingizda nimani gavdalantirishini sharhlang.

1. **Bahor.** Kunlar iliqlashgan. Bodom qiyg'os gullagan. Yerdan binafsha-yu maysalar bosh ko'tarmoqda. 2. **Maktab.** Yoshligimning oltin davri shu dargohda o'tdi. 3. **Sentabrning boshlari edi.** Talabalikning ilk kunlari edi. Men, qishloqi yigit uchun Samarqandning gavjum ko'chalari bayram kunlaridagi sayilni eslatadi. 4. **Hamon yodimdadir: gul chog'irdi.** (*U., I. Sulton*) 5. **Amu-Buxoro kanali.** Qaqragan ming-ming gektar yerlarga hayot suvi olib kelgan qudratli inshoot.

Bilib oling. Atov gaplar so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalantirishga, uning xotirasi yoki xayolida ular bilan aloqador bo'lgan

voqea-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviriy vositadir. Atov gaplar, asosan, xabar maylining hozirgi-kelasi, ba'zan esa o'tgan zamon shakllaridagina keladi. Atov gaplar bitta so'zdan iborat bo'lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin.

Topshiriq. Muzeydan olgan taassurotlaringiz va quyida berilgan rasm asosida «Temuriylar tarixi davlat muzeyida» sarlavhali matn tuzing. Unda atov gaplardan foydalaning.



160-mashq. Xotirangizda qolgan diqqatga sazovor biror voqea-hodisa asosida atov gaplar qo'llangan matn tuzing. Taxminiy mavzular: «**Ta'tilda**», «**Otamning kasbi**», «**Men yosh bola edim**», «**Non**», «**Ona shahrim**», «**Bir qultum suv**», «**Anor**».

161-mashq. Atov gaplarni ajratib ko'chiring. Uning nechta so'z, qanday birikmadan tashkil topganligini ayting.

1. Yam-yashil o'tov. Hulkar bu yerga kelsa qanday quvonadi. (*P.Q.*) 2. Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi. (*O'.H.*) 3. Hovli zim-ziyo. Ariqdagi suv shaldirab oqadi. (*H.G'*) 4. Urush... Oynisa ayvon ustuniga suyanganicha qotib qoldi. (*H.G'*) 5. Qo'shiq. San'atning bu turini sevmagan kim bor? 6. Uchrashuv. Mehmonlar hamma bilan quchoqlashib ko'rishdilar. (*O.Hakimov*) 7. Mehnat. Mehnatning tagi rohat. 8. Hunar. Hunardan rizqing unar. (*Maqol*)

Savol va topshiriqlar

1. Atov gaplarga tavsif bering: nima uchun ular atov gaplar deyiladi, gap (matn)da qanday vazifani bajaradi?
2. Atov gaplar qanday zamon shakllarida keladi?
3. Atov gaplar necha so'zdan iborat bo'ladi?



162-mashq. *Uyga vazifa.* Badiiy asarlardan atov gaplarning qo'llanilishiga 3–4 ta misol yozing.

58-dars

SO'Z-GAPLAR

163-mashq. Berilgan nutq parchasidagi ajratilgan so'z-gaplarning ma'no turlarini aniqlang.

- Sog'lig'ingiz yaxshimi?
- **Rahmat.** Tuzukman.
- Ertalab uchrashamiz-da...
- **Albatta.** Bekatda. Soat 8 da.
- Qabulga birga kiramizmi?
- **Yo'q.** Avval Siz kiring.
- **Bo'пти.** Ma'qul.
- **Oh-o!** Savollaringiz tugamaydi-ku. Mayli, **marhamat.**



Bilib oling. Bir so'zdan iborat bo'lib, tarkibga ajralmaydigan, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega bo'lmagan gaplar **so'z-gaplar** deyiladi. Ular tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, matn bilan bog'liq bo'ladi. So'z-gaplar, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarni ifoda etgani uchun ham ko'proq dialogik va ba'zan monologik nutqqa xosdir. Masalan:

- *Endi so'zingizdan aynamang, xo'pmi?*
- **Mayli,** — *dedi Fazliddin. (O.)*
- **Yo'q,** — *dedi Otabek, lekin uning taajjubi uy egasiga ochiq ko'rinib turar edi. (A. Qod.)*

Yo'lchi eshikchani ochib kirdi:

- **Assalomu alaykum, hormang, ota! (O.)**

Kishilar o'rtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir so'z yoki ibora (birlik)lar so'z-gaplar vazifasida qo'llanadigan bo'lib qolgan: *assalomu alaykum, yoqimli ishtaha, marhamat, salomat bo'ling, qulluq, osh bo'lsin, yaxshi boring, xush ko'rdik, labbay, jonim bilan, bajonidil* kabi.


164-mashq. O'qing. So'z-gaplarning ifodalayotgan ma'nosini tushuntirib bering.

1. — Mashinachingiz menga yoqmadi, kaketkani o'xshatolmas ekan. Boshqasini topamiz. — Xo'p. (*H.G'*) 2. — Teshavoy, soy bo'yida kutib turmoqchimisiz? — Ha. (*H.G'*) 3. — Yuqoridan biron nima olib kelishlarini aytdim. — Rahmat. Odamlarni chaqirtirdingizmi? 4. M a r a s u l: ...Men sizni doktor qilaman, akademik qilaman! N a s i b a (*kulimsirab*): Rostmi? (*A.Q.*)

 **165-mashq.** Ha, xo'sh, bajonidil, rost, yo'q, mayli so'zlarini qo'llab, dialogik matn tuzing.


 **Savol va topshiriqlar**

1. Qanday gaplar so'z-gaplar deyiladi?
2. So'z-gaplar qanday ma'no munosabatlarni ifoda etadi?
3. So'z-gaplar dialogik nutqda qanday vazifa bajaradi? Misollar keltiring.

 **166-mashq.** Uyg'a vazifa. Oilangiz a'zolarining suhbat nutqini kuzating va so'z-gaplar ko'proq ishlatilgan bir parchasini yozib oling. So'z-gaplarning nutqiy ixchamlikdagi ahamiyati haqida fikrlaringizni yozing.

59-dars

YOYIQ ATOV VA SO'Z-GAPLAR

 **Bilib oling.** Atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan bermalol kengayadi. Atov gap kengaygan harakat nomi birikmalari bilan ham ifodalanishi mumkin. So'z-gaplarning kengayishi o'ta chegaralangan: *Ajoyib so'lim bir bahor!* (*S.Nazar*)

Ba'zan so'z-gaplar takrorlanib qo'llanadi:

Ergash tushunmadi:

- **Nima-nima?** — dedi ko'zini katta ochib.
- **Biror gap eshitdingizmi?** — so'radi Jo'raxon.
- **Yo'q-yo'q!** (*As.M.*)

167-mashq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Yoyiq atov gaplar va so'z-gaplarni aniqlab, matndagi vazifasini izohlang.

- Qani, ayt-chi, darsni tinglamay nimani o'ylayotgan eding?
- Xokkeyni.
- Yana xokkey! Hovlida ham xokkey, darsda ham...

Butun sinf jimjit. Bolalar goh Akramga qarashadi, goh Muhabbat opaga. Ularning orasida bo'lib o'tayotgan gap har kuni o'qituvchi bilan o'quvchi orasida bo'lib turadigan oddiy savol-javob emas-

ligini hamma sezib o'tiribdi. Akram Muhabbat opaga faqat o'quvchi emas, balki uning o'g'li, farzandi. Nahotki, u onasini butun sinf oldida uyatga qoldirsa?

— Meni kechiring, — dedi Akram ovozi titrab. — Ikkinchi bunday qilmayman!

— Xo'p... Qani, Malika, masalani Akramga tushuntirib berchi!

Sochlariga pushtirang kapron lenta taqqan Malika tez o'rnidan turdi. Yirik-yirik ko'zlarini Akramga tikib, baland tovush bilan dona-dona qilib gapirdi.

(P. Qodirov)

Savol va topshiriqlar

1. Atov gaplarning kengayishi nimalar hisobiga bo'ladi? Ular nega yoyiq holda qo'llanadi?
2. So'z-gaplar kengayishi (ya'ni yoyiq bo'lishi) mumkinmi?
3. So'z-gaplarning takrorlanishi qaysi maqsadda yuz beradi? Misollar keltiring.

168-mashq. Uyg'a vazifa. Gaplarni ko'chiring. Yoyiq atov gaplarning tagiga chizing.


1. Subhidam. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi. (P.Q.)
2. May. Kunduz soat to'rtlar chamasi. Yangi shahar ko'chalari. Ilk bahor shabadasi yoqimli esadi. (H.G')

60-dars

MUSTAHKAMLASH DARSII

Mustahkamlash uchun savollar

1. Gapning ega bo'lagi qaysi kelishik shaklida bo'ladi? U qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanadi?
2. Qanday gaplar ega ishtirok etmagan gaplar deyiladi?
3. Egasi yashiringan gaplarning turlari nechta? Ularni ayting va misollar keltiring.
4. Ega ishtirok etmagan gaplarning turlari qaysilar? Nomlarini ayting va misollar keltiring.
5. Qanday gaplar shaxsi noma'lum gaplar hisoblanadi?
6. Atov gap bilan so'z-gapning farqi nimada?
7. Atov gaplar qaysi bo'laklar hisobiga kengayishi mumkin?

 1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing, mazmunini aytib bering. Matndan ega ishtirok etgan gaplarni ajratib ko'chiring.

Osmonda chaqmoq lip-lip qila boshladi. Sal o'tmay moma-qaldiroq ustma-ust gumburlashga tushdi.

Shu payt darvozadan oyog'iga oq keta kiygan, yelkasiga yashil ryukzak osgan boshyalang o'smir bola kirib keldi.

— Assalom, momo!

— Kim? Akrammisan? Voy dardginangni olay! Men yana seni tanimabman! Har kelganingda bir boshqa bo'lasan!

Ko'p kasal bo'lib xiyol munkayib qolgan Oyxol momo Akramni quchoqlab bag'riga bosdi. Shunda u nevarasining bo'yi o'sib, momosidan ancha baland bo'lib qolganini sezdi. Ovozi ham yo'g'onlasha boshlagan, faqat qomati hali ingichka.

— Voy, bo'yginangdan momong aylansin, kim bilan kelding?

— O'zim.


— Iye, dadang qani?


— Bu yil dadamning ishlari ko'payib ketdi.


— Oying-chi? — deb Oyxol momo darvoza tomonga alanglab qaradi.


— Oyim ham sizga salom aytib yubordilar...

(P. Qodirov)

 **2-topshiriq.** Matndagi ega ishtirok etmagan gaplarni «Shaxsi noma'lum gaplar va so'z-gap»ga guruhlab yozing.

 **3-topshiriq.** Matndagi egasi yashiringan gaplarni «Shaxsi ma'lum gaplar» va «Shaxsi umumlashgan gaplar»ga ajratib ko'chiring.

 **4-topshiriq.** Matndan atov gaplar va so'z-gaplarni topib, ajratib yozing.

 **5-topshiriq. Uyg'a vazifa.** Berilganlardan ega ishtirok etmagan gaplarni topib ko'chiring. Kesimning qanday shakllanganiga e'tibor bering. Ularni nima uchun shaxssiz gap deyilishini tushuntiring.

1. O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasin. 2. Tarbiyachi va o'qituvchi bo'lish uchun chidam bilan o'qiladi. 3. O'zinigina o'ylovchi kishini yaxshi odam deb bo'lmaydi. 4. Yangi binolar qishloqlarning husniga husn qo'shmoqda. 5. Uquvi yo'q har qadamda qoqiladi. (*Maqol*) 6. Bu yerda chekilmaydi.

61–62-darstar

YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

63-dars

SODDA YIG'IQ VA SODDA YOYIQ GAPLAR

1-topshiriq. Berilgan gaplarda qanday bo'laklar qatnashganligini aniqlab, tegishli belgilarini qo'ying.

1. Men o'qidim. 2. Sen yozding. 3. U chizdi. 4. Biz cho'mildik.
5. Sizlar yugurdingiz. 6. Ular keldilar.

Esga oling. Faqat ega va kesimdan iborat bo'lgan gap sodda yig'iq gap hisoblanadi.

2-topshiriq. Yuqoridagi sodda yig'iq gaplarning kesimidan so'roq berib, shu gaplarni kengaytiring.

N a m u n a: *Men o'qidim* (n i m a n i o'qidim?) — *Men kitobni o'qidim* (q a c h o n o'qidim?) — *Men kitobni kecha o'qidim.*

Esga oling. Ega va kesimdan boshqa bo'laklar bilan kengaygan gap sodda yoyiq gap deyiladi.

169-mashq. Berilgan uch topshiriqli namunani diqqat bilan o'rganing. So'ngra topshiriqlarni o'z misollaringiz asosida bajaring.

1-topshiriq. Yoyiq gap tuzing.

N a m u n a: *O'zbekistonda 21-martda Navro'z bayrami shod-xurramlik bilan nishonlanadi.*

2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli so'z birikmalariga ajrating.

N a m u n a: 1) *O'zbekistonda nishonlanadi* (h.b.); 2) *21-martda* (a.b.); 3) *Navro'z bayrami* (a.b.); 4) *bayrami nishonlanadi* (ega-kesim); 5) *shod-xurramlik bilan nishonlanadi* (h.b.).

3-topshiriq. Gap bo'laklarining bir-biriga tobelanishini shartli belgilar bilan chizmada ko'rsating.

N a m u n a: *O'zbekistonda (qayerda?) nishonlanadi*

21-(nechanchi?) marta nishonlanadi

bayrami (nima?) nishonlanadi

Navro'z (qanday?) bayrami nishonlanadi
shod-xurramlik bilan (qay tarzda?) nishonlanadi

170-mashq. Chizma asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Gapning qaysi bo'lagi boshqa biror bo'lakka tobelanmaydi?
2. Aniqlovchi kesim bilan bevosita bog'lanadimi yoki bilvositami (ya'ni boshqa bir bo'lak orqalimi)? Egaga-chi?
3. To'ldiruvchi va hollar qaysi bo'lakka tobelanadi?



171-mashq. O'zingiz tuzgan sodda yoyiq gaplardagi gap bo'laklarini, ularning gapdagi o'rni va qanday so'z turkumlari bilan ifodalanganligini izohlang.



Bilib oling. Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan bo'laklar **ikkinchi darajali bo'laklardir**. Ikkinchi darajali bo'laklar uch turli: bular **aniqlovchi**, **to'ldiruvchi** va **hollardir**. Ular fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid so'zlar, olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollar gapni, uning ayrim bo'laklarini kengaytirishga, aniqlashga xizmat qiladi. Gap tarkibida ikkinchi darajali bo'laklardan birontasi ishtirok etsa, bunday gap **yoyiq gap** hisoblanadi.

172-mashq. Matnni o'qing, unda qanday g'oya ilgari surilganligini ayting. So'ng sodda yoyiq gaplarni ko'chirib, ikkinchi darajali bo'laklarini belgilang.

IKKI XIL YORDAM

Bir xotin sabzavotlar solingan og'ir to'r xaltasini ko'tarib kelayotgandi.

Orqada ketma-ket ikki bola, ularning ketidan bir chol kelmoqda edi. Bir mahal to'r xaltadan bir kartoshka tushib dumalab ketdi.

— Xola, kartoshkangiz tushdi, — deb birinchi bola o'tib ketaverdi.


Ikkinchi bola hech narsa demadi-yu, yerdagi kartoshkani olib, to'r xaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

— Baraka top, bolam, — dedi.

(H. Murodov)

 **Savol va topshiriqlar**

1. Qanday gaplar sodda yoyiq gaplar hisoblanadi?
2. To'ldiruvchi, aniqlovchi va hol nega ikkinchi darajali bo'laklar deyiladi? Ularning gapdagi xizmati nimada?

 **173-mashq.** Uyg'a vazifa. Ko'l bo'yida qurib qolgan kattakon bir archaning g'oyalasi ag'anab yotibdi (P. Q.) gapidagi bo'laklarni aniqlang.

Eslatma. Tahlilda gap bo'laklari quyidagi shartli belgilar asosida ko'rsatiladi:

1. Kesim — ikki chiziq (=====).
2. Ega — bir chiziq (———).
3. Hol — davomli nuqta (.....).
4. To'ldiruvchi — uziq chiziq (-----).
5. Aniqlovchi — to'lqinli chiziq (~~~~~).


IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR


64-dars


HOL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

174-mashq. *1-topshiriq.* Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'lib, qaysi gap bo'lagiga tobelanib kelayotganligini aniqlang.

1. Nodonga **yuz** aysang ham, befoyda. 2. **Kechqurun** salqin bo'ldi, **ertalab** shudring tushdi. (*S.A.*) 3. **To'g'ri** yursang, murodingga **oson** yetarsan. 4. **Bunda** bor harorat, muhabbat, shafqat. (*G'G'*) 5. Shamol **g'ir-g'ir** esardi. 6. **Hozir** maktab o'quvchisiman, **kelasi yil** talaba bo'laman.

 **Bilib oling.** Hol ko'proq gap markazi — kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Hollar **qanday? qanday qilib? qay tarzda? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? nega? nima uchun? qancha?** kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

 *2-topshiriq.* Yuqoridagi gaplarda qo'llangan hol bo'laklar qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanganligini aniqlang.

 **Bilib oling.** Hollar ravish so'zlar bilan, kelishik shaklidagi va ko'makchili otlar bilan, sifat, son, taqlid so'z va undovlar bilan, fe'lning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin.

Hollar sodda (bir so'zdan iborat) va murakkab (ikki va undan ortiq so'zdan iborat) tuzilishga ega bo'ladi.

175-mashq. Gaplardagi ajratilgan murakkab hollarni mashqdan so'ng berilgan jadvalga tushiring.

1. Ayol **sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq** ko'chaga otildi. (*S.Karomatov*) 2. Tursunali **bir-bir bosib** minbarga chiqdi va **dona-dona** gapirdi. U vazifaning muhimligini **takror-takror** ta'kidladi. 3. O'g'lining to'yini ko'rolmadi bechora, dunyodan **ko'zi ochiq** ketdi. 4. **Urush boshlanganda** u hali ko'krakdan ajralmagan go'dak edi. 5. Tiniq suvdan **hovuch-hovuch** oldi, **qonib-qonib** ichdi. 6. Shodmonbek zarbdan **ko'zi**

tinib, hushdan ketdi. 7. **Sharifa bilan Nasiba arazlashganda** Durdona ularni yarashtirib qo‘ydi.

Murakkab hollarning ifodalanishi

Takror so‘zlar bilan	So‘z birikmasi bilan	Iboralar bilan	Kengaygan birikmalar bilan
....

? Savol va topshiriqlar

1. Gapning qanday bo‘lagi hol deyiladi?
2. Hollar gapda, ko‘pincha, qaysi bo‘lak bilan munosabatga kirishadi? Misollar keltiring.
3. Hollar qaysi turkum so‘zlari bilan ifodalanishi mumkin?
4. Hollar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
5. Qanday hollar murakkab hollar hisoblanadi?

176-mashq. Uyga vazifa. Yozma manbalardan hol ishtirok etgan 3 ta gap yozing. Ularning qaysi turkum so‘zlari bilan ifodalanganligini aniqlang.

65-dars

PAYT VA O‘RIN HOLI

177-mashq. Gaplarni o‘qing. Kesimga bog‘lanib ish-harakatning bajarilish payti yoki o‘mi ma‘nosini bildirayotgan bo‘laklarni aniqlang. Ularning qanday so‘roqqa javob bo‘layotganligini ayting.

1. Uy ichida odam ko‘p edi. (*O‘.H.*) 2. Po‘latjon juda erta, hammadan oldin uyg‘ondi. (*Oydin*) 3. Tevarakda gala-gala chumchuqlar to‘xtovsiz chirqillashadi. (*O.*) 4. Sal o‘tmay Shirinoy daladan qaytib keldi. (*O.Y.*) 5. Bunda qurtlar ipak to‘qiydi. (*H.O.*) 6. Ota yuz-qo‘llarini yuvgandan so‘ng sal nariga borib o‘tirdi. (*H.*)

Bilib oling. Ish-harakatning o‘rnini bildirib, **q a y e r g a? q a y e r d a n? q a y e r d a?** kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘lgan bo‘lak **o‘ r i n h o l i** deyiladi.

O‘rin holi o‘zi ergashgan so‘zga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. O‘rin holi makon-zamon (jo‘nalish, o‘rin-payt,


chiqish) kelishiklaridagi soʻzlar yoki koʻmakchili otlar va oʻrin ravishlari bilan ifodalanadi. Misollar: *Poyezd bizni Toshkentda qoldirib, Moskvaga yoʻl oldi. Shu yerdan boshlanur daryo va quyosh.*

Ish-harakat yoki holatning paytini bildirib, **q a c h o n?** **q a c h o n g a c h a?** **q a c h o n d a n b e r i?** **q a y v a q t?** kabi soʻroqlarga javob boʻlgan hol **p a y t h o l i** deyiladi. Masalan: *Bugun poytaxt mardlar shaʼniga Bir ming toʻpdan yoʻlladi salom. (Gʻ.Gʻ.) Har yili 1-sentabrda mustaqillik kuni keng nishonlanadi.*

Payt holi koʻpincha ot yoki payt ravishi bilan, shuningdek, son birikmalari bilan ifodalanadi. *Bundan besh yil ilgari, oʻsha kundan beri, shu yildan boshlab* shaklidagi soʻz birikmalari ham gapda birgina payt holi sanaladi.


178-mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi soʻroqqa javob boʻladigan oʻrin yoki payt holi topib koʻchiring.

1. ... (q a y e r g a?) mehmon kelganda, butun oila aʼzolari issiq kutib olishlari lozim. 2. 8-sinf oʻquvchisi ... (q a c h o n?) uyqudan turishga odatlansin. 3. ... (q a y e r d a n?) chiqayotib, avval kattalarga yoʻl bering. 4. Siz ... (q a c h o n?) yotish oldidan ... (q a y e r d a?) sayr qilib keling. 5. ... (q a y e r d a?) ketaturib, non yoki meva-cheva yeb boʻlmaydi. 6 ... (q a y e r g a?) oʻqituvchidan oldin kirishga odatlaning. 7. ... (q a y e r d a?) har doim oʻng tomondan yuring.

 **179-mashq.** Kecha yoki bugun (shu darsdan oldin) sinfingizda boʻlgan bir soatlik darsdagi voqealarni xotirlab, bayon yozing, soʻng unda oʻzingiz qoʻllagan oʻrin va payt hollarini belgilang. Qaysi turkum soʻzi bilan ifodalanganligini ayting.

Savol va topshiriqlar

1. *Gapning qanday boʻlagi payt holi deyiladi? Ular qanday soʻroqlarga javob boʻladi?*
2. *Payt hollari qaysi turkum soʻzlari orqali ifodalanadi? Misollar keltiring.*
3. *Oʻrin holiga tavsif bering. U qanday soʻroqlarga javob boʻladi, qaysi turkum soʻzlari bilan ifodalanadi?*

 **180-mashq.** *Uyga vazifa.* Qishlogʻingiz (shahringiz)dagi soʻnggi oʻzgarishlar yoki yangiliklarni tasvirlovchi matn tuzing. Undagi oʻrin va payt hollarini aniqlab, tagiga chizing.

RAVISH VA DARAJA-MIQDOR HOLI

1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Kesimga bog'lanib ish-harakatning bajarilish holati, tarzi yoki daraja-miqdorini bildirayotgan bo'laklarni aniqlang. Ularning qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting.

1. U o'ychan ko'zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi. (*S.Nazar*) 2. Ko'p so'zlama, oz so'zla, oz so'zlasang ham, soz so'zla. (*Maqol*) 3. Hozirgacha g'o'za uch marta chopiq qilindi. (*Gazetadan*) 4. Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig'laganicha narigi uyga kirib ketdi. (*A.Q.*) 5. Yig'lab-yig'lab marza olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan. (*Maqol*) 6. Umringda necha marta asal yegansan? (*A.Q.*)

Bilib oling. Ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, **q a n d a y? q a n d a y q i l i b? q a n d a y a h v o l d a?** kabi so'roqlarga javob bo'lgan hol **ravish holi** deyiladi. Misollar: «*Lasetti*» yangi asfalt yo'lda tez yurib ketdi. *Shoir shamning uchini avaylab kesdi. Siz indamay o'tirar edingiz.*

Ravish holi ravish, fe'l va ko'makchili otlar bilan ifodalanadi.

Ravish holi kesimga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Demak, u ko'pincha, o'zi ergashgan so'zdan oldin keladi.

Ish-harakatning miqdori va darajasini bildirib, **q a n c h a? n e c h t a? n e c h a m a r t a? q a y d a - r a j a d a?** so'roqlaridan biriga javob bo'lgan hol **daraja-miqdor holi** deyiladi.

Daraja-miqdor hollari sonlar, miqdor ravishlari, **marta** so'zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi: *Paxta to'g'risida ko'p yozdi.* (*A.Q.*) *Shu gapni besh marta takrorladi.*

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplarda ish-harakatning bajarilish holati, tarzi va daraja-miqdorini bildirib kelgan bo'laklarning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlang.

181-mashq. O'qing, nuqtalar o'rniga ravish holini qo'yib ko'chiring.

Ota ularning istiqboliga ... chiqdi. Kelganlar orasida endigina frontdan qaytgan Boboqul aka ham bor. U hassa tayanib, ... kirib keldi. Nurxonbobo ko'rpacha yozib, ularni ayvonga taklif qildi. Mehmonlar ... ko'rinardi. Ularning yuzlarida odatdagi tabas-

sumdan asar ham qolmagan. Hammasining ko'ngli ... ko'rinardi. Ular ... o'tirib, tevarak-atrofga ... qarab qo'yardilar.

(Y. Sh.)



182-mashq. Bir do'stingiz (dugonangiz)ning tashqi ko'rinishi va xulq-atvorini tasvirlovchi kichik matn tuzing. So'ng unda qo'llangan ravish holi va daraja-miqdor hollarini belgilang, qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanganligini ayting.



Savol va topshiriqlar

1. Gapning qanday bo'lagi ravish holi deyiladi? U gapda qaysi so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Daraja-miqdor holiga tavsif bering. U gapda qanday bo'lak bilan munosabatga kirishadi va qanday ma'nalarni ifodalaydi?
3. Daraja-miqdor hollari qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi? Misollar keltiring.



183-mashq. Uyga vazifa. «Adabiyot» darsligingizdan bir she'riy asarni tanlang. Undagi ravish hollari qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing.

67-dars

SABAB VA MAQSAD HOLI

184-mashq. Gaplarni o'qing. Kesimga bog'lanib ish-harakatning bajarilish sababi yoki maqsadini bildirayotgan bo'laklarni aniqlang. Ularning qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting.

1. Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi. (*As. M.*) 2. Hammamiz ham umid bilan mehnat qildik, rohatini ham ko'raylik. (*O.*) 3. Eshik oldi gul hovuz, Gul tergali kelganmiz. (*Qo'shiqdan*) 4. Salima darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo'ldi. (*Gazetadan*) 5. O'quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi. 6. Boshqa hech narsasi yo'qligi uchun bitta-yu bitta ho'kizini berib yubordi. (*O.*)



Bilib oling. Ish-harakatning sababini bildirib, *n i m a g a ? n i m a u c h u n ? n i m a s a b a b d a n ? n i m a s a b a b l i ?* kabi so'roqlarga javob bo'lgan hol *s a b a b h o l i* deyiladi. Misollar: **Tinchlik tufayli yurt obod. Yaxshi o'qigani uchun u mukofotlandi. Qul Tarlon shodligidan To'xtolmadi yig'idan.** (*H.O.*)

Sabab holi **-lik, -sizlik** qo'shimchali otlar, **-gani** qo'shimchali ravishdoshlar va **sababli, uchun** ko'makchili qurilmalar bilan ifodalanadi.

Ish-harakatning maqsadini bildirib, *n i m a u c h u n ? n i m a m a q s a d d a ? n i m a q i l g a n i ?* kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol **m a q s a d h o l i** deyiladi.

Misollar: *Qoratoy do‘stining dov-daragini surishtirish uchun yelib-yugurdi. (O.) Bolalar o‘ynab kelgani ko‘chaga chiqib ketdi. (O.)*

Maqsad holi maqsad ravishdoshlaridan, ot yoki fe‘llardan keyin *uchun, deb, maqsadida, maqsadi bilan* kabi so‘zlarni keltirish orqali, shuningdek, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgan harakat nomlari orqali ifodalanadi.



185-mashq. Bir kunlik faoliyatingiz tartibi haqida axborot matni tuzing. Unda kundalik faoliyatingiz nega shunday va qanday maqsadlarni ko‘zlashingizni ham bayon qiling. So‘ng tuzgan matningizdagi sabab holi va maqsad hollarini topib, qaysi bo‘lakka bog‘lanib kelayotganligini ayting.

186-mashq. Gaplarni o‘qing. Sabab va maqsad hollarini ajrating. Farqlari va ifodalanishini tushuntiring.

1. Bog‘dan chiqish uchun bir necha odim yurgach, ishkombir ichida suyanib turgan qizga ko‘zi tushdi; uyalganidan bir zumda qizarib-bo‘zarib ketdi, ketmonga tikilib qadamini tezlatdi. (O.)

2. U qasddan Suqsuroyni xonga olib berdi. (A.Eshonov) 3. Bir chimdim uxlash uchun ko‘zini yumdi. (O.) 4. Ertalab atayin Sizni izlab kelgan edim. (S.Nurov) 5. Bugun jo‘rttaga qilganday yomg‘ir ham tinmadi. ...Oling, ataylab siz uchun qildim. (S.Zunnunova) 6. Muzaffar aka, bular atayin sizni izlab kelibdi. (P.Q)



Savol va topshiriqlar

1. *Gapning qanday bo‘lagi sabab holi deyiladi? U qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi, ot va sifatdoshning qaysi shakllarida ifodalanadi?*
2. *Maqsad holiga tavsif bering. Qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi va qaysi turkum so‘zlari orqali ifodalanishini ayting.*
3. *Sabab hamda maqsad holi gapning qaysi bo‘lagi bilan munosabatda bo‘ladi va qanday ma‘nolarni anglatadi?*



187-mashq. *Uyga vazifa.* Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz? Shu haqda fikrlaringizni yozing. Yuzaga kelgan matndagi sabab va maqsad hollarini belgilang.

MUSTAHKAMLASH DARSI

Mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday gaplar sodda yoyiq gaplar hisoblanadi?
2. Ikkinchi darajali bo'laklarning xizmati nimada?
3. Hol qanday bo'lak? Uning asosiy ma'no turlari qaysilar?
4. Murakkab hollar deb qanday hol bo'laklariga aytiladi?

1-topshiriq. «Holning asosiy ma'no turlari» jadvalini daftaringizga ko'chiring.

Holning asosiy ma'no turlari

1.	Payt holi	qachon? qay vaqtda? qachongacha? qachondan beri?	Tunda sovuq, ertalab tuman, tushda issiq, namozgar yomg'ir, hozir yulduzlar charaqlab turgan oydin kecha.
2.	O'rin holi	qayerda? qayerdan? qayerga? qayergacha?	Oilada osoyishtalik, hayotda farovonlik, dunyoda tinchlik bo'lsin.
3.	Ravish holi	qanday? qay tarzda? qanday qilib?	Bola epchillik bilan turdi, qisqa va lo'nda javob berdi. Mardlarcha kurashdi. Botirlarcha harakat qildi. Senday yashamayman. Pastkashlardekyalinmayman.
4.	Darajamiqdor holi	qancha? nechog'lik? necha marta?	Kam de, oz ye — ko'p yashaysan. Guruchni qopi bilan olishdi. Qirq marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi.
5.	Sabab holi	nega? nima sababdan? kim sababli? nima uchun?	Quvvatsizligidan tez charchardi. Go'lligi sababli har joyda kaltakyeydi. Arzimagan narsa uchun janjal ko'tarardi.
6.	Maqsad holi	nega? nima uchun? qay maqsadda?	Hammani kuldirish uchun ataylab shunday antiqa kiyindi.

2-topshiriq. Holning har bir ma'no turiga 2 tadan misol yozing. Holning tepasiga so'rog'ini ko'rsating.


3-topshiriq. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linib, ravish holiga berilgan vaqt ichida (o'qituvchi 3–5 daqiqa vaqt beradi) kim ko'p misol (gap holida) topish musobaqasini tashkil eting.

4-topshiriq. Uyg'a vazifa. Yozma manbalardan holning har bir turiga bittadan gap yozing.


YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI


71-dars

TO‘LDIRUVCHI HAQIDA UMUMIY MA‘LUMOT

 **1-topshiriq.** Ajratib ko‘rsatilgan gap bo‘laklarining so‘rog‘ini va qaysi gap bo‘lagi bilan bog‘lanib kelayotganligini ayting.

1. **Elga** el qo‘shilsa — davlat, **eldan** el ketsa mehnat. (*Maqol*)
2. U **Ikromjonni** frontga ana shunday kuzatib qolgan edi. (*S.A.*)
3. Bu **kitobni ukam uchun** oldim. 4. **Yaxshini** maqtasang yarashur, **yomonni** maqtasang adashur. (*Maqol*) 5. **Ko‘rganni** eshitgan yengibdi. (*Maqol*) 6. **Qiy-chuv bilan ularni** yengib bo‘lmaydi. 7. **Birni** birov beradi, **ko‘pni** — mehnat. (*Maqol*)

 **2-topshiriq.** Shu gap bo‘laklarining qaysi turkum so‘zlari bilan ifodalalanayotganligini aniqlang.

 **Bilib oling.** Gapning biror bo‘lagiga (ko‘pincha kesimga) boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanib, uni to‘ldirib kelgan ikkinchi darajali bo‘lak **to‘ldiruvchi** deyiladi. Masalan: *Omon menga qaradi, men unga qaradim. (G‘.G‘.) Vodiylarni, tog‘larni oshib, Dalalarda yolg‘iz adashib, kelib qoldi yurtingga Omon. (H.O.) Sizga nima bo‘ldi o‘zi? (O.Y.)*

To‘ldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Dilshod maktubni xolasiga berib, ko‘chaga chiqib ketdi. (M.Ism.) Mansurov odamlar bilan xayrlashdi.*
2. Otlashgan sifat bilan: *Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas. (Maqol)*
3. Otlashgan son bilan: *Beshni beshga qo‘shsak, o‘n bo‘ladi.*
4. Sifatdosh bilan: *Bilmagandan bilgan yaxshi, to‘g‘ri ishni qilgan yaxshi. (Maqol)*
5. Harakat nomi bilan: *Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.*
6. Taqlid so‘z bilan: *Taqir-tuquringni yig‘ishtir.*
7. Modal so‘z bilan: *Yo‘qni yo‘q deydi, borni bor deydi.*

To‘ldiruvchilar, boshqa gap bo‘laklari kabi, birikmali holda ham qo‘llanadi: *Men uning go‘zal siymosida qalbim ko‘zgasini, visol orzusini, umidim gulshanini ko‘rardim. (M. Qoriyev)*

O'qituvchining pedagogik mahorati u tarbiyalagan shogirdlarining bilimdonligi bilan o'lchanadi. O'qituvchida zilol chashmadek tunganmas mehr va bilim bo'lmog'i kerakligini unutmag. Voris hammaning ertaga ovga jo'nashini aytdi. (O.M.)

To'ldiruvchilar yordamida aytilmoqchi bo'lgan fikr ravshanlashadi: *Oyni (etak bilan) yopib bo'lmas. (Maqol) Odam (mehnatda) sinaladi.* Bu gaplardagi *etak bilan, mehnatda* bo'laklari yordamida so'zlovchining niyati to'la ochilgan.



188-mashq. To'rtliklardagi to'ldiruvchilarni topib, jadvaldagidek izohlang.

Yana atadim she'r, azizim ustoz,
Sizni desam, tanda jo'shar hayajon.
Quyoshga yetguncha yozsam-da, oz-oz,
Sizga muhabbatim dilda bir jahon! (T. Rajabiy)

* * *

Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,
Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,
Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi —
Yurak qo'ri bilan toshni eritar. (T. Yo'ldosh)

To'ldiruvchi	So'rog'i	Ifodalanishi	Qaysi bo'lak (so'z) bilan bog'langanligi
1. she'r(ni)	nimani?	ot bilan	atadim
2.

189-mashq. Rasmdan foydalanib, «Bobomdan tanbeh eshitdim» mavzusida matn tuzing. So'ng matndagi to'ldiruvchilarni aniqlang.



? Savol va topshiriqlar

1. Gapning qanday bo'lagiga to'ldiruvchi deyiladi?
2. To'ldiruvchilar qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi? Misollar keltiring.
3. To'ldiruvchilarning gapdagi vazifasi haqida gapiring.
4. To'ldiruvchilar ko'proq qaysi bo'lakka bog'lanib keladi?

190-mashq. Uyga vazifa. Radiodan taralayotgan kuy poyezdning taraqturuqiga jo'r bo'lib, kishini hayratga solardi (Ch.Ayt.) gapidagi to'ldiruvchilarni aniqlang va izohlang.

72-dars

VOSITASIZ TO'LDIRUVCHI

191-mashq. Berilgan fe'llarni o'timli va o'timsiz fe'llar guruhiga ajratib ko'chiring va har bir guruhdagi fe'llar sonini 10–15 tagacha yetkazing.

O'rganmoq, yashamoq, tug'ilmoq, tinglamoq, ko'rmoq, qutqarmoq...

Esga oling. *K i m n i? n i m a n i?* so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar bilan birikma hosil qiladigan fe'llar o'timli fe'llardir.

192-mashq. O'timli fe'llar tanlang. Ularni *k i m n i?* yoki *n i m a n i?* so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar bilan kengaytirib, to'ldiruvchili so'z birikmalari va bu so'z birikmalarini qo'llab, gaplar tuzing.

N a m u n a: yopmoq: *eshikni yopmoq. Ukam eshikni yopdi.*

Bilib oling. To'ldiruvchi tushum kelishigi qo'shimchasi *-ni* bilan belgili va qo'shimchasiz — belgisiz ko'rinishlarda kela oladi.

193-mashq. Belgili va belgisiz tushum kelishigi shaklidagi to'ldiruvchili so'z birikmalari hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bilib oling. Belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi deyiladi.

194-mashq. Vositasiz to'ldiruvchilarni aniqlab, ularning qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanganligini tushuntiring.

1. Zebi onasining beradigan javobini ilgariidan bilardi. (*Cho'lon*) 2. Qarilari kutadi mehmon, pazandasi yopadi shirmon. Kelinlari aytadi alla, qo'shiqchisi kuylaydi yalla. (*H.O.*) 3. Birni kessang, o'nni ek. (*Maqol*) 4. O'tirganlar otning dupur-dupurini baralla eshitishdi. 5. Yashashni istasang, ishlashni o'rgan. 6. Yaxshini yomondan farqlang. 7. Bechoraning oh-u dodini tinglang, uni xushnud qiling. 8. Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra, deydilar.



195-mashq. Dastlab ko'chirma va muallif gapli qurilma, so'ngra bu qurilmadan murakkab vositasiz to'ldiruvchili sodda gap tuzing.

Namuna: «*Vatanni mardlar qo'riqlaydi*», — *ta'kidladi harbiy ta'lim o'qituvchisi.* — *Harbiy ta'lim o'qituvchisi Vatanni mardlar qo'riqlashini ta'kidladi.*



Savol va topshiriqlar

1. Qanday to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchi deyiladi?
2. Vositasiz to'ldiruvchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Kengaygan birikmalar bilan ifodalangan murakkab vositasiz to'ldiruvchilarga misollar ayting.



196-mashq. **Osmon, bulut, shamol, yomg'ir** so'zlarini vositasiz to'ldiruvchi vazifasida qo'llab, gaplar tuzing.

73-dars

VOSITALI TO'LDIRUVCHI

197-mashq. Berilgan o'timli (1) va o'timsiz (2) fe'llarni ma'nosiga mos ravishda **kimga? nimaga? kimdan? nimadan?** so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar bilan kengaytirib, to'ldiruvchili so'z birikmalari hosil qiling va bu so'z birikmalarini qo'llab, gaplar tuzing.

1. O'qimoq, saqlamoq, bermiq, uzatmoq, tortmoq, uzmoq.
2. Qo'rqmoq, ranjimoq, yaqinlashmoq, to'ymoq, qonmoq.

Namuna: *kitobdan o'qimoq. U she'rni kitobdan o'qib berdi.*

198-mashq. **Kimga? nimaga? kim uchun? nima uchun? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan?** so'roqlariga javob bo'lib keladigan so'zlarni fe'llar bilan bog'lab, avval so'z birikmalari, so'ngra gaplar hosil qiling.



Bilib oling. Hokim so'zning ***k i m g a ? n i m a g a ? k i m d a n ? n i m a d a n ? k i m u c h u n ? n i m a***

u chun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan? kabi soʻroqlarga javob boʻlib keladigan kengaytiruvchilari **vositali toʻldiruvchilar** deyiladi. Vositali toʻldiruvchi joʻnalish, chiqish, baʼzan oʻrin-payt kelishiklari qoʻshimchalarini yoki **uchun, bilan, orqali, xususida, toʻgʻrisida** kabi koʻmakchilarni olgan soʻzlar (yoki soʻz birikmasi) bilan ifodalanadi.

199-mashq. Gaplardagi vositali toʻldiruvchilarni aniqlang va ularni qaysi soʻz turkumlari bilan ifodalanganligini izohlang.

1. Beshga uchni qoʻshsak, sakkiz boʻladi. 2. Chizmani kitobdan daftarga koʻchirdim. 3. Chaqmoqning yalt-yultidan bola qoʻrqdi. 4. Yaxshiga yondash, yomondan qoch. (*Maqol*) 5. Bekorchidan xudo bezor. (*Maqol*) 6. Soʻrashdan uyalma, bilmaslikdan uyal. (*Maqol*)

200-mashq. Misollardagi kelishik qoʻshimchali vositali toʻldiruvchilarni koʻmakchili qurilma shaklidagi toʻldiruvchilar bilan almashtirib, gaplarni koʻchiring.

1. Bu kitobni ukamga oldim. 2. Kutubxonachi yangi kitoblardan gapira boshladi. 3. Kechada oʻtmish voqealaridan bahs ketdi. 4. Xat qizil qalamda yozilgan edi. 5. Mufassal hisobotni pochtdan yuboraman. 6. Qishloqqa avtobusda ketadigan boʻldim. 7. Sayohat vaqtida koʻrganlarimdan batafsil gapirdim.

201-mashq. Gaplardagi ajratilgan vositali toʻldiruvchini hokim soʻz bilan birgalikda soʻz birikmasi sifatida alohida koʻchiring.

1. **Otdan** baland, **itdan** past. 2. Kitob ikki **qismdan** iborat. 3. Ochkoʻz — **molga** qul, saxiy — **elga** hokim. (*Maqol*) 4. Azamat — **futbolchilarimizga** sardor. 5. Yutuq **kutganimizdan** ziyodroq boʻldi. 6. Qizgʻish — **pushtidan** toʻqroq, **qizildan** ochroq rang.

Savol va topshiriqlar

1. Vositali toʻldiruvchi deb nimaga aytiladi? U qanday soʻroqlarga javob boʻladi?
2. Vositali toʻldiruvchi qaysi grammatik shakllarda boʻladi? Misollar bilan tushuntiring.
3. Kelishik shaklidagi toʻldiruvchidan koʻmakchili qurilma shaklidagi toʻldiruvchi qanday farqqa ega boʻladi? Misollar keltirib, sharhlab bering.



202-mashq. *Uyga vazifa.* So‘ramoq, bermoq, yuvmoq, minmoq fe‘llarini kesim vazifasida qo‘llab, vositasiz va vositali to‘ldiruvchilar qatnashgan gaplar tuzing.

74-dars

ANIQLOVCHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

203-mashq. Matndagi ajratilgan so‘zlarning qaysi so‘zga tobelanib kelayotganligi va hokim so‘zdan tobe so‘zga so‘roq berib, tobe so‘z qanday gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganligini aniqlang.

HUNARMANDLAR MAKTABI

1. **Bizning** maktabimizda «Mohir qo‘llar» to‘garagining ishi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. **Katta** to‘garak **ikki** guruhdan iborat. **Birinchi** guruh **chevar** qizlarni birlashtiradi. Unda **oqila** qizlarimiz **tikuvchilik** san‘atini, **bichuvchilik** mahoratini, **kashtado‘zlik** va **zardo‘zlik** sirlarini, **popopchilik** kasbini o‘rganadilar. **To‘garagimizning** **ikkinchi** guruhi «Hunarmand yigit» deb ataladi. **Bu** guruhda «Xattotlik», «Yog‘och o‘ymakorligi» bo‘limlari bor. **Hozirgi** kunda to‘garak **124** o‘g‘il-qizni birlashtiradi. To‘garagimizni tumanda «Hunarmandlar maktabi» deb ataydilar. Mashhur to‘garagimizning nomi maktabimizga ham ko‘chgan. **Hamma** kishilar **bu** maktabni «Hunar maktabi» deydi. **Bizning** to‘garagimiz tumanimizdagi **milliy** hunarlar kollejining otalig‘idadir. **To‘garagimizning** **ko‘pgina** a‘zolari o‘qishni **shu** kollejda davom ettirmoqchilar.



Bilib oling. Gapning biror bo‘lagini aniqlab kelgan ikkinchi darajali bo‘lak **aniqlovchi** deyiladi.

Aniqlovchi **qanday? qaysi? nechanchi? qancha? nechta? kimning? nimaning?** so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Aniqlovchi aniqlagan (bog‘langan) bo‘lak **aniqlanmish** hisoblanadi.

Aniqlovchi narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kim yoki nimaga qarashlilikini bildiradi.

Aniqlovchi ega, ot kesim, to‘ldiruvchi va holga bog‘lanadi: *Bahaybat samolyot* (ega) yerga ohista qo‘ndi. Salimjon — *a‘lochi o‘quvchi* (ot kesim). *Ilg‘or ishchilarga* (to‘ldiruvchi) mukofotlar topshirildi. Mehnat faxriylari bilan yangi **bog‘da** (hol) uchrashdik.

Aniqlovchilarning bir xili narsa-buyumning **belgisi** (rangi, miqdori, mazasi, hajmi)ni bildirsa, boshqa xili narsa-buyumning

kinga yoki nimaga **qarashlilikini** bildiradi. Shunga ko'ra, aniqlovchilar ikkiga bo'linadi: 1) **sifatlovchi aniqlovchi**; 2) **qaratqichli aniqlovchi**. Misol: **Yangi** (sifatlovchi aniqlovchi) binolar **qishloqning** (qaratqichli aniqlovchi) husniga husn qo'shmoqda. (Sh.R.)

204-mashq. Berilgan gaplardagi aniqlovchilarni topib, bog'langan so'z (bo'lak) bilan ko'chirib yozing. Qanday so'roqqa javob bo'layotganligini ayting.

1. Soyning tagidan ko'm-ko'k suv oqib o'tardi. (P.Q.) 2. Bu yilgi bahorning kech kelishi ko'plarning tinka-madorini quritdi. (S.Karomatov) 3. Shu payt ichkaridan ship-ship qadam tovushi eshitildi. (O'H.) 4. Yaxshi o'g'il otga mindirar, yomon o'g'il otdan indirar. (Maqol) 5. Po'lat sandiq ochildi, ichidan zar sochildi. (Topishmoq) 6. Bu yil tog'-tog' paxta xirmoni yaratildi. 7. Bir kishi ariq qazydi, ming kishi suv ichadi. (Maqol) 8. Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati. (U.)

205-mashq. Rasmni kuzating va «O'zbekistonning naqshinkor tarixiy inshootlari» mavzusida insho yozing. Insho matnidagi aniqlovchilarni turiga ko'ra belgilang.



Savol va topshiriqlar

1. Aniqlovchi deb qanday gap bo'lagiga aytiladi?
2. Aniqlanmish nima?
3. Aniqlovchi qaysi gap bo'laklariga bog'lanib keladi? Fikringizni misollar bilan asoslang.
4. Aniqlovchi qaysi xususiyatiga ko'ra sifatlovchi aniqlovchi va qaratqichli aniqlovchiga ajratiladi?

206-mashq. *Uyga vazifa.* Yaqin do‘stingiz (dugonangiz)ning yaxshi xislatlarini namoyon qiluvchi kichik matn tuzing, undagi aniqlovchilarni belgilang.

75-dars

SIFATLOVCHI ANIQLOVCHI

207-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan gaplardagi **qanday? qancha? nechta? nechanchi? qaysi?** so‘roqlariga javob bo‘lib, belgi ma‘nosini bildirgan so‘z (bo‘lak)larni u bog‘langan so‘z (bo‘lak) bilan birgalikda yozing.

1. Ko‘m-ko‘k g‘o‘zalar hosilga kirib, nishonasi gulga, guli ko‘sakka aylanmoqda. (*R.F.*) 2. Bu kishining fe‘l-atvori menga juda yoqib tushdi. (*G‘.G‘.*) 3. Mahallada duv-duv gap tarqaldi. 4. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. (*Maqol*) 5. Sanjar sakkizinchi sinfda o‘qiydi. 6. Besh-olti kekxa yig‘ilib maslahat qilishdi. 7. Ko‘cha tomondan gurs-gurs oyoq tovushi keldi. (*S.A.*)

2-topshiriq. Belgi ma‘nosini bildirgan so‘z (bo‘lak)laming qaysi turkumdan ekanligini aniqlang.

Bilib oling. Gapda shaxs yoki narsa-buyumning belgi-xususiyati, hajmi, shakli, maza-ta‘mi, rang-tusi, miqdori, tartibi kabi ma‘nolarni anglatadigan aniqlovchi **sifatlovchi aniqlovchi** deyiladi. Sifatlovchi bog‘lanib kelgan so‘z **sifatlanmish** deb ataladi: *Mustaqil O‘zbekiston, qizil gul, mohir qo‘llar, qo‘shni hovli, kuzgi bug‘doy, uzoqdagi do‘st, temir eshik* kabi.

Sifatlovchi aniqlovchilar quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanaadi:

1) **sifat bilan:** *Uning ziyrak qo‘ng‘ir ko‘zlarida horg‘inlik bor edi.* (*S. Anorboyev*)

2) **son bilan:** *Tepalikdagi chinor, ikki tup sadaqayrag‘och to‘rt-besh kishilik talay supalarga soya solib turardi.* (*A. Q.*)

3) **olmosh bilan:** *Qirlardan esayotgan mayin shabada ana shu ajoyib gullarning g‘unchalarini yozmoqda.* (*I. Rahim*)

4) **ot bilan:** *Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.* (*U.*)

5) **ravish bilan:** *Uzoq-yaqin yerlardan odamlar yig‘ila boshladi.* (*O.*)

6) **sifatdosh bilan:** *Mayin esgan shabada ko‘nglimizni chog‘ qildi.*

7) **modal soʻz bilan:** *Zarur ishlarimizni bitirdik.*


8) **taqlidiy soʻz bilan:** *Zavodning mashina boʻlimidan gurs-gurs zarb uzluksiz eshitilib turardi. (O.)*

208-mashq. Yozuvchi Abdulla Qahhorning hikmatlarini oʻqing. Undagi birikmali sifatlovchi aniqlovchilarni koʻchirib yozing.

1. Daraxtni undiradigan, oʻstiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv boʻlsa, badiiy mahoratni undiradigan va oʻstiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir.

2. Baqirgandan koʻra, maromi bilan sekinroq qilingan taʼna quloqqa yaxshiroq kiradi, zehnga yaxshiroq oʻrnashadi.

3. Odobsizlik taraqqiy topib yetib boradigan joyi «jinoyat» degan narsa, aytmoqqa oson, uning zamirida barbod etilgan salomatlik, nomus, nohaq toʻkilgan hovuch-hovuch koʻz yoshi yotadi.


 **Bilib oling.** Sifatlovchi aniqlovchilar baʼzan oʻziga qarashli soʻzlar bilan birikmali holda qoʻllanadi: *Jamilovning egnida oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyogʻida kavkazcha etik, boshida chust doʻppi edi. (S.Anorboyev) Yuzida bilinar-bilinmas chechak oʻrni qolgan, keng peshanali, sochlarini oʻng tomonga silliq taragan jurnalist shoirga bir qarab qoʻydi. (S.Anorboyev)*

Aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdoshlar birikmali qoʻllanib, **sifatdosh qurilmani** hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan soʻnggi misolda ikkita sifatdosh qurilma bor: *yuzida bilinar-bilinmas chechak oʻrni qolgan, sochlarini oʻng tomonga silliq taragan.*

209-mashq. Maktabingizning sport zalini tasvirlovchi matn tuzing va undagi sifatlovchi aniqlovchilarni belgilang.

Savol va topshiriqlar

1. Gapning qanday boʻlagiga sifatlovchi aniqlovchi deyiladi?
2. Sifatlovchi aniqlovchi bogʻlangan soʻz qanday ataladi?
3. Sifatlovchi aniqlovchilar qaysi turkum soʻzlari bilan ifodalanadi?
4. Sifatlovchi aniqlovchining birikmali holda qoʻllanishiga misollar keltiring.

 **210-mashq.** *Uyga vazifa.* Oʻzingiz shu kunlarda oʻqiyotgan badiiy asardan inson (obraz)ning tashqi qiyofasini tasvirlovchi parcha koʻchirib yozing, sifatlovchi aniqlovchilarni belgilang.

QARATQICHLI ANIQLOVCHI

211-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan gaplardagi **kimning? nimaning? qaysining?** soʻroqlariga javob boʻlib, qarashlilikni, xoslikni bildirgan soʻz (boʻlak)larni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birgalikda koʻchiring.

1. Avlodlarimizning yaxshi udumlarini saqlab qolaylik.
2. Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning gapiga kir. (*Maqol*)
3. Ikkining kvadrati toʻrt boʻladi. 4. Ikki nechaning yarmi?
5. Oʻqishning foydasi koʻp. 6. Kelganlarning birortasi ham uni tanimas edi. 7. Jismoniy tarbiya darsi maktab hovlisida oʻtkazildi.
8. Daryo labida turib koʻklam quchogʻida tovlanayotgan Olmazor chiroyiga suqlanardim. (*H.N.*)

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplarda qarashlilik, xoslikni bildirgan soʻz (boʻlak)larning qaysi turkum soʻzlari ekanligini aniqlang.

Bilib oling. Gapning biror shaxs yoki narsa-buyumga qarashlilikini, xosligini bildirgan boʻlagi **qaratqichli aniqlovchi** deyiladi. Aniqlovchining bu turi qaratqich kelishigidagi soʻzlar bilan ifodalanadi. Qaratqichli aniqlovchilar tobelangan soʻz (boʻlak) **qaralmish** hisoblanadi.

Qaratqich aniqlovchili soʻz birikmalarining asosiy belgisi hokim soʻzning egalik qoʻshimchalari bilan (koʻpincha, III shaxs birlik sondagi **-i, -si** qoʻshimchasi bilan) kelishini talab qilishidadir: *maktabimizning binosi, hunar maktabi.*

Qaratqichli aniqlovchilar qaralmish bilan munosabatga kirishganda turlicha shakllanadi:

- 1) qaratqich va qaralmish belgisi keladi (*daraxtning bargi*);
- 2) qaratqich belgisiz, qaralmish belgisi keladi (*direktor xonasi*);
- 3) qaratqich va qaralmish belgisiz qoʻllanadi (*oʻrik danak, yongʻoq magʻiz*). Ayrim vaqtda qaratqich belgisi, qaralmish belgisiz kelishi ham mumkin (*bizning qishloq*).

Qaratqichli aniqlovchi quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:

1) **ot bilan:** *Shiftga osigʻliq qirqinchi chiroqning qalpogʻi uy devorlarining tepa yogʻiga choʻziq soya solgan.* (*H.Gʻ.*)

2) **otlashgan sifat bilan:** *Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar tor yerda.* (*Maqol*)

3) otlashgan son bilan: *Birining ko'zi qora, ikkinchisining ko'zi ko'k edi. O'ning yarmi — besh.*

4) olmosh bilan: *Bizning eshon — kabobpazlarning piri. (A.Q.)*

5) otlashgan sifatdosh bilan: *So'raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora. (Maqol)*

6) otlashgan undov, taqlid so'zlar bilan: *Bolalar qiy-chuvining ovozi shu yergacha yetib keldi.*

212-mashq. Gapلامي o'qib, ulardagi sifatlovchi va qaratqichli aniqlovchilarni guruhlab ko'chiring, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanganini ayting.

1. Dutor torlarining jarangi Zumradning tovushiga qo'shib ketdi. (O.) 2. Mana shu o'yin-kulgilar, qo'shiqlar, kuylar yosh va keksalarning diliga orom hamda quvonch bag'ishlagan lola sayili yaqindagina bo'lgan edi. (Sh.R.) 3. Osmondagi umid yulduziga boqib, hayot chashmasini qidiraman. (M.Qoriyev) 4. Yosh yigitning yuragiday qaynab, jo'sh urib turgan zilol suvli buloqni ko'z yoshi bulog'i deb ataganlari qiziq. (S.Anorboyev) 5. Qorong'i dala jimjit. Faqat hasharotlarning chirillashi, suvning shildir-shildir oqishi eshitiladi... (S.Nazar)

Savol va topshiriqlar

1. Qaratqichli aniqlovchi deb gapning qanday bo'lagini tushunasiz?
2. Qaralmish bo'lak nima? U qaratqich bilan qanday munosabatda bo'ladi?
3. Qaratqichli aniqlovchi qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanadi? Misollar ayting.
4. Qaratqich va qaralmish bo'laklar qanday shakllarda bo'lishi mumkin?


213-mashq. Uyga vazifa. Qaratqich bo'lakning belgisi va belgisiz qo'llanishiga 3 tadan misol yozing.


77-dars

IZOHLOVCHI

214-mashq. 1-topshiriq. Quyida aniqlovchili so'z birikmalari uchliklari berilgan. Bu uchliklardan ikki turi va ularning tilshunoslikdagi atamasi sizga ma'lum. Sizga noma'lum 3-tur birikmalarni alohida ajrating.

1. Professorning nevarasi; professorona tashxis; professor Nosirov.
2. Rassomning ko'rgazmasi, mohir rassom, rassom Chingiz Ahmarov.
3. Kosib yigit, kosibning hunari, To'ra kosib.

 **2-topshiriq.** Siz alohida ko‘chirib olgan so‘z birikmalarida birinchi so‘z (aniqlovchi) qanday ma‘noni ifodalab kelayotganligini ayting.

 **Bilib oling.** **Izohlovchi** aniqlovchining bir turi bo‘lib, u shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar, ko‘pincha, ot so‘zlar bilan ifodalanadi: **muhandis Rustamov, usta Qodir, mayor Ahmedov, shoira Zulfiya** kabi. Izohlovchi bog‘langan bo‘lak **izohlanmish** hisoblanadi.

Izohlanmish shaxsning millati, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi, jinsi va boshqa qo‘shimcha belgilarini tavsiflovchi bo‘lak **izohlovchi** deb yuritiladi:

1) unvon, amal: **Kapitan Mansurov so‘zladi. Anjumanda direktor Xoliqov ham qatnashdi.**

2) mashg‘ulot, kasb: **Oshpaz Shukur, gulchi Nizom va duradgor Vahobjonlar yetib kelishdi.**

3) yosh, jins, qarindoshlik: **O‘sha kuni Mavjuda xola bilan Sobir amaki foydali nasihatlar qildilar.**

4) laqab: **Jalil sovuq, Juman pismiqlarning askiyasini eshitdik.**

5) taxallus: **Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek yirik nasriy asarlar muallifidir.**

215-mashq. Berilgan namunalar asosida izohlovchili birikmalarga besh-oltitadan misol toping.

1) ayol hamshira, erkak o‘qituvchi, ...


2) ingliz muhandis, ...

3) shaxmatchi Rahmatulla, ...

4) muhandis Abdusamad, ...


216-mashq. Oldingi mashqni bajarish asosida hosil qilingan izohlovchili so‘z birikmalaridagi so‘zlar o‘mini almashtiring.

N a m u n a: *hamshira ayol, Rahmatulla shaxmatchi.*

 **Bilib oling.** Aniqlovchili so‘z birikmalarining izohlovchi-izohlanmish turida izohlovchi va izohlanmish o‘rnini almashtirish ma‘noga ham, so‘z birikmasidagi so‘zlararo munosabatlarga ham ta‘sir etmaydi. **Ayol hamshira** birikmasida **ayol** izohlovchi-aniqlovchi, **hamshira** izohlanmish-aniqlanmish bo‘lsa, **hamshira ayol** birikmasida, aksincha, **hamshira** — izohlovchi, **ayol** esa izohlanmishdir.

Savol va topshiriqlar

1. Aniqlovchining qanday turi izohlovchi deyiladi?
2. Izohlovchi vazifasida qaysi turkum soʻzlari kelishi mumkin?
3. Izohlanmish boʻlak va izohlovchining joylashuv tartibi qanday? Ularning oʻrni almashtirilsa, maʼnosiga taʼsir qiladimi?

 **217-mashq.** *Uyga vazifa.* Badiiy asarlar matnidan izohlovchining qoʻllanishiga 3–4 ta misol yozing.

78-dars

TEST TOPSHIRIQLARI


79-dars

GAP BOʻLAKLARI TARTIBI

218-mashq. *1-topshiriq.* Sheʼriy parchani oʻqing. Undagi gaplarni alohida-alohida koʻchirib, gap boʻlaklarini aniqlang va tagiga chizing.


Shovulladi tun boʻyi shamol,
Qaldiroqlar koʻchdi larzakor.
Shivirlading yonimda xushhol:
«Yana keldi, doʻstginam, bahor».
Shovulladi tun boʻyi shamol,
Qorliklarda oʻchdi izimiz.
Shivirlading yonimda xushhol:
«Mangu birmiz, doʻstim, ikkimiz».

(A. Oripov)

 *2-topshiriq.* Ikkinchi darajali boʻlaklarning ega va kesimdan keyin kelgan (oʻzgargan) holatlarini aniqlab, namunadagidek jadvalga tushiring.

N a m u n a:

Oʻzgargan tartib	Oddiy tartib
1. Shovulladi shamol 2....	1. Shamol shovulladi 2....

 **Bilib oling.** Oʻzbek tilida gap boʻlaklarining joylashish tartibi, asosan, erkin boʻlsa-da, ular gapda maʼlum grammatik qoidalar asosida oʻrinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bogʻlangan boʻlaklar oldin, kesim va unga bogʻlangan boʻlaklar keyin joylashadi, baʼzan

aksinchasi ham bo'ladi: *Bu yo'llar menga tanish. — Menga tanish bu yo'llar.*

Eganing ko'proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (*Men keldim*), hol (*ohista gapirdi*) va to'ldiruvchining kesimdan (*she'rni yod oldi*), aniqlovchining egadan oldin (*qizil gul, do'stimning akasi*) joylashuvi odatdagi, me'yoriy tartibdir.

Lekin nutqda doimo ham gap bo'laklarining odatdagi tartibi saqlanavermaydi, gapdan ko'zda tutilgan umumiy fikrga qo'shimcha ma'no, uslubiy yuk berish uchun tartib o'zgartirilishi mumkin.

Masalan:

1. *Kecha akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga ketdi* (boshqa yerga emas, *Toshkentga*).

2. *Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg'onadan ketdi* (boshqa yerdan emas, *Farg'onadan*).

3. *Kecha akam Farg'onadan Toshkentga samolyotda ketdi* (boshqa narsada emas, *samolyotda*).

4. *Kecha samolyotda Farg'onadan Toshkentga akam ketdi* (boshqa kishi emas, *akam*).

5. *Akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga kecha ketdi* (boshqa kuni emas, *kecha*). Ko'rinib turibdiki, e'tibor qaratilgan ma'noni ifodalagan bo'lak kesim oldiga keltirilgan.

Gap bo'laklarining odatdagi va o'zgargan tartibining nutqda o'z qo'llanish o'rinlari bor. Odatdagi tartib ilmiy asarlar uslubi uchun mos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos.



219-mashq. Baytlarni o'qing, she'riy gaplarni nasriy gaplarga aylantirib ko'ring.

Navbahor: ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar.

(*Muqimiy*)

Ochinglar, millati vayronani obod etgusi maktab,


O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod etgusi maktab.

(*Avaz O'tar*)

220-mashq. Eganing gap boshida, to'ldiruvchi va holning kesim oldida, to'ldiruvchining kesimdan so'ng kelishiga misollar topib yozing.

Savol va topshiriqlar

1. Ona tilimizdagi gap bo'laklarining odatdagi tartibi haqida gapiring.
2. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi deb nimani tushunasiz?
3. Gap bo'laklarining noodatiy tartibi nimaga xizmat qiladi? Misollar keltiring.
4. She'riy nutqda gap bo'laklarining noodatiy tartibidan nega ko'p foydalaniladi?


 **221-mashq.** Uyga vazifa. Berilgan she'riy parchadagi tartibi o'zgargan bo'laklarni toping va o'zi bog'langan bo'lak bilan birgalikda ko'chirib yozing.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

(A. Oripov)


80-dars


GAP URG'USI (MANTIQIY URG'U)

 **1-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring va so'zlarning urg'usini qo'ying.

1. Olma ko'chatlarini yaxshi parvarish qildik. — Bu hovuzdan suv olma, — dedi chol.

2. Akademik Sobir Yunusov dunyoga taniqli olimdir. — Bir akademik soat 45 minutga teng.

 **Esga oling.** Ilgari (5-sinfda) siz so'z urg'usining xususiyatlari bilan tanishgansiz: so'z bo'g'inlaridan birining boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishi **so'z urg'usi** deyiladi. So'z urg'usi ma'no farqlashga ham xizmat qiladi.

 **2-topshiriq.** Quyidagi jummalarning har bir gap bo'lagiga navbatma-navbat ta'kid ma'nosini berib (kuchliroq ohang bilan) o'qing: gap mazmunida qanday o'zgarish yuz bermoqda?

1. Yakshanbada o'rtog'im biznikiga keladi. 2. Men Abdulla Qahhor hikoyalarni o'qiyapman.

Bilib oling. Gapda soʻzlovchi tomonidan alohida ahamiyat berilib, taʼkidlab koʻrsatilgan boʻlakning kuchli ohang bilan aytilishi **gap urgʻusi** (yoki **mantiqiy urgʻu**) deyiladi. Gap urgʻusini ixtiyoriy ravishda koʻchirish mumkin:

1. **Biz** kecha muzeyga bordik (biz bordik).
2. Biz **kecha** muzeyga bordik (kecha bordik).
3. Biz kecha **muzeyga** bordik (muzeyga bordik).
4. Biz kecha muzeyga **bordik** (bordik).

Koʻrinadiki, gap urgʻusini olgan soʻz gap mazmunining markazini tashkil etadi: asosiy fikr shu boʻlakka qaratilgan boʻladi.

222-mashq. Sheʼmi ifodali oʻqing va gap urgʻusi tushgan boʻlaklarni aniqlang.

KEKSA NOK

— Keksa nokni kesamiz.
Qurib qolgan — choʻkirtak.
Mevasi boʻlmasa, u
Endi kimga ham kerak?

Oʻgʻlimdan yodgorlik, deb
Buving aytgan gap bekor.
Bir qop meva olaman
Oʻrniga eksam anor,—

Shunday deya Xoliq chol
Shayladi arrasini,
Yordamga chaqirdi soʻng
Jajji nevarasini.

Arra tortar, Nosirning
Boshi egik, koʻzi nam!
«Yaxshi deb yurgan bobom
Bunchalar yovuz odam».

(S. Inoyatov)

? Savol va topshiriqlar

1. Gap urgʻusi deb nimaga aytiladi?
2. Gap urgʻusi gapning qaysi boʻlaklarida boʻlishi mumkin? Misollar bilan tushuntiring.
3. Soʻz urgʻusidan gap urgʻusining farqi nimada?

223-mashq. Uyga vazifa. **Sal oʻtmay Shirinoy daladan qaytib keldi** (O.Y.) gapi boʻlaklariga navbatma-navbat gap urgʻusini qoʻyib yozing. Gap mazmunidagi oʻzgarishlarni izohlang.

? Mustahkamlash uchun savollar

1. Toʻldiruvchi gapning qanday boʻlagi? Uning qanday turlari bor?
2. Vositasiz toʻldiruvchi bilan vositali toʻldiruvchi nimasi bilan farqlanadi?
3. Gapning qanday boʻlaklariga sifatlovchi aniqlovchi va qaratqichli aniqlovchi deyiladi?
4. Izohlovchi aniqlovchining qanday turi sanaladi?
5. Gap boʻlaklarining joylashuv tartibi erkin, deganda nimani tushunasiz?

6. *Gap bo'laklari tartibining noodatiy qo'llanishi qaysi nutq uslublarida ko'proq uchraydi?*
7. *Gap urg'usi nima? Gap urg'usini bir bo'lakdan boshqa bo'lakka ko'chirganda, mazmunga ta'sir qiladimi yoki yo'qmi?*

81-dars

MUSTAHKAMLASH DARS

224-mashq. *1-topshiriq.* Mattni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Unga qanday sarlavha qo'yish mumkin?

Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo'lardi. Erta bahorda qiyg'os gullardi-yu, hech meva tugmasdi. Onam: «Bodom yolg'iz bo'lgani uchun meva qilmaydi», deb tushuntirardi. Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loblatib suv separ, kun bo'yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

Oymomaxon xulla,
Qanotlari tilla.
Subhon ollo sizga,
Umr bersin bizga...

Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek muallaq to'xtab qolar, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi.

(O'H.)

2-topshiriq. Matndagi to'ldiruvchi bo'laklarni topib, vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchi guruhlariga ajratib yozing.

3-topshiriq. Matndan aniqlovchilarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini ayting.

4-topshiriq. Matndan kengaygan sifatdoshli birikmalar bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchilarni ajratib ko'rsating.

5-topshiriq. Matnning 2-xatboshisidagi gaplarning (to'rtlikning ham) urg'usini qo'yib ko'chiring.



6-topshiriq. Uyga vazifa. Rasmda tasvirlangan holatdan foydalanib, «Mehnat faxriysi bilan uchrashuv» mavzusida matn tuzing. Matndagi to'ldiruvchi, aniqlovchi va izohlovchilarni belgilang.



82-dars

TO'LIQ VA TO'LIQSIZ GAPLAR


225-mashq. 1-topshiriq. Berilgan suhbat nutqi (dialog)dagi ajratilgan gaplarga e'tibor bering. Ular siz o'rgangan va to'liq shakllangan sodda gaplardan nimasi bilan farqlanishini izohlang.

- Ra'no, inshoni qaysi asar bo'yicha yozmoqchisan?
- **«O'tkan kunlar» bo'yicha. Sen-chi?**
- **«Navoiy» romani bo'yicha.** Lekin shu asarning yangi nashrini olishim kerak. **Senda yo'qmi?**
- **Yo'q.** Menda ham «O'tkan kunlar»ning yangi nashri yo'q. **Kutubxonadan olmoqchidim.**
- **Men ham.**
- **Boramizmi birga?**
- **Bo'пти... Qachon?**
- **Bugun. Qachon bo'shaysan?**
- **Hozir. Boramizmi?**
- **Jonim bilan.**
- **O'n besh daqiqadan keyin. Tramvay bekatida.** Nargiza telefon go'shagini ilib, kiyina boshladi.



2-topshiriq. Ajratilgan gaplarni to'ldirib, tugal bir fikr anglatadigan gaplar hosil qiling.

N a m u n a: *Inshoni men «O'tkan kunlar» romani asosida yozmoqchiman.*

 **Bilib oling.** Gaplar o'z bo'laklarining to'la ifodalangani yoki ifodalanmay (tushib) qolganiga ko'ra ikkiga bo'linadi: **to'liq gaplar, to'liqsiz gaplar.**

Biror bo'lagining ifodalanmaganligi sezilmaydigan, fikr ifodalash uchun zarur bo'lgan hamma bo'laklari saqlangan gaplar **to'liq gaplar** deyiladi: ***Shoira o'zi yozgan she'rni o'qidi.***


Qiyoslaylik: — ***Shoira nimani o'qidi?***

— ***O'zi yozgan she'rni.*** (Bu to'liqsiz gap)

Suhbat nutqida, matn ichida qo'llanilib, biror bo'lagi tushirilib qoldirilgan va u nutq sharoitidan anglashilib turadigan gaplar **to'liqsiz gaplar** deyiladi. To'liqsiz gap uchun zaruriy umumiy qoida, qonuniyatlar xos emas. Qaysi bo'lakning qoldirilishi kerakligi va qaysi bo'lakni tushirish mumkinligini faqat nutq sharoiti belgilaydi.

226-mashq. O'qing. To'liq va to'liqsiz gaplarni topib, to'liqsiz gaplarda qaysi bo'laklar tushirilganligini ayting.

1. — Arizangizni majlisda ko'rib chiqamiz! — Qachon? — Xohlasangiz, ertaga. — Tezroq ko'ringlar, Ne'mat aka, iltimos qilaman. (*M. Qoriyev*) 2. — Borganingizda Saidova bilan uchrashdingizmi? — Uchrashdim. — Qayerda? — Bir juvonnikida. (*H. No'mon*) 3. — Sherali qani? — Ichkarida. (*A. Dilmurodov*) 4. — Ilgari qayerda ishlagan edilar? — Dastavval Surxondaryoda, keyin Qarshi cho'lida. (*O.Y.*)

 **Bilib oling.** To'liqsiz gaplarda quyidagi gap bo'laklari tushirilishi mumkin:

1. Kesim va unga oid so'zlar: — ***Seni qurol ushlashga qaysi nomard majbur qildi!*** — ***Vijdonim, xalqimning amri.*** (*M. Qoriyev*) 2. Ega: — ***Siz she'r ham yozyapsizmi, Oydin?*** — ***Yozyapman.*** (*M. Qoriyev*) 3. Ega va kesim: — ***Ishni men kimdan qabul qilib olayotibman?..*** — ***Qo'mita a'zosidan...*** (*A.Q.*) 4. Ikkinchi darajali bo'laklar: — ***Kim muzeyga bormoqchi?*** — ***Hammamiz boramiz.***

 **Savol va topshiriqlar**

1. *To'liq gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?*
2. *Qanday gaplar to'liqsiz gap deyiladi?*
3. *To'liqsiz gapning to'liq shaklini nima belgilaydi?*
4. *To'liqsiz gaplarda qaysi gap bo'laklari tushib qolishi mumkin? Misollar keltiring.*



227-mashq. *Uyga vazifa.* «Adabiyot» darsligingizdagi badiiy asarlar parchalaridan to‘liq va to‘liqsiz gaplarga 3 tadan misol topib yozing.

Eslatma. Hozirgi o‘zbek yozuvida 10 xil tinish belgisidan foydalaniladi:

- | | |
|--------------------------|--------------------------------|
| 1) nuqta — (.); | 6) so‘roq belgisi — (?); |
| 2) vergul — (,); | 7) undov belgisi — (!); |
| 3) nuqtali vergul — (;); | 8) ko‘p nuqta — (...); |
| 4) ikki nuqta — (:); | 9) qavs — (), []; |
| 5) tire — (-); | 10) qo‘sh tirnoq — („ „, « »). |


Har bir tinish belgisi muayyan qoidalar asosida qo‘llanadi. Tinish belgilarining qo‘llanishiga oid qoidalar to‘plami **punktuatsiya** deyiladi.



UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLAR, ULARDA OHANG VA TINISH BELGILARI

83-dars


GAPNING UYUSHIQ BO‘LAKLARI HAQIDA MA‘LUMOT

 **1-topshiriq.** Berilgan gap juftliklarida nechtadan aniqlovchi va to‘ldiruvchi borligini aniqlang.

1. Sa‘dullaning katta xonasiga kirdik. // Sa‘dulla va Jo‘ra-beklarning katta, yorug‘ xonasiga kirdik. 2. A‘lo o‘qish — bizning asosiy vazifamiz. // A‘lo o‘qish — bizning va sizning asosiy hamda sharafli vazifamiz. 3. Kitoblarni ukam uchun oldim. // Kitoblarni, daftarlarni ukam va singlim uchun oldim. 4. Sizga bu baxtni istiqloq berdi. // Siz-u bizga bu baxt va toleni istiqloq berdi.

 **2-topshiriq.** So‘roqlar o‘miga ularga javob bo‘ladigan so‘zlar qo‘ying.

(Kimlar?) 8-sinfning a‘lochi o‘quvchilaridir. Ular (qaysi?) kabi fanlarga qiziqadilar. (Qaysi?) yillar bu ikki sinfdoshim olimpiada g‘olibi bo‘ldilar.

 **Bilib oling.** Bir gap tarkibida bir turdagi bo‘laklar birdan ortiq holda kelishi mumkin: *Yo‘lda ba‘zan katta-katta maydonni qoplab olgan oq, pushti, sariq va qizil gullar uchraydi. (Y.Sh.) Ular daryo bo‘yidagi toshlardan, har xil giyohlardan namunalar olishdi. (H.N.)*

Birinchi gapda aniqlovchi (**oq, pushti, sariq, qizil**), ikkinchi gapda to‘ldiruvchi (**toshlardan, giyohlardan**) o‘zaro teng aloqada ketma-ket kelgan.

Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi, o‘zaro teng aloqada, boshqa bo‘laklar bilan esa tobe aloqada bo‘lgan bo‘laklar **uyushiq bo‘laklar** deyiladi. Ular o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki tenglanish ohangi orqali birikadi. Uyushiq bo‘laklar bir-biridan pauza bilan ajralib, sanash ohangi bilan aytiladi. Har bir uyushiq bo‘lakning o‘z ayrim urg‘usi bo‘ladi.

Gapning **kesimi** va **egasi** ham, **ikkinchi darajali bo‘laklari** ham uyushib kelishi mumkin.

228-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan gaplarda qaysi bo‘lak yoki bo‘laklar uyushib kelganligini aniqlang.

1. Ichkaridagi gilos, tashqaridagi o‘rik daraxtlari qiyg‘os gullagan. // Ichkaridagi va tashqaridagi gilos daraxtlari qiyg‘os gullagan. // Ichkaridagi va tashqaridagi gilos hamda o‘rik daraxtlari qiyg‘os gullagan. 2. Salomatning singlisi, Akramning ukasi — 6-sinf a‘lochilari. // Salomatning va Akramning singillari — 6-sinf a‘lochilari. // Salomat va Akramlarning singil va ukalari — 6- sinf a‘lochilari. 3. Qirlardagi lolalar va tog‘ etaklaridagi binafshalar kishiga huzur bag‘ishlaydi. // Qirlardagi va tog‘ etaklaridagi lolalar hamda binafshalar kishiga huzur bag‘ishlaydi.

2-topshiriq. Yuqoridagi guruhlab berilgan gaplar mazmunidagi nozik farqlarni sharhlang.

229-mashq. Berilgan gapdagi bo‘laklarning tobelanish chizmasini chizing.

Mehnat yoshlarga ham, keksalarga ham izzat va obro‘ keltiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Gapdagi qanday bo‘laklar uyushiq bo‘laklar deyiladi? Fikringizni isbotlovchi misollar keltiring.
2. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro qanday bog‘lanadi? Boshqa bo‘laklar bilan-chi?
3. Qaysi gap bo‘laklari uyushib kelishi mumkin?

230-mashq. *Uyga vazifa.* Ohang va teng bog‘lovchilar orqali o‘zaro birikkan uyushiq bo‘laklarga 2 tadan misol yozing.


84-dars


UYUSHIQ KESIM

231-mashq. *1-topshiriq.* Gap juftliklarini qiyoslab, ular orasida qanday shakliy va ma‘naviy farq borligini tushuntiring.

1. Siz a‘lochi va jamoatchisiz. // Siz a‘lochisiz va jamoatchisiz. 2. Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo‘lamiz. // Biz harbiy uchuvchi bo‘lamiz va Vatan posbonlari bo‘lamiz. 3. Men bu masalani uqqan va yechganman. // Men bu masalani uqqanman va yechganman. 4. Biz voqea sodir bo‘lgan joyga borishimiz, hammasini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak. // Biz voqea sodir bo‘lgan joyga borishimiz kerak, hammasini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz kerak va ishonch

hosil qilishimiz kerak. 5. Do‘kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turishardi. // Do‘kondorlar molini maqtab turishardi va xaridorlarni chorlab turishardi.


 **Zukkolarga topshiriq.** Mashqda berilgan gap juftliklaridagi birinchi gaplar uyushiq bo‘lakli sodda gaplar, ikkinchi gaplar esa qo‘shma gaplardir. Buning belgilarini aytib bering.

 **Bilib oling.** Gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklari (so‘z, ibora, so‘z birikmalari) bilan ifodalangan kesim bo‘lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo‘lsa, bunday ko‘p kesimli gap **uyushiq kesimli gap** sanaladi.

232-mashq. Qo‘shma gap va uyushiq kesimli sodda gapdan iborat juftliklar hosil qiling. Ularni o‘zaro qiyoslab, ma‘naviy-uslubiy farqlarini izohlang.

233-mashq. Gaplarni o‘z ohangi bilan o‘qing, so‘ng uyushiq kesimli sodda va qo‘shma gaplarni ajratib yozing.

1. Bog‘da bodomlar, o‘riklar va shaftolilar gulladi. 2. Turg‘unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so‘nggilari esa uni vahimaga soldi. (*A. Q.*) 3. Tig‘ yarasi tuzaladi, lekin til yarasi tuzalmaydi. (*Maqol*) 4. Hamma chuqur xo‘rsindi, Anorxon piq-piq yig‘ladi. (*O.*) 5. Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko‘tarilib, birga ulg‘aydi. (*P. Q.*)

 **Esga oling.** Shakllangan, ya‘ni kesimlik shakllari (tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma‘nolari)ga ega bo‘lgan kesim alohida bir hukmni ifodalaydi, muayyan gap markazini tashkil eta oladi. Shuning uchun ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar (lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo‘laklar tarzida bo‘lmasa) **qo‘shma gaplar** sanaladi.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Uyushiq kesim deganda nimani tushunasiz?
2. Uyushiq kesim shu gapdagi nechta egaga aloqador bo‘lishi zarur? Misol asosida tushuntiring.
3. Uyushiq kesimli sodda gap bilan qo‘shma gapning o‘xshash va farqli tomoni nimada? Ularga misollar keltiring.

 **234-mashq.** Uyg‘a vazifa. Kesimi uyushgan 3 ta gap topib yozing.

UYUSHIQ EGA

235-mashq. Berilgan gaplarning egasini toping. Ularning gapdagi qaysi bo‘lakka bog‘lanayotganligini ayting.

1. Shu payt hovliga Davron aka bilan Iskandarov kirib kelishdi. (Y.Sh.) 2. Bog‘chada yosh-yosh qizchalar va o‘g‘il bolalar davra qurib o‘ynashmoqda. 3. Siz bilan biz ulug‘ ishga bel bog‘ladik. (H.G‘) 4. Bir necha qo‘sh ho‘kiz, ot, omoch-bo‘yinturuqlar ham shular nomiga yozdirildi. (H.G‘) 5. Pulemyot, multiqlarning ovozigina xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi. (O‘ Umarbekov)

Bilib oling. Bir sodda gap tarkibida birdan ortiq ega qator kelishi mumkin. Sodda gap kesimiga bir xil munosabatda bo‘lib, sanash ohangi bilan aytiluvchi birdan ortiq eganing ketma-ket kelishi **uyushiq ega** hisoblanadi.

Uyushiq egalar bir-biri bilan sanash ohangi yoki bog‘lovchilar orqali bog‘lanadi: *Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi. Siz bilan biz bu oddiy haqiqatni tushunmagan ekanmiz.*

236-mashq. Rasmni kuzating. Undan foydalanib, «Issiqxonada» mavzusida matn tuzing. Matnda uyushiq egali gaplardan foydalanishga harakat qiling.



? Savol va topshiriqlar

1. Uyushiq ega deb nimaga aytiladi?
2. Uyushiq egalar o‘zaro va kesim bilan qanday vositalar orqali bog‘lanadi?
3. Qo‘shma gaplar bilan uyushiq bo‘lakli gaplar orasida qanday o‘xshashlik va farq bor?

237-mashq. Uyga vazifa. Kundalik matbuot nashrlaridan uyushiq egali gaplarga 5 ta misol topib yozing.

YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

88-dars

UYUSHIQ HOL

238-mashq. Berilgan gaplardagi hol bo‘laklarni aniqlang. Ularning gapdagi qaysi bo‘lakka bog‘lanayotgani va qanday ohang bilan aytilayotganligini izohlang.

1. Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo‘g‘otlarda chumchuqlar chirqillashadi. (*M. Ism.*) 2. Qush goh ko‘tarilib, goh pastlab bir joyda uchib turdi. (*Y.Sh.*) 3. Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo‘liga olar, suyar va gaplariga, qiliqlariga zavq bilan kular edi. (*O.*) 4. Endi qizlar charchashib, terlashib... tog‘ning ustiga chiqib olishdi. («*Gulnor pari*»)



Bilib oling. Bir xil mazmun-munosabatni (yo tarz, yo o‘rin, yo payt va b. munosabatlarni) bildirgan bir necha holning o‘zaro sanash ohangi bilan, teng bog‘lanib kelishi **uyushiq holni** hosil qiladi: **Tomlardan, ivigan devorlardan bug‘ ko‘tarila boshladi.** (*S.A.*) **Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi. U dam hazil bilan, dam jiddiy so‘rardi.**


Bir sodda gap tarkibida yonma-yon, qator kelgan bir necha payt holi hamma vaqt uyushiq bo‘lavermaydi. Masalan, *U kecha ertalab biznikiga kelib ketdi* gapida ikkita payt holi (**kecha, ertalab**) bor. Lekin ular uyushiq emas: bundagi **ertalab holi kecha holi** ma’nosidagi paytni chegaralab, aniqlashtirib beradi.

239-mashq. Nuqtalar o‘miga vergul va teng bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Qaysi bo‘laklar uyushgan va ular qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini aniqlang.

N a m u n a: *U hayajon bilan* (ot), *tez-tez* (ravish), *bo‘g‘ilib* (ravish-dosh) *so‘zlar edi.*

1. *U hayajon bilan... tez-tez ... bo‘g‘ilib so‘zlar edi.* (*A.Q.*)
2. *Saida ... afsuslanib ... kuyib ... kulib gapirib berdi.* (*A.Q.*) 3. *Ufqqa*

tutashib ketgan polizlar ... tokzorlar ... qizg'ish ... qahrabo rangda tovlanadi. (P. Q.) 4. Podsho ... kulib ... jiddiy... o'y bilan quloq soldi. (O.)

 **240-mashq.** «Fizika darsida», «Katta tanaffusda» mavzularidan biriga oid matn tuzing. Unda teng bog'lovchilar va sanash ohangi bilan bog'langan uyushiq bo'laklar ishtirok etsin.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Uyushiq hollar qanday hosil bo'ladi? Ular o'zaro qanday bog'lanadi?
2. Gap tarkibida yonma-yon kelgan hol bo'laklar qachon uyushiq bo'lak hisoblanmaydi? Fikringizni misol bilan asoslang.
3. Uyushiq hollarning talaffuzi va yozilishi haqida gapiring.


 **241-mashq.** Uyga vazifa. Payt hollarini uyushiq holda qo'llab 3 ta gap tuzing.

89-dars

UYUSHIQ TO'LDIRUVCHI. UYUSHIQ ANIQLOVCHI

242-mashq. Gaplardagi to'ldiruvchi va aniqlovchilarni topib, bog'langan so'zi bilan ko'chirib yozing.

1. Maxdum bo'ychan, olago'sht, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi. (A. Qod.) 2. Tog' etaklaridan nafis gullarning, xushbo'y giyohlarning hidlari anqiydi. (O.) 3. O'n-o'n bir yoshli bola dushmanlar keltirgan ochlik va boshqa kulfatlarni kattalar qatori boshidan kechirdi. (P. Q.) 4. Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo'yardi. (P. Q.) 5. Men onam, otam va opam bilan xayrlashib, yo'lga tushdim. 6. Munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko'k, qizil, oq, pushti, sariq, qora gullari yulduzlardek yashnab, uyga bir hayotiylik berar edi. (A. Qod.)

 **Bilib oling.** Gapdagi ikki va undan ortiq to'ldiruvchi bir xil ma'noni (shaxs yoki narsani) bildirib, bir xil shaklda (kelishik shaklida yoki ko'makchi bilan) kelsa va sanash ohangiga ega bo'lsa, bular **uyushiq to'ldiruvchilar**dir: *Taram-taram otmalarni, asl nashvatilarni, po'sti yupqa luchchak shaftolilarni, quymoqqa o'xshash anjirlarni aytmay sizmi, bay-bay.* (O.)

Har xil ma'noni bildirgan, turli shakllarda kelgan to'ldiruvchilar uyushiq hisoblanavermaydi. Masalan, *Bu daftarni senga*

oldim gapidagi **daftarni** va **senga** to'ldiruvchilari uyushmagan. Chunki ularning biri (**daftarni**) narsa-buyum ma'nosini, ikkinchisi (**senga**) atalganlik ma'nosini ifodalaydi.



Zukkolariga topshiriq. Uyushiq to'ldiruvchi va gapda yonma-yon kelgan bo'lsa-da, uyushmagan to'ldiruvchilar qatnashgan 3 tadan gap tuzing va izohlab bering.

243-mashq. «Sinfimiz o'quvchilari hasharda» mavzusida matn tuzing. Unda uyushiq to'ldiruvchi va uyushiq aniqlovchilardan foydalaning.



Bilib oling. Narsa-buyumlarning bir turdagi belgilari (yo rang-tusini, yo maza-ta'mini, yo son-miqdorini va hokazo)ni bildirgan birdan ortiq aniqlovchilar **uyushiq aniqlovchilar** hisoblanadi: *Bog'imizda oq, qizil, pushti gullar qiyg'os ochilib yotibdi.*

Shuningdek, bir narsa-buyumning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchilar ham **uyushiq aniqlovchilar** sanaladi: *Chaqaloq kichkina, oppoq va dumaloq qo'llarini cho'zib, menga talpinar edi. (Y. Sh.)*

Uyushiq aniqlovchilar o'zaro sanash ohangi bilan teng bog'lanadi va aniqlanmishga baravar tobe bo'ladi.

Qaratqich aniqlovchilar uyushib kelganda, ulardagi **-ning** qo'shimchasi ba'zan barcha bo'laklarda saqlanadi, ba'zan esa faqat oxirgi aniqlovchiga qo'shiladi, u oldingilarga ham taalluqli bo'ladi: *To'lqinning, Ozodaning va Shoiraning ukalari bog'chada tarbiyalanadilar. — To'lqin, Ozoda va Shoiraning ukalari bog'chada tarbiyalanadilar.*




244-mashq. Uyushgan aniqlovchilarni toping. Avval uyushgan sifatlovchi aniqlovchilarni, so'ng uyushgan qaratqichli aniqlovchilarni ko'chirib yozing.

1. Men sizga O'zbekistonning uzoq qishloqlaridan birida o'sgan, beg'ubor yaylov havosida chiniqqan, bir necha bor yirtqich hayvonlar hujumiga yo'liqqan qo'rqmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola haqida hikoya qilmoqchiman. *(Y.Sh.)* 2. Yoqimli, orombaxsh shamol esadi. *(O.)* 3. Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi. *(P.Q.)* 4. Unga Volkov mashinalarning va turbinalarning vagonga yuklangani haqida xabar qilgan edi. *(S.A.)* 5. Ko'p o'tmasdan sergo'sht, juda mazali shavla tortildi. *(O.)* 6. Shu payt yonimizdan ikki muloyim, nuroniy chol o'tib qoldi. *(O.)*

? Savol va topshiriqlar


1. Uyushiq to'ldiruvchiga tavsif bering. Ularning talaffuzi va yozilishi haqida so'zlang.
2. Qanday aniqlovchilar uyushiq aniqlovchilar deyiladi?
3. Uyushiq aniqlovchi va yonma-yon kelib uyushmagan aniqlovchilarga misollar keltiring.

 **245-mashq.** *Uyga vazifa.* Uyushiq bo'laklarning ohangiga e'tibor berib o'qing, so'ngra tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Vergulning qo'llanilishini izohlang.

1. Uning niyatini do'stligini qushlar tushundilar. 2. Jannatxon musiqani ashulani juda sevar edi. (*P.Q.*) 3. Bola qoshida ota-onaning so'zi bilan ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir. (*R. Usmonov*)
4. Quyosh yorug'ida ko'k sariq qizg'ish qum zarrachalari yaltirardi. (*Y.Sh.*)

90-dars

UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI SO'Z


 **Bilib oling.** Uyushiq bo'laklar gapda **umumlashtiruvchi so'zga** ega bo'lishi mumkin. Umumlashtiruvchi so'z uyushuvchi bo'laklar ma'nosini umumlashtiradi, shuning uchun bu qism umumlashtiruvchi ma'noli so'zlar [olmoshlar, otlar, fe'llar (otlashgan sifatdosh) va h.k.], so'z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin.


Uyushuvchi bo'laklar umumlashtiruvchi so'zning ma'nosini izohlab, aniqlab keladi.

246-mashq. Berilgan gaplardagi umumlashtiruvchi so'zning uyushiq bo'laklarga nisbatan o'zini aniqlang, umumlashtiruvchi so'z va uyushgan bo'laklar orasida qanday tinish belgilari qo'llanilishi haqida umumlashma tuzing.


1. Yig'ilishda hech kim: na Sa'dulla, na Akbarali bu haqda gapirmadilar. 2. Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron — hech narsa dovyuraklarni qo'rqitmadi. 3. Hammasi: quyosh ham, oy ham, daryo-yu dengiz ham, tog'-u cho'llar ham yigitga yordam beribdi. (*Ertakdan*) 4. Yaxshi xislati bor: oppoq soqoli bilan


farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il-qizlarni ham, ko'cha-ko'ydagi begona bolalarni ham — xullas, barchani sizlab gapirardi. (*O.M.*) 5. Bittangiz: yo Shahobiddin yoki siz so'zga chiqasiz. (*Y.Sh.*) 6. Hasharda hamma ishladi: yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni supurdi, kattalar mashinaga yukni ortdi.

 **Bilib oling.** Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan so'ng **ikki nuqta** (:) qo'yiladi. Bu so'z uyushuvchi bo'laklardan keyin kelsa, **tire** (—) bilan ajratiladi.

247-mashq.  *1-topshiriq.* Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o'z o'rniga qo'yib gaplarni ko'chiring. Umumlashtiruvchi birliklarni aniqlab, ularning qo'llanish o'rnini va tinish belgilarining vazifasini tushuntiring.


1. Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar sa'va bulbul mayna va boshqalar unga jo'r bo'ldi. (*N. Fozilov*) 2. Samarqandlik bag'dodlik misrlik hindlik va xitoylik hamma sayyohlarga bu shahar manzur bo'ldi. (*O.*) 3. Hamma narsa uylar devorlar daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi. (*O.*) 4. Tabiat hodisalari shamol, qor, yomg'ir, do'l o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. (*Gazetadan*)

 *2-topshiriq.* Umumlashtiruvchi birliklarni tushirib qoldirgan holda gaplarni qayta o'qing va yozing. Tinish belgilarining qo'yilishida yuz bergan o'zgarishlarni ayting va yozing.

 **248-mashq.** O'zingiz barcha, hamma so'zlarini umumlashtiruvchi so'z vazifasida keltirib, uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.

 **Savol va topshiriqlar**

1. Uyushiq bo'lakli gaplardagi qanday bo'lak umumlashtiruvchi so'z deyiladi?
2. Umumlashtiruvchi so'z o'rnida qanday birliklar keladi? Misollar keltiring.
3. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin va keyin kelganda qaysi tinish belgilari bilan ajratiladi?

 **249-mashq.** *Uyga vazifa.* Uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlarni qo'llab, quyidagi rasm asosida «Navro'z bayramida» mavzusida insho yozing.



91 - dars

MUSTAHKAMLASH DARSI

? Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Gapning qaysi bo'laklari uyushib kelishi mumkin?
2. Uyushiq bo'laklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Bir gapda bir necha xil gap bo'lagi uyushib kelishi mumkinmi?
4. Umumlashtiruvchi so'z vazifasida qaysi so'z turkumidagi so'zlar kela oladi?
5. Umumlashtiruvchi so'zning gapda joylashuv o'rni va unda ishlatiladigan tinish belgilari haqida so'zlang.

250- mashq. 1- topshiriq. «O'quvchilar kecha maktab bog'ida pishib yetilgan o'riklarni terishdi» gapidan navbatma-navbat:

- 1) faqat uyushiq egali;
- 2) faqat uyushiq payt holli;
- 3) faqat uyushiq qaratqich aniqlovchili;
- 4) faqat uyushiq sifatlovchi aniqlovchili;
- 5) faqat uyushiq vositasiz to'ldiruvchili gaplar hosil qiling.

2- topshiriq. Hosil qilgan bir xil uyushiq bo'lakli gaplaringizdan 2–3 xil uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.

Zukkolarga topshiriq. Ikkinchi topshiriqni bajarish asosida tuzgan gaplaringizdagi uyushiq bo'laklarni alohida ko'chiring va ularni tahlil qilib, uyushiq bo'laklarni so'z qo'shilmasi yoki so'z birikmasi tashkil etayotganligini aniqlang.

251- mashq. «Gapda uyushiq bo'laklar va ularda tinish belgilari» mavzusi bo'yicha «Topqirlar bellashuvi» yoki «Zukkolarni o'yini» o'tkazing.

252-mashq. O‘qing. Uyushgan to‘ldiruvchi va hollarni topib, ularning so‘rog‘i va turini ayting. Uyushgan to‘ldiruvchi va hollarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga alohida-alohida ko‘chirib, tagiga chizing.

1. Qizlar goh undan, goh bundan gaplashib hovli aylanishdi. (O.) 2. Ortiq ishongisi kelmay, avval Avazga, so‘ng Turdiga qaradi. (P.Q.) 3. Qo‘ldosh ota... ovozni, shovqinni yaxshi angalay olmaydigan bo‘lib qoldi. (H.G‘.) 4. Zorqishloq ko‘chalarida, adir va soylarida, serdaraxt bog‘larida ko‘klam namoyishi kezadi. (S. A.) 5. Alimardon ham quvonch, ham zavq bilan unga burilib qaradi (O‘.H.)



253-mashq. *Uyga vazifa.* Uyushiq bo‘laklar orasiga teng bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Qaysi bo‘laklar uyushib kelganini aniqlang.

1. Qizlari o‘qidi ... o‘sib ulg‘aydi. (Y.Sh.) 2. Lolaning ko‘ziga yosh keldi ... yig‘lamadi. (Y.Sh.) 3. Quadratni ... Zamonni ... Davronni shaharga jo‘natishdi. (M.Ism.) 4. Uning sho‘x ... ma‘yus ko‘zlariga tikildim. (G‘.G‘.) 5. Uning gaplarida ... tovushida ... o‘jizlik sezilib turar edi. (As.M.)

92 – 93-darstar


YOZMA NAZORAT ISHI VA UNING TAHLILI

94-dars

AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLAR, ULARDA OHANG VA TINISH BELGILARI

254-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan so‘zlar (yoki so‘z birikmalari)ning qanday vazifa bajarayotganligi va qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganligini aniqlang.

1. Men, **G‘ulomova Shohida**, hozir 8-sinfda o‘qiyman.
2. Ularni, **qo‘l to‘pi sportchilarini**, boshqa ishlarga jalb qilmaslikka qaror qilindi. 3. Bugundan, ya‘ni **6-maydan 13-maygacha**, biz final musobaqalariga tayyorlanamiz. 4. Onasi ham bolasining, **baxti qora jigargo‘shasining**, ko‘zlarida shu zor-u mushtoqlik olovini ko‘rdi. (M. Ism.)

 **Bilib oling.** Bu gaplardagi ajratilgan qismlar **ajratilgan bo'laklar**dir.

Gapning ajratilgan bo'laklari o'zlari aloqada bo'lgan bo'laklarning ma'nosini izohlab, bo'rttirib, aniqlashtirib yoki ta'kidlab keladi. Ular boshqa bo'laklardan maxsus to'xtam bilan ajralib, gap urg'u (mantiqiy urg'u)sini oladi. Misollar: *Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — **Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga** — Sattor bir lahzada yetdi. (P.Q.) Sizga, **o'rta bo'yli qizga**, atlas juda yarashibdi. (Y.Sh.)*

Ajratilgan bo'laklar: a) bir bo'lak holida keladi: *Boyagi yigitning, **Avazning**, qo'li gul ekan. (P.Q.);* b) birikmali bo'lak holida keladi: *Shu kuni kechqurun, **daladan qaytishda**, qori Siddiqjonga hamroh bo'lib qoldi. (A.Q.)*

Ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan doimo keyin keladi va yozuvda vergul, tire va ba'zan qavs bilan ajratiladi.


Ajratilgan bo'laklar, gapdagi qaysi bo'lakka oid ekanligiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: **ajratilgan hollar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan to'ldiruvchilar.**

255-mashq. Gaplarni o'qing, kerakli o'rinlarga tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Biz sizning do'stlaringiz yo'l qo'yilgan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik. *(Sh.R.)* 2. Bu xabar ko'plarni shu jumladan Mahkamni ham juda quvontirdi. *(P.Q.)* 3. Biz mana shu xo'jalik hayotidan nafis film ya'ni kartina yaratmoqchimiz. *(A.Q.)* 4. Biz ota-o'g'il uydan chiqib bobomning hovlisiga bordik. *(S.A.)*

 **Savol va topshiriqlar**

1. *Ajratilgan bo'lakning gapdagi xizmati nimada?*
2. *Ajratilgan bo'laklar gapning qaysi bo'lagiga aloqador bo'ladi va qanday talaffuz qilinadi? Fikringizni misollar bilan dalillang.*
3. *Ajratilgan bo'laklar gapning qayerida joylashadi va qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?*
4. *Gapdagi qaysi bo'lakka oidligiga ko'ra ajratilgan bo'laklarning turini ayting.*

 **256-mashq.** Uyg'a vazifa. Badiiy asarlar matnidan ajratilgan bo'laklar qatnashgan 3 ta gap topib yozing.

AJRATILGAN HOL, AJRATILGAN TO'LDIRUVCHI VA AJRATILGAN ANIQLOVCHI

257-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan bo'laklarning qaysi gap bo'lagiga oidligini ayting.

1. Dadam shu atrofdan — qishloqning chiqaverishidan — do'kon qidirdi. (A.Q.) 2. Orqada tikka turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlarning orasiga oldi. (A.Q.) 3. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam! (O.) 4. Cho'ponotadan bir chaqirimcha pastlikda, Bo'zsvuning naq bo'yida, uch-to'rt tup jiyda o'sgan bir xilvat joy bor. (O.Y.) 5. Bektemirga, sobiq sodda cho'ponga, komandirning fikri g'oyat yoqdi (O.)



Bilib oling. Yuqoridagi mashqdan ma'lum bo'ladiki, hollar ham, to'ldiruvchilar ham, aniqlovchilar ham ajratilgan holda qo'llanishi mumkin.

Ajratilgan hol o'zidan oldin kelgan holning ma'nosiga aniqlik kiritadi, izohlaydi. Ajratilgan bo'lak vazifasida, ko'pincha, o'rin, payt hollari keladi: *Hu ana shu joyda, taxta ko'prikning ostida, kichik bir buloq bor.* (A.Q.)

Ajratilgan to'ldiruvchi o'zidan oldin kelgan to'ldiruvchining ma'nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Vositasiz to'ldiruvchi ham, vositali to'ldiruvchi ham ajratilgan bo'lak sifatida qo'llanishi mumkin: *Nasihatimni, otangning so'zini, esingda tut. Xatni uning o'ziga, Muqaddasga, bering.*

Ajratilgan aniqlovchi shaxs yoki narsaning belgisini, kimga yoki nimaga qarashlilikini ta'kidlab, ayirib ko'rsatish uchun qo'llanadi: *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi.* (A.Q.) *Bizning, o'quvchi yoshlarning, o'zimizga yarasha ornomusimiz bor.*

Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan keyin keladi va o'ziga xos ohang bilan aytiladi.


Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, egaga taalluqli bo'ladi: *O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, — dedi ona. Birozdan so'ng Hasan aka, fizika o'qituvchisi, kirib keldi.*

258-mashq. O'qing. Ajratilgan bo'laklarni topib, turini belgilang. Ajratilgan aniqlovchi, ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan holli gaplarni alohida-alohida ko'chiring.

1. ...Bu kampir Toshkentda ishlaydigan o'g'linikida bir oy turib, yana qishloqqa, boshqa bolalari, nevaralari huzuriga ketayotgan ekan. (*M. Salom*) 2. Axir uning, Vohidning ham o'zi-ga yarasha obro'si, yigitlik g'ururi, izzat-nafsi bor-ku! (*O. Y.*) 3. Mana hozir ham Akromning yolg'iz unga, Sayyoraga, tanish bo'lgan bo'lakcha bir samimiyat to'la xatini o'qirkan, ... tomog'iga bir nima kelib tiqildi. (*O. Y.*) 4. Boyagi yigitning, Avazning, qo'li gul ekan. (*P. Q.*) 5. Otam — Rustam Jo'rayev — maktabda biologiyadan dars beradi. 6. Soyda, qo'shyong'oqning tagida, oppoq qorga ko'milib uzoq turdi. (*O. Y.*)

Savol va topshiriqlar

1. Ajratilgan hol bo'laklarning gapdagi xizmati, aytilishi va yozilishi haqida gapiring.
2. Ajratilgan to'ldiruvchi qanday xususiyatlarga ega?
3. Ajratilgan aniqlovchi qaysi maqsadlarda qo'llanadi?
4. Ajratilgan izohlovchini tavsiflang.

 **259-mashq.** Uyga vazifa. Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring, ajratilgan aniqlovchilarni topib, tagiga chizing.

1. Siyrak daraxtli ikkinchi bir tepalikda bir necha kishilarning ayol va erkaklarning qorasi ko'rindi. (*O.*) 2. Ulardan biri ko'zoynakli keksa hammadan keyin qolib uzoq suhbatlashdi. (*R.F.*) 3. O'zim injenerman; O'zbekistonning Sizing yurtigingizning ta'rifini eshitganman. (*Gazetadan*)



GAP BO'LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN «BO'LAKLAR»

96-dars

KIRITMALAR

260-mashq. *1-topshiriq.* Berilgan gaplarda ajratilgan so'zlar qanday vazifa bajarib kelayotgani va qanday ma'no ifodalashini ayting.

1. **Qani**, kiring, ichkarida bimalol gaplashamiz. 2. Yolg'on gapirish, **albatta**, gunohdir. Lekin o'rinsiz haq so'zdan, **nazarimda**, sukut yoki bezarar yolg'on yaxshiroq. **Masalan**, Hakim kasali tuzalish bosqichidan o'tgan bemorning umidli savoliga, **sizningcha**, qanday javob berishi kerak? **Shakshubhasiz**, o'lasiz debmi yoki, **inshoolloh**, tuzalib ketasiz debmi? («*Hakimning nutq odobi*»dan) 3. **Nahotki**, daryolar oqar teskari, **nahotki**, odamlar kezar darbadar. 4. **Xayriyat**, vaqtida yetib keldik. 5. **Aytishlaricha**, bugun kelishlari kerak. 6. **Demak**, ertalab uchrashamiz. 7. **Yaxshi hamki**, yomg'ir yog'madi.

2-topshiriq. Gaplardagi ajratilgan so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubligini ayting.

Bilib oling. Yuqoridagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan qismlar **kiritmalar** deyiladi. Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga aloqador bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi.

Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig'i, inkori va h.k.), fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatligi darajasi (**birinchidan**, **ikkinchidan** va h.k.), fikri va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi.

Kiritmalar barcha bo'laklar kabi sodda va murakkab bo'ladi. **Sodda kiritmalar** so'zlar va so'z-gaplar bilan, **murakkab kiritmalar** esa

soʻz birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi.

261-mashq. Gaplarni oʻqing. Kiritmalar qanday maʼnoni ifodalash uchun qoʻllanganligini ogʻzaki tushuntiring.

1. Afsuski, hali oʻzlashtirilmagan yerlar juda koʻp. 2. Menimcha, oqil va sodiq er oʻz rafiqasi uchun eng bebaho bezakdir. 3. Baxtga qarshi, Saida uning xohishini payqamadi. (*A.Q.*) 4. Dunyoda hech bir xalq toʻgʻri kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga. (*H.O.*) 5. Toʻgʻri, u aravani quruq olib qochadigan maqtanchoqlardan emas. (*«Mushtum»*) 7. Ehtimol, bu ishni oʻzing bajararsan. (*H. Noʻmon*) 8. Chindan ham, mashina dehqonning ogʻirini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi. (*Gazetadan*)

262-mashq. Rasmni kuzating. Undan foydalanib, «Bu voqea oʻtgan yozgi taʼilda boʻlgan edi» mavzusida insho yozing. Inshoda kiritmalardan foydalaning.



Savol va topshiriqlar

1. Kiritmalar deb nimaga aytiladi?
2. Kiritmalar gap boʻlaklari bilan sintaktik aloqaga kirishadimi?
3. Gapda kiritmalarining xizmati nimalardan iborat?
4. Kiritmalar tuzilishi (necha soʻzdan iboratligi)ga koʻra necha xil boʻladi?
Misollar bilan tushuntiring.



263-mashq. *Uyga vazifa.* Qarindosh-urugʻlaringiz haqida axborot matni tuzing. Unda kiritmalardan foydalanishga harakat qiling.

UNDALMA

264-mashq. 1-topshiriq. Gaplarni qiyoslang. Ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni toping.

1. Paxtakorlar g' o' zaga ishlov berishni kuchaytirdilar. — Paxtakorlar, g' o' zaga ishlov berishni kuchaytiringiz!

2. O'quvchilar dam olish kunini ko'ngilli o'tkazdilar. — O'quvchilar, dam olish kunini ko'ngilli o'tkazing.

3. O'zbekistonning har bir qarich yeri biz uchun muqaddas. — O'zbekiston, har bir qarich yering biz uchun muqaddas!

4. Kitob — mening doimiy do'stim. — Kitob, mening doimiy do'stimsan.

2-topshiriq. Yuqoridagi gaplarning ega va kesimini aniqlang.

3-topshiriq. Undalmaning egadan farqi xususida umumlashma xulosa chiqaring.



Bilib oling. Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni, narsa (obyekt)ni bildiradi. Undalmalar ham ega singari bosh kelishikda qo'llaniladi, ammo ega grammatik jihatdan gapda kesim bilan bog'lanadi, undalmalar esa grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi. Undalmali gaplarning kesimi, ko'pincha birinchi va ikkinchi shaxs-son shakllarida bo'ladi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi. Undalmaning gapdagi o'rni erkindir: gap boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin.


Undalmalar ba'zan jonivorlar yoki jonsiz narsalarga ham qaratiladi: *Qarg'avoy, men seni yeyman. (Ertakdan) Seni unutilmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo. (G'G')*

Undalmalar uyushib kelishi ham mumkin: *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz kabi.*


265-mashq. Undalmali gaplarni o'qing, undalmaning o'qilish ohangi haqida xulosa chiqaring.

1. Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaveribsanda, noinsof! (I.Sulton) 2. Kitob, sen bo'lmasang, balki kun yorishmasdi.

(*I.G'ani*) 3. O'-'o', boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan bo'lsang-u, iymon ketadigan bo'lsa, men senga o't qo'yaman, o't!
(*I.Sulton*) 4. Yurak, sensan mening sozim. (*U.Nosir*) 5. Inim, kitoblarni sandiqlarga joylashtiravering. (*Mirmuhsin*)

266-mashq.  *1-topshiriq.* O'qing. Undalmalarni aniqlang. Tinish belgilarining qo'llanilish sabablarini tushuntiring.


1. Muhtaram Umidaxon, sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan tabriklayman. 2. Jahonga yuz tutgan O'zbekistonim, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir. 3. Vatanimiz muvaffaqiyatlarini ko'rolmaydigan quzg'unlar, ayting, O'zbekistonning taraqqiyotiga kim g'ov bo'la oladi?! (*Gazetadan*)

 *2-topshiriq.* Yoyiq undalmalar haqida xulosa chiqaring.

 **Bilib oling.** O'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar **yoyiq undalmalardir.**

 **Savol va topshiriqlar**

1. Undalma deb nimaga aytiladi?
2. Undalma bilan eganing o'xshash va farqli tomonlari haqida so'zlang.
3. Undalma gapning qaysi o'rnida kelishi mumkin?
4. Uyushiq undalmalarga misollar ayting.
5. Qanday undalma yoyiq undalma hisoblanadi?
5. Undalma qatnashgan gapning kesimi qanday shaklda bo'ladi?

 **267-mashq.** *Uyga vazifa.* She'riy asarlardan undalmaning qo'llanishiga 3–4 ta misol topib yozing.

98-dars


UNDALMALARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANILISHI

268-mashq. Undalmalardan keyin undov belgisining ishlatilishiga e'tibor berib o'qing, undalmalarning gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Aziz vatandoshlar! Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko'zlab yashaganlar.
2. Zafar! Oyimlar keldilar. (*P.Q.*)
3. — O'g'lim Yodgor! Aftidan, meni tanimading, — dedi chol. (*S.A.*)


4. — Sobir! Eski oshnalaringni topib keldim, — dedi Quadrat.
(S.A.)


5. Aziz sinfdoshlar! Bu sharaflı ishga barchamiz mas'ulmiz.
(S. Bamoyev)

 **Bilib oling.** Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytilsa, undalmadan keyin vergul emas, undov belgisi qo'yiladi.

269-mashq. *1-topshiriq.* Tushirilgan tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. So'zla ko'zgujon haqiqatni et bayon. 2. Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. (*Majid Havofiy*)
3. Harakat sen ezgulikning haqiqiy qadr-qimmatini belgilaysan. (*Sitseron*)
4. Ha erka qizalog'im sen mening kelajagim, umidimsan.

 **2-topshiriq.** Undalmali gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi xususida xulosa chiqaring.

 **Bilib oling.** Undalma gap boshida kelsa, undan so'ng, o'rtada kelsa, ikki tomondan, oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi.

270-mashq. Undalmali gaplar tuzing. Ulardan oldin *ey, hoy, oh* undovlarini qo'shib o'qing. Gap mazmunida qanday o'zgarish bo'layotganligini tushuntiring.

271-mashq. *1-topshiriq.* Matnni o'qing. Unga qanday sarlavha qo'yish mumkin? Matnda chin insonga xos bo'lmagan qanday salbiy xususiyatlar tanqid qilingan? So'zlab bering.

Ariq bo'yida turgan qariya shu o'rtada o'ynab yurgan bolaga yalindi:

— Hoy o'g'lim, bu yoqqa kel, tezroq!

— Nima ishingiz bor, aytavering, — dedi bola yaqin kelmay.

— Ariq chuqur ekan, qo'limdan ushlab tur — suv olvolay...

— Ey, engashib olaqoling-da o'zingiz!

— Belim bukilmaydi, dardmandman, — dedi qariya o'ksinib.

— Yonboshlab paqirni suvga solsangiz to'ladi, keyin asta ko'tarasiz.

Shu ham ish bo'пти-yu...

— Aql o'rgatguncha, yordamlashib yuborsang-ku, olam guliston edi, bolam, — dedi chol.

— Ha, hammaning ishini qilaverib, malay bo‘lib qolaymi? — dedi bola yalqovlanib.

— O‘taketgan yalqov ekansan, — dedi kekxa va qiynalib suv ola boshladi. Yalqov esa pinagini buzmay, o‘yin bilan ovora edi...

(Sh. Sa‘dulla)

2-topshiriq. Matndagi undalmalarni aniqlab, qaysi tinish belgilari bilan ajratilganini sharhlang.

Savol va topshiriqlar

1. Undalmalarda, gapdagi o‘rniga ko‘ra, qanday tinish belgilari qo‘llanishi haqida gapiring.
2. Undalma alohida ohang bilan aytilib, gap boshida kelsa, undan so‘ng qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

272-mashq. Uyga vazifa. Tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Undalmalarni belgilang.

1. Kelajagimiz porloq o‘rtoq Farmonov. (As.M.)
2. To‘xtanglar bolalar quyvon sal nafasini rostlasin. (H.N.)
3. Ko‘chada katta bayram xalq hammasi ko‘chada nima qilib uyda o‘tiribsiz usta? (O.)
4. Aziz kitobxon katta oilaning qissalari tugamadi. (As.M.)
5. Ona yurtim mustaqil O‘zbekiston gullab, yashnayver.
6. Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi Otabek.
7. Qushlar qushlar hoy qushlar qanot qoqib kelinglar. (Z.D.)
8. O‘quvchilar topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaringiz.
9. O‘rtoqlar Aziz o‘rtoqlar haqiqat o‘z o‘rnini topdi.

SODDA GAP YUZASIDAN O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

99-dars

TEST TOPSHIRIQLARI

100–101-darslar

SODDA GAP TAHLILI

Tahlil tartibi

Sodda gap bo‘yicha to‘liq sintaktik tahlil 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi (so‘z birikmasi) bo‘yicha.
2. Gap bo‘laklarini aniqlash bo‘yicha.
3. Gap qurilishi bo‘yicha.

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi bo‘yicha tahlilda:

- a) birikmaning teng bog‘lanishi yoki tobe bog‘lanishidagi turi;
- b) tobe bog‘lanish bo‘lsa, tobelanish turi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);
- d) teng yoki tobe bog‘lanishni yuzaga keltirgan vositalar (bog‘lovchilar, ohang, so‘z shakllari, ko‘makchilar, so‘z tartibi) aniqlanadi.

Gap bo‘laklarini aniqlash bo‘yicha tahlilda:

- a) gap bo‘laklari belgilanadi, uyushiq va ajratilgan bo‘laklar bor yoki yo‘qligi izohlanadi;
- b) gap bo‘laklari bilan munosabatga kirishmagan «bo‘laklar» (kiritma, undanmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) ko‘rsatiladi;
- d) gap bo‘laklarining joylashuv tartibi (me‘yoriy tartibda yoki o‘zgargan tartibda) izohlanadi.

Gap qurilishi bo‘yicha tahlilda:

- a) gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi (darak, so‘roq, buyruq, istak);

b) gapning his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra turi [his-hayajonsiz yoki his-hayajonli (undov) gap];

d) yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi, to'liq yoki to'liqsiz gapligi, egali yoki egasiz gap ekanligi; egali gap bo'lsa: uning egasi ma'lum gap yoki egasi umumlashgan gapligi; egasiz gap bo'lsa, uning shaxsi noma'lum gapligi, atov yoki so'z-gapligi izohlanadi.

Tahlil namunasi

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

1. Gapda so'zlarning bog'lanishi:

1) *inson baxtli bo'ladi* — tobe bog'lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik);

2) *ilm bilan va mehnat bilan* — teng bog'lanish, va teng bog'lovchisi orqali bog'langan;

3) *ilm bilan baxtli bo'ladi* — tobe bog'lanish, boshqaruv, **bilan** ko'makchisi orqali bog'langan;

4) *mehnat bilan baxtli bo'ladi* — tobe bog'lanish, boshqaruv, **bilan** ko'makchisi orqali bog'langan.

2. Gap bo'laklarini aniqlash:

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

Uyushiq bo'lagi bor: **ilm bilan, mehnat bilan.**

Ajratilgan bo'lagi — yo'q.

Kiritma bor: **shubhasiz.**

Undalma — yo'q.


Gap bo'laklarining joylashuvi — me'yoriy.

3. Gap qurilishi tahlili:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra — darak gap.

2. His-hayajonning ifodalanishiga ko'ra — his-hayajonsiz gap.

3. Tuzilishiga ko'ra — sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

 **I-topshiriq.** Darslikdagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi gaplarni sodda gap bo'yicha to'liq sintaktik tahlil qiling.

1. Ertalabki kuchli shamol maktab bog'idagi daraxtlarning mevalarini to'kib yubordi. (*A.Muqimov*) 2. Bu tepalikka chiqish

orqada qolgan yoʻlning azobidan ham ortiqroq boʻldi. (*H.G.*)
3. Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi! (*O.Y.*) 4. Ota yuz-qoʻllarini yuvgandan soʻng sal nariga borib oʻtirdi. (*H.N.*)
5. Oʻquvchi bolalarga, yigit va qizlarga atab yozilgan qoʻshiqlar koʻp. (*Gazetadan*) 6. Sobirov (hozir u fermer xoʻjaligi raisi) majlisni qisqa kirish soʻzi bilan ochdi. (*Gazetadan*) 7. Dala yoʻlining ikki tomonidagi bogʻlar gullar bilan qoplangan. (O.) 8. Mashina Farhod togʻi tagiga kelib toʻxtaydi. (Oydin) 9. Komila Oʻktamni katta boqqa olib kirdi. (O.)



2-topshiriq. Uyga vazifa. Quyidagi sodda gaplarni toʻliq sintaktik tahlil qiling.

1. Maktabimiz toʻrt qavatli yangi binoga joylashgan.
2. Mehnatda, ijodda, sanʼatda, fanda Kattadir yoshlarning qoʻshgan hissasi. (*U.*)

102-dars

YAKUNIY DARS. YOZGI TAʼTILGA TOPSHIRIQLAR



ESLATMALAR

Diktant yozishga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak

1. Matnni diqqat bilan tinglang; undagi asosiy mazmunni anglab olishga harakat qiling.

2. Gapning mazmuni va ohangi asosida unda qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari qo'yishni mo'ljallang.

3. Matn ikkinchi marta o'qilayotganda sizga qiyin bo'lgan so'zlarga diqqatingizni jalb qiling. Ularning to'g'ri yozilish shaklini topishga harakat qiling.

4. Yozishga ulgurmay qolgan so'zlarga joy qoldiring.

Bayon yozishga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak

1. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing (tinglang).

2. Siz uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlar ma'nosini aniqlang.

3. Matnning asosiy mazmunini anglab oling. Mazmunni yoritish uchun muhim bo'lgan so'z, so'z birikmasi va gap (jumla)ni toping.

4. Matnni qismlarga bo'ling va ularga sarlavha qo'ying.

5. Tinish belgilarining o'rni va vazifalarini belgilab oling.

6. Matnni yana bir bor o'qib chiqing.

Insho yozishga qanday tayyorgarlik ko'riladi

1. Avvalo, insho uchun mavzu tanlang. Shuni esda tutingki, mavzuga sarlavha tanlash muhim ahamiyatga ega. Inshoda nimalar haqida fikr yuritishingizni aniqlab oling.

2. Inshoning rejasini tuzing. Uning asosiy mazmunni aks ettirishi, insho mavzusi yuzasidan yoritmoqchi bo'lgan fikrlaringizga to'g'ri kelishi haqida o'ylang. Mavzuni yoritish uchun qanday shakl, qanday uslubni qo'llashingizni belgilab oling.

3. Mavzuni yoritish va bayon qilish uchun zarur ma'lumotlarni, ko'chirmalarni tanlang.

4. Inshoning qoralamasi tayyor bo'lgandan keyin uni o'qib chiqing: unda mavzu yetarli yoritilganmi? Rejada ko'rsatilgan bo'limlar to'liq yoritilmagan bo'lsa, ularni to'ldiring. Bunda mavzu (sarlavha) bilan insho mazmunining mos kelishiga ahamiyat bering.

5. Inshoning tili (bayon uslubi)ga alohida e'tibor bering. Sizning fikr-mulohazalaringiz qay tarzda ifodalangan: tilda badiiylilik, ta'sirchanlik, ixchamlik va jozibadorlikka erishdingizmi? Yozilishi qiyin so'zlamni «Imlo lug'ati» asosida tekshirib chiqing. Zarur o'rinlarda tuzatishlar kiriting va inshoni oqqa ko'chiring.

So'zning qaysi turkumga oidligini aniqlash

1. So'zning umumiy ma'nosini toping.

2. Uning morfologik belgilarini aniqlang.

3. Uning gapdagi vazifasini aniqlang.

4. Shu so'zning qaysi turkumga oidligi haqida xulosa chiqaring.

So'z va so'z birikmasining qanday gap bo'lagi ekanligini aniqlash

1. So'z yoki so'z birikmasining gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniqlang.

2. O'zi bog'langan so'z (bo'lak) orqali unga so'roq bering.

3. Soʻzning qanday grammatik shaklda ekanini aniqlang.

4. Oʻzi bogʻlangan boʻlakni maʼno jihatdan toʻldirayotgani, aniqlayotgani, oʻmi, paytini bildirayotgani yoki subyekti (egasi) ekanligiga koʻra qaysi gap boʻlagi boʻlishi haqida xulosa chiqaring.

TEST NAMUNALARI

1. Moslashuv yoʻli bilan birikkan soʻz birikmalari qatorini belgilang.

- A) bogʻda sayr, kitob uchun gʻilof;
- B) bulbul navosi, soʻz sehri;
- D) diqqat bilan tinglash, kitobni oʻqimoq;
- E) ijodiy uchrashuv, bahorgi shabada.

2. Boshqaruv yoʻli bilan hosil boʻlgan soʻz birikmasini koʻrsating.

- A) opasi bilan koʻrishmoq;
- B) yashil oʻrmon;
- D) navbatchining vazifasi;
- E) shahar koʻchalari.

3. Bitishuv yoʻli bilan hosil boʻlgan soʻz birikmasini aniqlang.

- A) bolalar haqida gʻamxoʻrlik;
- B) maktab hovlisi;
- D) oʻylab gapirmoq;
- E) gapirishga oson.

4. Qanday soʻz birikmalarida tobe soʻz bosh soʻzga grammatik vositalarsiz bogʻlanadi?

- A) boshqaruvda;
- B) moslashuvda;
- D) bitishuvda;
- E) boshqaruv va bitishuvda.

5. Quyidagi gap qanday gap boʻlaklaridan tuzilgan?

Kuchli qarsak sadolari anchagacha tinmadi. (R.F.)

- A) toʻldiruvchi, ega, aniqlovchi, kesim;
- B) ega, kesim, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim;
- D) aniqlovchi, aniqlovchi, ega, hol, kesim;
- E) aniqlovchi, ega, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim.

6. Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolgʻon yomon. (E. Vohidov)

Ushbu gapdagi kesim boʻlib kelgan sifatlarni toping.

- A) yaxshidir;
- B) yaxshidir, yomon;
- D) yomon;
- E) yaxshidir, achchiq, yomon.

7. Qaysi qatorda ibora bilan ifodalangan kesim berilgan?

- A) Ammamning zardali ovozi eshitib, damim ichimga tushib ketdi.
- B) Qolaversa, doktorlarga ham qiyin.
- D) Faridaning onasi uning har bir harakatini koʻzdan kechirdi.
- E) A, E javoblar.

8. «Ular shoshilinch holda binoni qabul qilib qoʻya qolgan edi» gapidagi kesimni aniqlang.

- A) qoʻya qolgan edi;
- B) qolgan edi;
- D) qilib qoʻya qolgan edi;
- E) qabul qilib qoʻya qolgan edi.

9. Quyidagi qaysi gapda ega bilan ot kesim orasida tire ishlatilishi lozim?

- A) Kitob bilim manbayi.
- B) Oʻgʻlimdan umidim koʻp.

D) Hammayoq top-toza, yovvoyi o'tlar yo'q.

E) Qo'shnilarim ham halol odamlar.

10. Hol vazifasida kelgan son qaysi qatorda qo'llangan?

A) Butun bir ro'zg'omi ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qilgan ekan.

B) Domlalar ham bitta-bitta tarqala boshladi.

D) Sizdan o'tinib so'rayman: bu gapingizni ikkinchi aytmang.

E) B va E javoblar.

11. Vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Undan allaqanday tiniq bir go'zallik barq urib turardi.

B) To'satdan onamning jahli chiqib ketdi.

D) Shu ondayoq ot kishnagani, tuyoqlarning asfaltga taraqlab urilgani eshitildi.

E) Faridaning onasi billur savatchada shokolad, kumush taqsimchada asal, mayiz keltirib qo'ydi.

12. Izohlovchilar to'g'ri berilgan qatorni toping.

A) oshpaz Farida, erka qiz.

B) xipchin-soch, kosmonavt-uchuvchi, telefon-avtomat.

D) «Nafosat» do'koni, shifokor Muslimov, vrach-pediatr.

E) Ona Vatan, «Yoshlik» jumali, mexanik haydovchi.

13. Uyushiq bo'lakli gapni aniqlang.

A) Sabr-toqatga qodir odam xohlagan narsaga erishishga ham qodir.

B) G'azab bilan boshlangan narsa uyat bilan tugaydi.

D) Vazmin va xushmuomala qaniya hammaga yoqadi.

E) Xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning sog'lom bo'lishidir.

14. Qaysi qatordagi gapda uyushiq bo'laklar mavjud emas?

A) Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.

B) Xalqqa qaradi-yu, lekin gapirmadi.

D) Bugun Anvar yoki O'tkir navbatchilik qiladi.

E) Barcha gaplarda uyushiq bo'laklar mavjud.

15. Uyushiq bo'laklarga xos bo'lgan xususiyatlar qaysi javobda noto'g'ri izohlangan?

A) uyushiq bo'laklarning hammasi bitta bo'lakka tobelanish yo'li bilan bog'lanadi.

B) doim o'zaro teng yoki sanash ohangi yordamida teng bog'lanadi.

D) doim bir xil so'roqqa javob bo'ladi.

E) barcha javoblarda uyushiq bo'laklarga xos xususiyatlar to'g'ri izohlangan.

16. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni toping.

A) Bektemir ko'zlarini ochganda, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi.

B) Sa'va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar.

D) Qobiljon Umaraliyev, tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishini yo'lga qo'yib yubordi.

E) Ibodat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi.

17. Gap bo'laklari odatdagicha joylashgan gapni belgilang.

A) Siz menga ko'p narsani o'rgatdingiz.

- B) Menga siz ko'p narsani o'rgatdingiz.
- D) Menga ko'p narsani siz o'rgatdingiz.
- E) Menga ko'p narsani o'rgatdingiz siz.

18. Tire noto'g'ri qo'llangan gapni toping.

- A) Beodoblik — johillik urug'i.
- B) Ota-onaga muhabbat — barcha yaxshi fazilatlarining asosi.
- D) Inson — nomi bo'la turib, o'zini bilmasa uyat.
- E) 8-Mart — xotin-qizlar bayrami.

19. Qaysi qatorda buyruq ma'nosi ifoda etilgan undov gap berilgan?

- A) Ko'p andisha qilmang, yuring!
- B) Ko'zlarini yumib, o'ylanib turishi biram chiroyli, biram chiroyli!
- D) Qayda bo'lsang, omon bo'!
- E) Kel, o'g'lon! Akang yubordimi?

20. Sodda gap berilgan qatorni aniqlang.

- A) Issiq birmuncha bo'shshgandek tuyulsa ham, dimlik zaptida edi.
- B) Osmonda qittak ham bulut yo'q, shamol ham esmaydi.
- D) Pardek yengil oppoq bulutlar cheti botayotgan oftob tig'ida xuddi kimxob parchadek lov-lov yonadi.

- E) Oftob o'chdi, ufqda olovli bulutlar qoldi.

21. Uyushiq bo'lakli gap qatorini belgilang.

- A) Kimning ilmdan rizq-u ro'zi bor,
Ilm o'rganishdan aslo etmas or.
- B) U charchaganidan, uyqusizligidan darmonsiz edi.
- D) Osmonda qittak ham bulut ko'rinmaydi.
- E) U ostonaga yetganda to'xtadi.

22. Shaxsi ma'lum gapni toping.

- A) Otaning amaliga suyanma.
- B) Kitoblami kutubxonaga topshirgani ketdi.
- D) Hayotni go'zalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi.
- E) Mana, otamizning muhabbati, sadoqati.

23. Shaxsi noma'lum gap qo'llangan qatorni aniqlang.

- A) Qo'rqqoq hamma narsadan mahrum bo'ldi.
- B) Elni ixtilof buzadi.
- D) O'tgan narsa hamisha totli.
- E) Yetmish go'zallikning biri — mehnat.

24. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan so'z qaysi gapda qo'llangan?

- A) To'g'ri, o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanadi.
- B) Qirlar bag'rini hali ko'm-ko'k, saf-saf pistalar, do'lanalar bezab turibdi.
- D) Asal ta'sirida yuzda qizillik, bilakda kuch, ko'zda nur yetarlicha bo'ladi.
- E) Ba'zi vaqtda, sug'orish paytlarida, kechalari ham tinim bo'lmas edi.

25. Undalmali gapni aniqlang.

- A) Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak.
- B) Oh, umr o'tdi-ketdi oqar suvday!
- D) Sharofat, aftidan, bunaqa gaplar bilan Siddiqjonning g'ashiga tegmoqchi edi.
- E) Hoy, quyoncha, yakka o'zing qayoqqa ketyapsan?

ISH QOG‘OZLARIDAN NAMUNALAR

36- umumta'lim maktabi direktori Sh. Abdullayevaga
8-^{sinf} sinf o'quvchisi V. Rustamovadan

Tushuntirish xati

Men 20...- yil 13-sentabrdan 20-sentabrgacha bo'lgan davrda onamning qattiq betoblighi tufayli darslarga qatnasha olmadim.

O'tilgan mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirib olaman.

Ilova: Onamning kasalligi haqidagi tibbiy ma'lumotnoma.

(imzo) V. Rustamova

20...- yilning ...- sentabri

Bildirish

8-fevral kuni soat 16⁰⁰ da maktabning majlislar zalida ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning tavallud kuni munosabati bilan adabiy-badiiy kecha o'tkaziladi.

Kechaga marhamat!

Ona tili va adabiyot to'garagi a'zolari diqqatiga! 18-noyabr (juma) kuni soat 15⁰⁰ da maktab ona tili va adabiyot to'garagining navbatdagi mashg'uloti bo'ladi.

To'garak kengashi

Diqqat! Diqqat!

Hazil-mutoyiba, kulgi, sho'x qo'shiq va raqs muxlislarini Yangi yil kechasiga taklif etamiz. Kecha 29-dekabr kuni soat 18⁰⁰ da majlislar zalida boshlanadi.

Maktab ma'muriyati

Taklifuoma

Hurmatli Abdufattoh Nazarov!

Maktabimiz o'quvchilari Sizni qishlog'imiz (mahallamiz)da istiqomat qilayotgan mehnat faxriylari bilan uchrashuvga taklif qiladi.

Uchrashuv 15-may kuni soat 18⁰⁰ da maktabning majlislar zalida boshlanadi.

Ma'lumotnoma

Shohruhbek Umidjonovich Abduraimov umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfini bitirdi va hujjatlari Toshkent iqtisodiyot universiteti qoshidagi Akademik litseyga qabul qilindi.

Ma'lumotnoma so'ralgan manzil uchun berilgan.

Kotiba:

(imzo)

(muhr)

Sh.Nosirova

ASOSIY ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

ajratilgan aniqlovchi — gapda o'zidan oldingi aniqlovchining ma'nosini izohlab, alohida ohang va to'xtam bilan aytiladigan bo'lak

ajratilgan bo'lak — gapning mazmun va ohang jihatdan ajratilgan bo'lagi

ajratilgan hol — gapda o'zidan oldingi holning ma'nosini izohlab, ta'kidlab, maxsus ohang bilan aytiladigan bo'lak

ajratilgan to'ldiruvchi — gapdagi biror to'ldiruvchining ma'nosini ta'kidlab, unga izoh berib, alohida ohang bilan aytiladigan bo'lak

aniqlanmish — aniqlovchi tobe bo'lgan hokim bo'lak

aniqlovchi — narsa-buyumni ifodalaydigan so'zga tobelanib, uning belgisini anglatadigan bo'lak

atov gap — bosh kelishikdagi so'z yoki o'tli birikma bilan ifodalanadigan bir tarkibli gap

bitishuv (aloqasi) — tobe so'z hokim so'zga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va ohang orqali bog'lanadigan aloqa tuni

boshqaruv (aloqasi) — tobe so'z hokim so'zning talabi bilan ma'lum bir grammatik shaklga kiradi, shu shakl orqali tobelanadi

buyruq gap — buyurish, iltimos, maslahat kabi mazmunli gap

darak gap — voqea-hodisani tasdiq yoki inkor yo'li bilan qayd etuvchi, xabar etuvchi gap

dialog — suhbatdoshlarning bir-biriga qaratilgan nutqi

ega — gaplarda fikrning kimga, nimaga qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bo'lak

egasiz gap — fikr asosi faqat kesim tarkibidan iborat bo'lgan gap

fe'l boshqaruvi — hokim qismi fe'l bilan ifodalangan boshqaruv aloqasi

fe'l kesim — sodda gaplarda tuslanishli fe'l shakli bilan ifodalangan kesim

gap — til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikmi ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi

gap bo'laklari — gap tarkibida ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'z birikmasi

grammatik ma'no — so'zning shakliy qismi — grammatik shaklni ifodalaydigan ma'no

grammatik shakl — grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositasi

hokim bo'lak — so'z birikmasining hokim qismi

hokim gap — ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi hokim qism

hol — ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi sababi, maqsadi, o'mi, payti va shu kabi belgilarini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak

kesim — gapda fikr ifodalab keluvchi asosiy bo‘lak

kesim tarkibi — kesim va unga tobe bo‘lgan ikkinchi darajali bo‘laklar

kiritmalar — gap bo‘laklari bilan shakliy-grammatik bog‘lanmagan, asosiy fikrga qo‘shimcha fakt bayon qiluvchi, aniqlik kiritish va shu kabi maqsadlarda qo‘llanuvchi so‘z, so‘z birikmasi, gaplar

mantiqiy urg‘u — gapdagi biror so‘zni, bo‘lakni (ma’nosini ta’kidlab, kuchaytirib) ajratuvchi urg‘u, gap urg‘usi

maqsad holi — ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiruvchi hol

miqdor-daraja holi — ish-harakatning bajarilishidagi miqdor-darajani belgilovchi hol

moslashuv (aloqasi) — tobe so‘z o‘z shaklini hokim so‘zning shakliga moslaydigan aloqa turi

murakkab gap — uyushiq bo‘lak, ajratilgan bo‘lak, undalma va kiritmalar ishtiroki bilan murakkablashgan sodda gap

murakkab kesim — birdan ortiq mustaqil so‘z bilan ifodalangan kesim

ot kesim — fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari, shuningdek, harakat nomi va otlashgan sifatdash shakllari bilan ifodalangan kesim

payt holi — ish-harakatning ro‘y berish vaqtini bildiruvchi hol

ravish holi — ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildiruvchi hol

ritorik so‘roq gap — o‘zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo‘lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan so‘roq gap

sabab holi — ish-harakatning bajarilish sababini bildiruvchi hol

sanash ohangi — ketma-ket keluvchi qismlarni aytishda qo‘llanadigan teng ohang

sintaktik aloqa — so‘z birikmasi va gap qismlarining o‘zaro bog‘lanishi

sintaktik birlik — sintaksisning o‘rganish manbai bo‘lgan birlik, ya’ni *so‘z birikmasi* va *gap*

so‘z birikmasi — bir-biri bilan tobelanish asosida birikkan, ma’no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan ikki yoki undan ortiq so‘zlar bog‘lanmasi

so‘z-gap — bir so‘z yoki ibora bilan ifodalanadigan gap

so‘roq gap — biror noma’lum narsa-hodisani bilish uchun murojaatni ifodalovchi, so‘roq mazmunli gap

teng aloqa — teng huquqli gap bo‘laklari, qo‘shma gapning qismlari orasidagi sintaktik aloqa

til birligi — bir-biridan vazifasi, ifoda materiali, tuzilishi va tizimdagi o‘mi bilan farqlanadigan til hodisasi

tobe aloqa — biri ikkinchisiga tobe bo‘lgan birliklar orasidagi sintaktik aloqa

tobe so‘z — so‘z birikmasida sintaktik jihatdan boshqa so‘zga tobe vaziyatdagi so‘z

to'ldiruvchi — o'z hokim so'ziga boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, shu so'z anglatgan harakat, narsa, belgiga nisbatan obyekt bo'lib keladigan bo'lak

to'liq gap — fikming to'la (aniq) ifodalanish imkoniyatini beradigan bo'laklari mavjud bo'lgan gap

to'liqsiz gap — tarkibida bir yoki bir necha bo'laklari ishtirok etmagan, ammo bu narsa matn yoki vaziyatdan aniq sezilib turadigan gap

undalma — so'zlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs yoki narsani bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi

undov gap — fikr bilan birga so'zlovchining voqelikka bo'lgan turlicha his-hayajonini ifodalovchi gap

uyushiq bo'laklar — gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklar

yig'iq gap — kesim va egadangina tashkil topgan sodda gap

yoyiq gap — kesim, egadan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan gap

yoyiq bo'lak — birdan ortiq mustaqil so'z yoki turg'un bog'lanma bilan ifodalangan gap bo'lagi

o'rin holi — ish-harakatning bo'lish, yo'nalish, boshlanish o'rnini bildiruvchi hol

shaxsi ma'lum gap — ega qatnashmagan, lekin harakatni bajaruvchi shaxs kesim tomonidan aniq sezilib turuvchi gap

shaxsi noma'lum gap — ega qatnashmagan, shu bilan birga, uchinchi shaxs shaklidagi fe'l kesim bajaruvchi shaxsni aniq ifodalamaydigan gap

shaxsi umumlashgan gap — ega qatnashmagan, kesim aniq shaxs shaklida bo'lsa-da, lekin mazmunan umumga qaratiladigan gap

shaxssiz gap — faqat kesim tarkibidan iborat bo'lib, bajaruvchi shaxs ma'nosi umuman ifodalanmaydigan gap



MUNDARJA

Kirish

1-dars. Kirish suhbat. «Soʻzdan soʻzning farqi bor...».....	4
2-dars. Adabiy nutq	5

Oʻtilganlarni takrorlash

3-dars. Mustaqil soʻz turkumlari.....	7
4-dars. Yordamchi soʻz turkumlari.....	8
5-dars. Undov, taqlid va modal soʻzlar.....	10
6-dars. Olmoshning maʼno turlari.....	11
7-dars. Ravishning maʼno turlari.....	12

Ijodiy matn. Insho va uning turlari

8-dars. Maʼlumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn.....	14
9-dars. Insho — ijodiy mehnatning oliy koʻrinishi.....	16
10-dars. Insho turlari.....	17
11-dars. Adabiy va adabiy-ijodiy mavzulardagi insholar.....	19
12-dars. Erkin mavzudagi insholar.....	20
13-dars. Inshoga epigraf tanlash.....	21
14–15-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	22

Sintaksis, ohang va tinish belgilari

16-dars. Sintaksis haqida umumiy tushuncha.....	23
---	----

Soʻz birikmasi sintaksisi

17-dars. Soʻz birikmasi (Hosil boʻlishi va grammatik maʼnolari).....	25
18-dars. Soʻz birikmasida soʻzlarning oʻzaro birikish usullari.....	27
19-dars. Teng bogʻlanish va tobe bogʻlanish.....	29
20-dars. Mustahkamlash darsi.....	30
21–22-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	32
23-dars. Matn mavzusi.....	32
24-dars. Soʻz birikmasi va soʻz.....	34
25-dars. Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz.....	35
26–27-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	37
28-dars. Soʻz birikmasi va turgʻun bogʻlanma.....	37
29-dars. Soʻz birikmalari zanjiri.....	39
30-dars. Matndagi asosiy fikr.....	40
31-dars. Soʻz birikmasi va gap.....	42

32-dars. Soʻz birikmalarini tahlil qilish.....	44
33–34-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	45

Gap

35-dars. Gap haqida umumiy maʼlumot.....	45
36-dars. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari.....	47
37-dars. Gapning his-hayajonning ishtirokiga koʻra turlari.....	49
38-dars. Gapning tuzilishiga koʻra turlari.....	50
39-dars. Mustahkamlash darsi.....	52
40–41-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	53

Sodda gap sintaksisi

42-dars. Sodda gap haqida umumiy maʼlumot.....	54
43-dars. Gapning boʻlaklarga ajratilishi.....	55
44-dars. Kesim va uning ifodalanishi.....	57
45–46-darslar. Feʼl kesim va ot kesim.....	58
47-dars. Sodda kesim va murakkab kesim.....	62
48-dars. Test topshiriqlari.....	63
49-dars. Murakkab ot kesimlarning tuzilishi.....	63
50-dars. Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi.....	64
51-dars. Ot kesim va ega orasida tirening qoʻllanilishi.....	65
52-dars. Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari.....	67
53-dars. Ega va uning ifodalanishi.....	68
54-dars. Egali va ega ishtirok etmagan gaplar.....	69
55-dars. Egasi yashiringan gaplar.....	70
56-dars. Ega ishtirok etmagan va shaxsi nomaʼlum gaplar.....	72
57-dars. Atov gaplar.....	73
58-dars. Soʻz-gaplar.....	75
59-dars. Yoyiq atov va soʻz-gaplar.....	76
60-dars. Mustahkamlash darsi.....	77
61–62-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	78
63-dars. Sodda yigʻiq va sodda yoyiq gaplar.....	79

Ikkinchi darajali boʻlaklar

64-dars. Hol haqida umumiy maʼlumot.....	82
65-dars. Payt va oʻrin holi.....	83
66-dars. Ravis va daraja-miqdor holi.....	85
67-dars. Sabab va maqsad holi.....	86
68-dars. Mustahkamlash darsi.....	88
69–70-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	89
71-dars. Toʻldiruvchi haqida umumiy maʼlumot.....	89
72-dars. Vositasiz toʻldiruvchi.....	91

73-dars. Vositali to'ldiruvchi.....	92
74-dars. Aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot.....	94
75-dars. Sifatlovchi aniqlovchi.....	96
76-dars. Qaratqichli aniqlovchi.....	98
77-dars. Izohlovchi.....	99
78-dars. Test topshiriqlari.....	101
79-dars. Gap bo'laklari tartibi.....	101
80-dars. Gap urg'usi (mantiqiy urg'u).....	103
81-dars. Mustahkamlash darsi.....	105
82-dars. To'liq va to'liqsiz gaplar.....	106

Uyushiq bo'lakli gaplar, ularda ohang va tinish belgilari

83-dars. Gapning uyushiq bo'laklari haqida ma'lumot.....	109
84-dars. Uyushiq kesim.....	110
85-dars. Uyushiq ega.....	112
86-87-darslar. Yozma nazorat ishi va uning tahlili.....	113
88-dars. Uyushiq hol.....	113
89-dars. Uyushiq to'ldiruvchi. Uyushiq aniqlovchi.....	114
90-dars. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z.....	116
91-dars. Mustahkamlash darsi.....	118
92-93-darslar. Yozma nazorat ish va uning tahlili.....	119

Ajratilgan bo'lakli gaplar

94-dars. Ajratilgan bo'lakli gaplar, ularda ohang va tinish belgilar.....	119
95-dars. Ajratilgan hol, ajratilgan to'ldiruvchi va ajratilgan aniqlov.....	121

Gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan «bo'laklar»

96-dars. Kiritmalar.....	123
97-dars. Undalma.....	125
98-dars. Undalmalarda tinish belgilarining qo'llanilishi.....	126

Sodda gap yuzasidan o'tilganlarni takrorlash

99-dars. Sodda gap tahlili.....	129
100-101-darslar. Test topshiriqlari.....	129
102-dars. Yakuniy dars va yozgi ta'tilga topshiriqlar.....	131

Ilova

Eslatmalar.....	132
Test namunalari.....	133
Ish qog'ozlaridan namunalar.....	136
Asosiy atamalamning izohli lug'ati.....	137

MUHAMMADJON QODIROV

HAMID NE'MATOV

MUHABBAT ABDURAIMOVA

RA'NO SAYFULLAYEVA

ONA TILI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik*

Uchinchi nashr

Muharrir **Xudoyberdi Po'latxo'jayev**

Badiiy muharrir **Yasharbek Rahimov**

Texnik muharrir **Yelena Tolochko**

Kichik muharrir **Gulbayra Yeraliyeva**

Musahhah **Umida Rajabova**

Matn teruvchi **Gulchehra Azizova**

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2014-yil 19-martda ruxsat etildi. Bichimi 60×90¹/₁₆. Ofset qog'oz. Times TAD garnituras. Kegli 11. Shartli bosma tabog'i 9,0. Nashr tabog'i 9,11. Adadi 366182 nusxa. Shartnoma № 13–2014. Buyurtma № 14-180.

Original-maket O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Qodirov M.

O–58 Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov va boshq. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. – 144 b.

ISBN 978-9943-05-619-0

UO'K: 811.512.133
BBK 81.2O'zbya721

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T.r.	O'quvchi-ning ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslik-ning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslik-ning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.